Pirnazar DAVRONOV, Maxbuba RAXIMQULOVA

MATEMATIKADAN
MISOL VA MASALALAR YECHISH

7-KITOB



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLAGI

SAMARQAND VILOYATI XALQ TA’LIMI XODIMLARINI
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH HUDUDIY MARKAZI

Pirnazar DAVRONOV, Maxbuba RAXIMQULOVA

MATEMATIKADAN
MISOL VA MASALALAR YECHISH

“QAMAR MEDIA” NASHRIYOTI
TOSHKENT – 2021

UDK 51(076.1)
KBK 22.1я7
P 46

P. Davronov, M. Raximqulova. Matematikadan misol va masalalar yechish. Metodik qo‘llanma. – “Qamar media” nashriyoti. Toshkent – 2021, 315-bet

Taqrizchilar:

E.Sattorov – SamDU matematika fakul’teti, “Matematika, fizika va funksional analiz” kafedrasi dotsenti

B.Usmanov – Samarqand viloyati XTXQTMOHM, “Aniq va tabiiy fanlar” kafedrasi dotsenti

Mazkur metodik qo‘llanmani yozishdan maqsadi, insonlarning ma’naviy ehtiyojlarini qondirishga ko‘maklashish asosida jamiyat, mamlakat taraqqiyotiga hissa qo‘shishdan iborat. Shu ma’noda maktab matematikasini o‘qib-o‘rganuvchi o‘qituvchilar, ayniqsa repetitorlik qiluvchi hamkasblar, maktabdan keyingi ta’limga tayyorgarlik ko‘ruvchi o‘quvchilar davlat test markazi tomonidan nashr etilgan axborotnomalardagi misol va masalalarini yechishda biror qiyinchlikka duch kelishsa, biz yozgan kitoblardan foydalanishlari qulay bo‘ladi.

ISBN 978-9943-7049-3-0

S O‘ Z B O S H I

Assalomu alaykum muhtaram kitobxon. Sizni muhtaram, - deb atadim. Boisi, Olloh insonni muhtaram va mukarram qilib yaratgan. Bunga barchamiz birdek musharraf bo‘lishimiz uchun shahdu shijoat ko‘rsatmog‘imiz darkor. Men, 1973 - 2018 yillar davomida oily o‘quv yurtlarida faoliyat ko‘rsatdim va doimo talabalarimdan ma’lum qismining yaxshi o‘qimasligidan tashvishlanib yashadim. Sababi, yoshlarimizdan har biri, jonajon Vatanimizning porloq kelajagini yaratishga, uzining hissasini qo‘shadigan insonlar hisoblanadi.

2018-yilning sentabr oyidan boshlab “Samarqand viloyat xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi”da faoliyat ko‘rsatayapman. Shu joyga ishga kelib, talabalarimning yaxshi o‘qimasligi sabablarini bildim.

Markaz rahbarining topshirig‘iga asosan, malaka oshirishga kelgan tinglovchi maktab o‘qituvchilarining o‘zi o‘qitadigan fani bo‘yicha bilimlari bir o‘quv yili davomida o‘rganildi. Afsuski, maktablarning biror o‘quv fani bo‘yicha o‘qituvchilarning o‘zlashtirishlari 50% dan oshmadi. Jahonda o‘qitilishiga eng asosiy e’tibor qaratiladigan matematika fani bo‘yicha, bizning o‘qituvchilardan o‘rtach 57 foizi qoniqarsiz natija ko‘rsatishdi. Mamlakat, bu darajadagi o‘qituvchilarning o‘quvchilaridan nimani kutishi mumkin?

Bu salbiy oqibatning bosh sababi, aksariyat o‘qituvchilarning davlatimiz tomonidan chiqarilgan ta’lim

to‘g‘risida qabul qilinayotgan qonunlar, farmonlar, qarorlar va boshqa me’yoriy hujjatlardan behabarligi, o‘qitadigan fani, uni o‘qitish metodikasi, pedagogika, psixologiya fanlari yutuqlarini o‘zlashtirib, ularni kasbiy-shaxsiy faoliyatiga qo‘llash bo‘yicha, o‘z ustida, talab darajasida ishlamasligidan iborat.

Malaka oshirishga kelgan o‘qituvchilarining e’tirof etishlaricha, 50% dan ortiq o‘quvchilar o‘zlarining o‘quv imkoniyatlaridan past darajada o‘qigan holda maktablarni bitirishmoqda.

Men, bunday ma’lumotni bergan o‘qituvchilardan biriga “Aytaylik, sinfingizda 25 nafar o‘quvchi bor, ulardan biri sizning farzahdingiz. 24 nafar o‘quvchi yaxshi o‘qiyapdi, bitta sizning farzandingiz yomon o‘qishiga rozimisiz?”- degan savol bilan murojaat qilishni odat qilganman. Ular keskin ravishda “yuq” deb javob berishadi. Shunday ekan, 50% dan ortiq o‘quvchilarni savodsiz qoldirishni qanday baholaysizlar? O‘sha bilimi past bolaning ota-onasi qariganda, o‘zini eplay olmaydigan bu inson ularga qanday ko‘maklashadi? Bu insonning zimmasiga tushadigan mamlakat yukini kim ko‘taradi? kabi savollarimiz, o‘qituvchilarga o‘zining ta’sirini ko‘rsatmoqda, o‘ylantirib qo‘ymoqda. Ularning aksariyat qismi, o‘z ustimizda ishlab, o‘quvchilarni yaxshi o‘qitmasak bo‘lmas ekan,- degan fikrlarga kelishmoqda.

Xalqimizda “Erni er qiladigan ham, qora yer qiladigan ham …”-degan naql bor. Shunga o‘xshash, mamlakatni yuqori darajada rivojlantiradigan ham, taraqqiyotini susaytiradigan ham o‘qituvchilar hisoblanadi. Chunki, mamlakat taraqqiyoti, undagi yetuk kadrlariga bog‘liq. Bunday kadrlarni esa o‘qituvchilar tayyorlab beradi. Demak, Ona Vatanimizning kelajakdagi

taraqqiyoti, bevosita uning oqituvchilari va murabbiy mutaxassislari kasbiy-shaxsiy faoliyatlarining natijadorligiga bog‘liq.

2018-yil setntabrdan boshlab, ozim dars o‘tadigan, kamida 50 nafar matematika va 25 nafar fizika fani o‘qituvchilariga, har oyida eksperiment tariqasida, 8-sinf o‘quv dasturi doirasidagi tengsizlikni isbotlashlarini taklif etib kelaman. Hozirga qadar mingdan ortiq o‘qituvchilardan faqat ikki nafari tengsizlikni isbotlay olishdi. Bu muvaffaqiyatining sababi, ular o‘quvchilar repetitorligi bilan shug‘ullanishadi.

Men, maktablarimizda fidokorona mehnat qilayotgan hamkasblarimning faxrli va zahmatli faoliyatlarini kamsitmagan holda, repetitorlikni ta’limning eng natijador usuli deb bilaman. Har bir o‘quvchi bilan yakka tartibda ishlashga yunaltirilgan repetitorlik eng yuqori natija beradi.

Repetitorlik qiluvchi o‘qituvchi mustaqil izlanadi, mustaqil o‘rganadi, o‘z ustida tinimsiz ishlaydi. Barcha o‘qituvchilarning oz ustida tizimli ishlashga erishmasdan, Vatan taraqqiyotiga erishib bo‘lmaydi.

Hazrat Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf o‘gitlarida aytilishicha, muallimlik eng yuksak farz, ya’ni majburiy kasb amali bo‘lib, ustozlar haqqiga avvalo Olloh, farishtalar, barcha osmon va er egalari, hatto uyasidagi chumoli, suv ostidagi baliqlar ham salovat aytib turishar ekan. Har qanday kasb egasining, ayniqsa o‘qituvchining o‘z kasbiy-shaxsiy faoliyatiga mas’uliyatsizlik bilan yondashishi Olloh oldida katta gunoh, Vatanga xiyonat hisoblanar ekan. Bundan ko‘rinadiki, Ikki dunyo saodatini o‘ylaydigan har bir inson kasbiga sodiq bo‘lmog‘i darkor.

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf Ibn Sinoning ilm o‘rganishi tartibi misolida, qadimgi o‘qib-o‘rganishning 7 bosqichini quyidagicha bayon qilgan: 1) 10 yoshgach madrasada Qur’oni karimni yod olgan; 2) qonun, ya’ni shariat ilmi; 3) matematika; 4) falsafa; 5) mantiq; 6) tib; 7) tabbiiy fanlarni o‘rgangan. Ibn Sino matematika ilmini, ko‘mir sotib tirikchiligini o‘tkazadigan olimdan olgan.

Jahonda “Singapur mujizasi” iborasi ko‘p ishlatiladi. Singapur davlati asoschisi Li Kuan Yuga, siz “Singapur mo‘jizasi” ga qanday erishdingiz, - degan savol ko‘p berilar ekan. Li Kuan Yuning javobi: “Men Singapurda mo‘jiza yaratmadim. Men faqat Vatanim oldidagi burchimni bajardim, xolos. Davlat byudjetini ta’limga yunaltirdim. Muallimni eng quyi tabaqadan Singapurdagi eng yuqori martabaga ko‘tardim. Davlatdagi “mo‘jiza”larni qilgan insonlar muallimlardir. Ular ilm, axloq, mehnat va haqiqatni sevadigan kamtar avlodni etishtirib chiqardilar. Buning uchun ulardan minnatdormiz”.

Bizning Prizidentimiz Shavkat Mirziyoyv ham davlat boshiga kelgan kundan boshlab, asosiy e’tiborini ta’lim tizimini tubdan isloh qilishga qaratmoqda. Ta’lim to‘g‘risidagi chiqargan barcha farmonlari, qarorlari, Oliy Majlisga murojaatnomalari, xalq ta’limi xodimlari bilan muloqatlari mazmun mohiyati maktabgacha ta’limni, maktab ta’limini rivojlantirishga, o‘qituvchi va murabbiylarni kasbidan tashqari ishlardan, ortiqcha qog‘ozbozliklardan ozod qilishga, ularning ijtimoiy, iqtisodiy mavqeni oshirishga qaratilgan. Jumladan, O‘zbekiston Republikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyv huzurida 2019-yil 23-avgust kuni “Yoshlarni vatanparvarlik ruxida tarbiyalash va jamiyatda o‘qituvchi mavqeini oshirish” masalalariga bag‘ishlab

o‘tkazilgan videoselektr majlisi Bayonida “O‘zbekiston Republikasi Prezidenti Administratsiyasi, Hukumati, barcha darajadagi davlat va xo‘jalik boshqaruv organlari, mahalliy hokimliklar rahbarlarining e’tibori maktab ta’limini rivojlantirish buyuk umummilliy maqsadga, umumxalq harakatlga aylanishi, ustozlarga yuksak hurmat-ehtirom ko‘rsatish – jamiyatimizda oliy qadriyat darajasiga ko‘tarilishi zarur ekanligi ko‘rsatilsin”.

Joylarda barcha rahbarlar va mutasaddilar “Butut kuchni xalq ichidan olaylik, quchoq ochib maktablarga boraylik” shiori ostida maktab ta’limini rivojlantirishga yunaltirilgan buyuk umummilliy maqsadga, umumxalq harakatlga ytakchilik qilishi ko‘rsatib o‘tilsin” kabi qator, juda muhim qarorlar o‘z aksini topgan.

O‘qituvchilarning maoshlari 2017-2019 yillarning o‘zida 2,5 barobar oshirildi, olis tumanlardagi maktablarda ishlayotgan pedagog kadrlar mehnatini rag‘batlantirish uchun ularga 50 foizgacha qo‘shimcha oylik ustamalar o‘rnatildi.

Muqaddas kitobimiz Qur’oni Karim “Iqro”, ya’ni o‘qi deb boshlangan bo‘lsa, Payg‘ambarimiz (s.a.v): “Beshikdan qabrgacha ilm izlang” deb marhamat qilgan bo‘lsalar, Imom Buxoriy (r.a): “Dunyoda ilmdan boshqa najot yuq va bo‘lmagay”,-deb aytgan bo‘lsa, Republikamiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “O‘qituvchi va murabbiylar biz uchun ibrat namunasi, barcha insoniy fazilatlar timsolidir”, - deb bizlarni ulug‘laydi.

Muallim va murabbiylar kitoblarda va davlatimiz rahbari tomonidan shunchalik ulug‘lanar ekanmiz, Ona Vatanimizning porloq kelajagi va avlodlarimizning bizdan rozi bo‘lishlari,

faxrlanishlari, ikki dunyomizning saodatli bo‘lishi uchun kasbimizga sodiqlik bilan mehnat qilishimiz zarur.

Men, Davlat test markazi tomonidan 1996-2003 yillarda chop etilgan 89 ta “Axborotnoma” ning 77 tasida matematika fanidan berilgan 5773 ta misol va masalalarni, 2003 yildan so‘ng “Matematika” va “Abiturient” ruknlarida e’lon qilingan misol va masalalarni yechib chiqqanman. Tabiiy-ki, malakalarini oshirishga kelgan maktablar o‘qituvchilarda “70 yoshdan oshgan bobo shuncha ish qilayotgan ekan, men nima qilayapman”,-degan fikirni uyg‘otish, ularni o‘z ustida ishlashga va repetitorlik qilishga yunaltirish maqsadida, yechilgan misol va masalalarimni matematika va fizika yunalishlari tinglovchilariga ko‘rsataman. Ishlarni ko‘rgan, mutaxassisligi qaysi fandan bo‘lishiga qaramasdan, ularni kitob qilib chiqarishimni taklif etishadi, hamma uchun foydali bo‘lishini ta’kidlashadi. Hatto ko‘pchiligi, qo‘lyozmalarimdan nushalar olishmoqdalar.

Fikrimizcha, umumiy orta ta’lim maktablari o‘qituvchilarni o‘z ustida ishlatish mexanizmlaridan biri, ularning repetitorligini soliqsiz qilib qo‘yishdan iborat. Bunday holda, mamlakat ko‘proq foyda ko‘radi. Davlat tomonidan soliqsiz rag‘batlantiruvch iqtisodiy yordam ko‘rsatish mexanizmi, hozirgi davrda juda dolzarb bo‘lib turgan, muallimlarni o‘z ustida ishlashga, kasbiga sodiqlik bilan o‘quvchilarini yaxshi o‘qitishga yunaltiradi.

Axborotnomalarda e’lon qilingan misol-masalalardan 5000 tasi, mavzulashtirilgan holda, juda katta zahmatli mehnatlar evaziga, M.M.Muxitdinov, Sh.B.Ahmedov, N.O.Xusanovlar hammuallifligida, uchta kitob shaklida “Matematika 5000

misollar yechimlari va javoblari” nomi bilan 2019 yil, Toshkent shahridagi “Zamin nashr” da chop etilgan.

Mualliflar istihola qilishgan shekilli, matematika va aniq fanlar mutaxassislari, hatto umumiy o‘rta ta’lim maktablarini bitirgan, o‘z ustida ishlaydigan har qanday inson uchun zarur bo‘lgan kitobni, o‘qishga kiruvchi yoshlar uchun mo‘ljallangan deb yozishibdi. To‘g‘ri emas. Chunki, umumjahon maktab ta’limida to‘rtta fan, ya’ni mamlakat tili, tarixi, matematika va 2000 yildan ingliz tili fanlarini o‘qitilish majburiy qilib qo‘yilgan. Shu ma’noda ham bu kitoblar mamlakatimizning har bir kutubxonasida, maktablarida, oliy o‘quv yurtlarida, oilalarda bo‘lishi kerak. Fikrim to‘g‘riligining yana bir isbotini keltiraman. Ko‘p yillar “Oliy matematika” kafedrasiga mudirlik qilgan, “Oliy matematika”, “Matematik statistika”, “Ehtimollar nazariyasi” fanlaridan kitoblari nashr etilgan, yaxshi mutaxassis, 1996 yilda bitta axborotnomadagi 60 ta misol-masalalardan 27 tasi xato berilgan, bir ko‘ringda deb kelgandi. U, o‘g‘lini oliy o‘quv yurtiga kirishga tayyorlamoqchi bo‘lgan. Ushbu holat, o‘sha hamkasbimizning elementar matematika bilan shug‘ullanmay qo‘yganligini bildirardi. Chunki, elementar mamematika ko‘pchlik masalalarini yechishning o‘zgarmas qolipi yo‘q. Chunki, bitta misol yoki masalani yechishning juda ko‘p yo‘llari, usullari mavjud. Matematikaning boshqa sohalari muayyan qolipda turadi. Masalan, aniq integralga doir masalalar integral yig‘indi, differensial tenglamalar esa integrallashga keltirib hal etiladi va h.k.z.

Elementar mamematika, matematikaning boshqa sohalariga nisbatan, insondan ko‘proq devergent va konvergent fikrlashni

talab etadi. Ushbu jarayon, o‘quvchida abstrakt tafakkur qilishni kuchli rivojlantiradi va shakllantiradi.

Devergent fikrlash, bitta masalani ko‘p usullarda yechishni nazarda tutsa, konvergent fikrlash, o‘sha yechimlar ichidan eng yaxshi variantini, ya’ni qisqa, oson va tushunarli usulni tanlay olishni bildiradi.

Hamkasblarimning takliflariga asosan, o‘zim yechgan misol va masalalarimni qo‘llanma shakliga keltirish ustida ishlar ekanman, ism-shariflari yuqorida keltirilgan mualliflarning kitoblaridan, o‘zim ikkilangan misol va masalalarning javoblarini taqqoslab foydalandim. Ular mening ishlarimdan ham foydalanishadi degan umiddaman. Masalan, ular 5000 misol va masalalarni yechishgan bo‘lsa, men 5773 ta yechim taklif etaman. Shuningdek, 1-kitobning 148-betida yechimi keltirilmagan 24-savolga o‘xshash masalalarni yechish usullarini ham keltiraman.

Kitoblar mualliflari, ozlari taklif etgan misol va masalalarni yechishning tugal sharhlarini berishgah, biz sharhni kamaytirib, kitobxonni ko‘proq mustaqil izlanishga, mustaqil ishlashga yunaltirishni maqsad qilib qo‘ydik, ya’ni o‘quvchi foydalanilgan formulalarni izlab topsin, masala yechilishining oson joylari, o‘quvchining qo‘liga qog‘oz, ruchka olib oxiriga yetkazishi uchun qoldirilgan.

Kitob yozishning bosh maqsadi, insonlarning ma’naviy ehtiyojlarini qondirishga ko‘maklashish asosida jamiyat, mamlakat taraqqiyotiga hissa qo‘shishdan iborat. Shu ma’noda o‘qib-o‘rganuvchi, biror mavzu bo‘yich qandaydir misol-masalani yechishda qiyinchlikka uchrasa hamkasblarimiz kitoblaridan, axborotnomalar bilan ishlayotgan o‘quvchi,

o‘qituvchi, ayniqsa repetitorlarning biz yozgan kitoblardan foydalanishlari qulay bo‘ladi.

1996-1997-yillar axborotnomalarida berilgan misol va masalalarning yechimlarini mavzulashtirilgan tarzda, qolgan yillarnikini esa axborotnomalarda keltirilgan tartibda berdik.

Biz taklif etayotgan tizimda, o‘quvchi dastlab mavzulashtirilgan bir xil tipdagi misol va masalalarni yechishsa, keyingi axborotnoma bilan ishlash bosqichida, oldin o‘rgangan bilimlarini, o‘zgaruvchan sharoitlarda ham qo‘llay olish ko‘nikmalarini egallashadi.

Olloh bo‘l degan narsa yoki hodisa o‘sha damda zohir bo‘ladi. Biroq, Olloh Qur’oni Karimda olamni olti kunda hisob kitob bilan yaratganligini aytgan. Hisob kitob esa matematika. Demak, matematika Ollohning insoniyatga bergan ne’matlaridan biri. Shuning uchun ham, matematika fani muallimlari mutaxassisliklari bilan faxrlanishlari barobarida, Ollohdan qo‘rqib, uning farz qilib bergan kasbiga sodiqlik bilan ishlashlari joiz.

Matematika bu hayot. Matematikasi to‘kis joyda ofat ham bo‘lmaydi, hech bir ishlab chiqrish bankrotga ham uchramaydi. 2020-yilning 1-may kuni Sirdaryo viloyatining “Sardoba” suv omborida talofat ro‘y berdi. Minglab yurdoshlarimiz aziyat chekishdi, mamlakat g‘aznasiga katta ziyon keltirdi. Bu talofatning asosiy sababi, “Sardoba” suv omdori qurilishi matematikasining buzilishida, matematikasiga xiyonat qilinishida deb bilaman.

Men, umrimning ko‘p qismini matematika olami ichida o‘tkazganim bilan faxrlanaman. Uni o‘rganishni, misol va masalalarini yechishi hush ko‘raman. Ayrim masalalarni

haftalab, oylab yecha olmay yuraman. Ba’zan o‘sha masalani, uxlab yotgan paytimda, tushimda yechaman. Aslida u masalani yechish oson bo‘ladi. Lekin kerakli almashtirish esga kelmayotgan bo‘ladi. Masalani bersang yecha olmaydigan, yechmini bersang osonku deydiganlar ko‘p bo‘lishadi. Men uchun o‘zim yechmagan har qanday masala qiyin, yechganim esa oson. Professor V.R.Smishlyaev matematika eng qiyin, eng oson fan deganda haq edi. Hayotda yashash ham, matematika olamida turish ham shunday. Masalani uzoq muddat ishlay olmay yurib, uning yechimini daqiqalar ichida topilgandagi quvonchni, lazzatni, o‘z-o‘zingdan g‘ururlanishni barchamizga nasib etsin.

Ko‘pchiligimizga masalani bunday yechibsiz, u boshqacha ishlanmaydimi,-deyilsa, shoshilib qolamiz. Bu borada, matematikadan 13 tomdan iborat “Negizlar” asarini yozgan Evkliddan o‘rnak olish kerak. Evklidni podshoh huzuriga chorlab, hayotda “Negizlar” siz yashab bo‘lmaydimi, - degan savolni berdi. Shunda, Evklid qat’iy ishonch bilan, shohmi-gadomi hayotda “Negizlar”dan foydalanishga majbur, - deb javob bergan edi. Chunki, har kim uzining qobiliyati darajasida, paydo bo‘lgan muammoni devergentmi, konvergentmi har xil usulda yechishi mumkin. Uning mehnatini hurmat qilishimiz kerak. Chunki hamkasbimiz olgan o‘sha yechim, bizni yangi marralarga, konvergent yechim olishga undaydi. Ajdodlarimiz yasagan tosh qurollar, bugungi rivojlangan texnika, texnologiyalarning debochsi hisoblanadi. Ushbu ijtimoiy uzluksiz jarayonda paydo bo‘layotgan muommolar yechimlarining oson yo‘llari topilib boradi, insoniyatning emushlari engillashib, hayot go‘zallashb boradi.

Xulosa qilib aytganda, barchamiz Vatanimiz, elimiz manfaati yulida umr bo‘yi o‘quvchi bo‘lib qolaylik, eng muhimi mustaqil izlanib, mustaqil o‘rganib, yangidan yangi g‘oyalarni o‘zlashtiraylik, ularni hayotga tatbiq etishda haqiqiy pragmatik bo‘lib, millatimizning koriga yaraydigan azmu shijoatli, g‘ayratu jasoratli, aqlu zakovatli kadrlar tayyorlab beraylik.

Ushbu qo‘llanmani tayyorlash va nashr qilishda, katta xizmat ko‘rsatgan shogirdim, Samarqand viloyat xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi “Maktabgach, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari” kafedrasi mudiri, dotsent, kitobning hammuallifi Maxbuba Raximqulovaga o‘z minnatdorchiligimni bildiraman.

Professor P.Z.Davronov

1-axborotnoma

1. $\sqrt{\left(\frac{\pi}{2}-\sqrt{3}\right)^2}+\sqrt{\left(\frac{\pi}{3}-\sqrt{2}\right)^2}-\sqrt{5+2\sqrt{6}}$ ni soddalashtiring.

A) $\frac{5\pi}{6}-2(\sqrt{2}+\sqrt{3})$ B) $\sqrt{3}+\sqrt{2}$ C) $\frac{5\pi}{6}$

D) $-2\sqrt{3}-2\sqrt{2}$ E) $-\frac{5\pi}{6}$

Yechilishi: $\sqrt{\left(\frac{\pi}{2}-\sqrt{3}\right)^2}+\sqrt{\left(\frac{\pi}{3}-\sqrt{2}\right)^2}-\sqrt{5+2\sqrt{6}}=$

$=\left|\begin{array}{c}\frac{\pi}{2}-\sqrt{3}<0;\\ \frac{\pi}{3}-\sqrt{2}<0;\\ Murakkab\ radikal\\ formulasiga\ asosan:\\ \sqrt{5+2\sqrt{6}}=\sqrt{3}+\sqrt{2}.\end{array}\right|=-\frac{\pi}{2}-\frac{\pi}{3}+\sqrt{3}+\sqrt{2}-$

$-\left(\sqrt{3}+\sqrt{2}\right)=-\frac{5\pi}{6}$. Javobi: E.

2. $\sqrt{x^2}-\sqrt[3]{x^3}+\sqrt[4]{x^4}-\sqrt[5]{x^5}=7$ tenglamani yeching.

A) *yechimga ega emas* B) 1,75

C) 1,25 D) -1,25 E) -1,75

Yechilishi: $\sqrt{x^2}-\sqrt[3]{x^3}+\sqrt[4]{x^4}-\sqrt[5]{x^5}=7 \Rightarrow$

$\Rightarrow |x|-x+|x|-x=7 \Rightarrow 2|x|-2x=7 \Rightarrow$

$\Rightarrow \left|\begin{array}{c}x\geq 0 \Rightarrow \emptyset;\\ x<0.\end{array}\right| \Rightarrow -2x-2x=7 \Rightarrow x=-1{,}75.$

Javobi: E.

3. $ax^2 + bx + c = 0$ tenglamaning koeffitsentlari $b = a + c$ tenglikni qanoatlantiradi. Agar x_1 va x_2 berilgan kvadrat tenglamaning ildizlari bo‘lsa, $\frac{x_2}{x_1} + \frac{x_1}{x_2}$ ning qiymatini toping.

A) $\frac{a^2-c^2}{ac}$ B) $\frac{a}{c} + \frac{c}{a}$ C) $\frac{1}{a} + \frac{1}{c}$ D) $\frac{1}{a} - \frac{1}{c}$ E) $\frac{2(a+c)}{ac}$

Yechilishi: $ax^2 + bx + c = 0;\ \ b = a + c;\ \ \frac{x_2}{x_1} + \frac{x_1}{x_2};$

$x_{1,2} = \frac{-(a+c) \pm \sqrt{(a+c)^2 - 4ac}}{2a} => x_1 = -1;\ \ x_2 = -\frac{c}{a}; =>$

$=> \frac{x_2}{x_1} + \frac{x_1}{x_2} = \frac{-\frac{c}{a}}{-1} + \frac{-1}{-\frac{c}{a}} = \frac{a}{c} + \frac{c}{a}.$ Javobi: B.

4. $y = x^2 + bx + 4$ parabola b ning nechta butun qiymatida absissalar o‘qiga urinadi?

A) 0 B) 1 C) 2 D) 3 E) 4

Yechilishi: $\begin{cases} y = x^2 + bx + 4 \\ y = 0 \end{cases} => x^2 + bx + 4 = 0 =>$

$=> \begin{cases} D = 0; \\ b^2 - 4ac = 0 \\ a = 1 > 0; \end{cases} => b^2 - 4 \cdot 1 \cdot 4 = 0 => b = \pm 4.$

Javobi: E.

5. Agar x_1 va x_2 $x^2 + 3x - 3 = 0$ tengalamaning ildizlari bo‘lsa, $x_1^4 + x_2^4$ ning qiymatini toping.

A) 207 B) 192 C) 243 D) 168 E) 252

Yechilishi: $Viyet\ teoremasiga\ asosan$:

$x^2 + 3x - 3 = 0 => x_1^4 + x_2^4 =$

$= p^4 - 4 \cdot p^2 \cdot q + 2 \cdot q^2 = 207.$ Javobi: A.

6. $(x^2 + 3x)^2 < 16$ tengsizlikni yeching.

A) (-1; 4) B) (-4;1) C) (-2;3)

D) (-3;2) E) $(-2; 1) \cup (2; 3)$

Yechilishi: $(x^2 + 3x)^2 < 16 => |x^2 + 3x| < 4 =>$

$\Rightarrow\ -4 < x^2 + 3x < 4\ \Rightarrow \begin{cases} x^2 + 3x + 4 > 0 \\ x^2 + 3x - 4 < 0 \end{cases} \Rightarrow$

$\Rightarrow \begin{cases} x_1 = -4; \\ x_2 = 1. \end{cases}$ Javobi: B.

7. $\frac{x(x-1)^2}{(x+2)^3} \leq 0$ tengsizlikni yeching.

A) (-1;0] B) (-2;1] C) (-2;0]

D) $(-2; 0] \cup \{1\}$ E) $(-2; 1) \cup \{0\}$

Yechilishi: $\frac{x(x-1)^2}{(x+2)^3} \leq 0 \Rightarrow \begin{cases} x = 0 \\ (x-1)^2 = 0 \\ (x+2)^3 \neq 0 \end{cases} \Rightarrow$

$\Rightarrow \begin{cases} x = 0 \\ x = 1 \\ x \neq -2 \end{cases} \Rightarrow$



$\Rightarrow (-2; 0] \cup \{1\}$. Javobi: D.

8. $\sqrt{\frac{2-3x}{x+4}} > -2$ tengsizlikning eng kichik butun yechimini toping.

A) 0 B) -1 C) -2 D) -3 E) -5

Yechilishi: $\sqrt{\frac{2-3x}{x+4}} > -2 \Rightarrow \frac{2-3x}{x+4} \geq 0 \Rightarrow \begin{cases} x = \frac{2}{3} \\ x \neq -4 \end{cases} \Rightarrow$



$\Rightarrow x = -3$. Javobi: D.

9. $\frac{1}{8} + \frac{1}{24} + \frac{1}{48} + \frac{1}{80}$ yig'indini hisoblang.

A) 0,1 B) 0,2 C) 0,4 D) 0,6 E) 0,8

Yechilishi: $\frac{1}{8} + \frac{1}{24} + \frac{1}{48} + \frac{1}{80} = \frac{1}{8}\left(1 + \frac{1}{10}\right) + \frac{1}{24}\left(1 + \frac{1}{2}\right) =$

$= \frac{1{,}1}{8} + \frac{1{,}5}{24} = \frac{3{,}3+1{,}5}{24} = \frac{48}{240} = \frac{1}{5} = 0{,}2.$ Javobi: B.

10. $y = \left(\text{tg}\frac{\pi}{6}\right)^{x^2-4x+2}$ funksiyaning qiymatlar sohasini toping.

A) $\left[\frac{1}{\sqrt{3}};\ \sqrt{3}\right]$ B) $\left(0;\sqrt{3}\ \right]$ C) (0;3]

D) $(-\infty; 3]$ E) $\left[-\ \frac{1}{\sqrt{3}};\ \sqrt{3}\right]$

Yechilishi: $y = \left(\text{tg}\frac{\pi}{6}\right)^{x^2-4x+2} = \left(\frac{1}{\sqrt{3}}\right)^{x^2-4x+2} =>$

$=> y' = \left(\frac{1}{\sqrt{3}}\right)^{x^2-4x+2} \cdot \ln\left(\frac{1}{\sqrt{3}}\right) \cdot (2x-4) =>$

$$=> \begin{cases} y' = 0 \\ \left(\frac{1}{\sqrt{3}}\right)^{x^2-4x+2} \neq 0 \\ \ln\left(\frac{1}{\sqrt{3}}\right) \neq 0 \end{cases} => 2x - 4 = 0 => x = 2;$$

$y(2) = \left(\frac{1}{\sqrt{3}}\right)^{-2} = 3 => (0; 3]$. Javobi: C.

11. $\log_x(5x-4) = 2$ tenglamaning ildizlari yig'indisini toping.

A) 5 B) 4 C) 3 D) 2 E) 4,5

Yechilishi: $\log_x(5x-4) = 2$;

Aniqlanish sohasini toping:

$x > 0,\ x \neq 1,\ 5x - 4 > 0 => x > 0{,}8.$

$5x - 4 = x^2 => x^2 - 5x + 4 = 0 => \begin{cases} x_1 = 1 \\ x_2 = 4 \end{cases} =>$

$=> x = 4.$ Javobi: B.

12. Nechta butun son $3^{\sqrt{5-x}} \leq (x-4) \cdot \ln(x-4)$ tengsizlikni qanoatlantiradi?

A) $\emptyset$ B) 1 C) 2 D) 3 E) 4

Yechilishi: $3^{\sqrt{5-x}} \leq (x-4) \cdot \ln(x-4) =>$

$$=> \begin{cases} 5-x \geq 0 \\ x-4>0 \end{cases} => \begin{cases} x \leq 5 \\ x>4 \end{cases} => (4;5]; Biroq \ln 1 = 0.$$

$Demak, \emptyset.$ Javobi: A.

13. $\sqrt{5^x} + \sqrt{12^x} = \sqrt{13^x}$ tenglama nechta ildizga ega?

A) $\emptyset$ B) 1 C) 2 D) 3 E) 4

Yechilishi: $x^2 + y^2 = z^2$ *tenglamani qanoatlantiruv – chi* 3 *ta butun musbat sonlarga Pifagor sonlari deyiladi*. 5, 12 *va* 13 *Pifagor sonlari bo′lganligi uchun* $x = 4$. Javobi: B.

14. $x^4 - 10x^2 + 9 \leq 0$ tengsizlikning butun yechimlari nechta?

A) 2 B) 3 C) 4 D) 5 E) 6

Yechilishi: $x^4 - 10x^2 + 9 \leq 0 => \begin{cases} x_1 = -3, & x_3 = 1 \\ x_2 = -1, & x_4 = 3 \end{cases}$



$=> x = -3, -2, -1, 1, 2, 3.$

Javobi: E.

15. Agar $f(x) = \begin{cases} |x+1|, & x > -2 \\ 3 - 4|x|, & x \leq -2 \end{cases}$ bo‘lsa, $f(-1) - f(-3)$ ni hisoblang.

A) 0 B) 3 C) 6 D) 4 E) 9

Yechilishi: $f(x) = \begin{cases} |x+1|, & x > -2 \\ 3 - 4|x|, & x \leq -2 \end{cases}$ bo′lsa,

$f(-1) = |-1+1| = 0; \quad f(-3) = 3 - 4|-3| = -9;$

$f(-1) - f(-3) = 0 - (-9) = 9.$ Javobi: E.

16. $f(x) = \frac{3\sqrt{x} + 4\sqrt{2-x}}{\sin(\pi x)}$ funksiyaning aniqlanish sohasini toping.

A) [0;2] B) [0;1] C) (0;1) ∪ (1;2)

D) $[0;\frac{\pi}{2}) \cup (\frac{\pi}{2};2]$ E) $[0;\frac{1}{2}) \cup (\frac{1}{2};2]$

Yechilishi: $f(x) = \frac{3\sqrt{x}+4\sqrt{2-x}}{sin(\pi x)} => \begin{cases} x \geq 0 \\ 2-x \geq 0 \\ sin\,\pi x \neq 0 \end{cases} =>$

$=> \begin{cases} x \geq 0; \\ x \leq 2; \\ x \neq k, \quad k \in Z. \end{cases}$ 

$=> (0;1) \cup (1;2).$

Javobi: C.

17. $y = 2 + 3\cos(8x - 7)$ funksiyaning eng kichik musbat davrini toping.

A) 2π B) $\frac{\pi}{2}$ C) $\frac{\pi}{3}$ D) $\frac{\pi}{4}$ E) π

Yechilishi: $E.k.d = \frac{2\pi}{8} = \frac{\pi}{4}$. Javobi: D.

18. $\sin x < 1 + \frac{x^2}{4}$ tengsizlikni yeching.

A) $\emptyset$ B) $\left(-\frac{\pi}{2} + 2\pi n; \frac{\pi}{2} + 2\pi n\right),\ n \in Z$ C) $[-\pi;\pi]$

D) $\left[-\frac{\pi}{6} + 2\pi n; \frac{\pi}{6} + 2\pi n\right],\ n \in Z$ E) $(-\infty;\infty)$

Yechilishi: $\sin x < 1 + \frac{x^2}{4} => 1 + \frac{x^2}{4} \geq 1 => (-\infty;+\infty).$

Javobi: E.

19. Uchburchak tomonlarining uzunliklari $\sin 30^\circ$; $\sin 40^\circ$ va $\sin 60^\circ$ ga teng. Shu uchburchakning turini aniqlang.

A) O‘tkir burchakli

B) O‘tmas burchakli

C) To‘g’ri burchakli

D) Aniqlab bo‘lmaydi

C) Bunday uchburchak mavjud emas

Yechilishi: $a = \sin 30° => a^2 = \frac{1}{4};$

$b = \sin 40° < \sin 45° => b^2 < \frac{1}{2};$

$c = \sin 60° \Rightarrow\ c^2 = \frac{3}{4}. U\ holda\ c^2 > a^2 + b^2.$

Javobi:B.

20. Agar $x = \log_5 2 + \log_{11} 3$ bo‘lsa, quyidagi sonlarning qaysi biri eng katta bo‘ladi?

A) x B) x^2 C) x^3 D) $\sqrt{x}$ E) $\sqrt[3]{x}$

Yechilishi: $\log_5 2 < 0{,}5;\ \log_{11} 3 < 0{,}5 \Rightarrow x < 1\ yoki$

$$x = \log_5 2 + \log_{11} 3 = \frac{\lg 2}{\lg\frac{10}{2}} + \frac{\lg 3}{\lg 11} = \frac{0{,}3010}{1-0.3010} + \frac{0{,}4771}{1{,}0414} =$$

$$= \frac{0{,}3010}{0{,}699} + \frac{0{,}4771}{1{,}0414} = 0{,}4306 + 0{,}4581 = 0{,}8887.$$

Javobi: E.

21. $|x| = x^2 - 6$ tenglamaning ildizlari ko‘paytmasini toping.

A) -6 B) -1 C) 3 D) -9 E) 6

Yechilishi: $|x| = x^2 - 6 \Rightarrow \begin{cases} x^2 + x - 6 = 0 \\ x^2 - x - 6 = 0 \end{cases} \Rightarrow$

$$\Rightarrow \begin{cases} x_1 = -3; & x_3 = -2\ chet\ ildiz; \\ x_2 = 2\ chet\ ildiz; & x_4 = 3. \end{cases} \quad x_1 \cdot x_4 = -9.$$

Javobi: D.

22. $2^{3-\frac{x}{2}} = 3$ tenglamani yeching.

A) $\log_2 \sqrt{3}$ B) $\log_3 (2\frac{2}{3})$ C) $\log_2 (3\frac{3}{5})$

D) $\log_2 (2\frac{2}{3})$ E) $\log_2 (7\frac{1}{9})$

Yechilishi: $2^{3-\frac{x}{2}} = 3 \Rightarrow \frac{8}{2^{\frac{x}{2}}} = 3 \Rightarrow 2^{\frac{x}{2}} = \frac{8}{3} \Rightarrow$

$$\Rightarrow \frac{x}{2}\log_2 2 = \log_2 \frac{8}{3} \Rightarrow x = \log_2 \frac{64}{9} = \log_2 7\frac{1}{9}.$$

Javobi: E.

23. $|x^2 + 3x + 2| = |x^2 + 2x + 5| + |x - 3|$ tenglamani yeching.

A) 3;5 B) 4;6 C) [3;∞) D) [0;3] E) [3;10]

Yechilishi: $|x^2+3x+2|=|x^2+2x+5|+|x-3|$;

1) $x^2+3x+2\geq 0 \Rightarrow x^2+3x+2=x^2+2x+5+$
$+|x-3| \Rightarrow x-3=|x-3|$;

2) $x^2+3x+2<0 \Rightarrow -x^2-3x-2=x^2+2x+5+$
$+|x-3| \Rightarrow 2x^2+5x+7=-|x-3|$.

1) va 2) dan $\begin{cases} x-3=|x-3|; \\ 2x^2+5x+7=-|x-3|. \end{cases}$

3) $x-3\geq 0 \Rightarrow \begin{cases} x-3=x-3 \ \ ayniyat; \\ 2x^2+5x+7=-x+3. \end{cases} \Rightarrow$

$\Rightarrow \begin{cases} ayniyat \\ 2x^2+6x+4=0 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} ayniyat \\ x^2+3x+2=0 \end{cases} \Rightarrow$

$\begin{cases} ayniyat \\ x_1=-2;\ x_2=-1; \end{cases}$

4) $x-3<0 \Rightarrow \begin{cases} x-3=-x+3 \\ 2x^2+5x+7=x-3 \end{cases} \Rightarrow$

$\Rightarrow \begin{cases} 2x-6=0 \\ 2x^2+6x+10=0 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} x=3; \\ x^2+3x+5=0. \end{cases}$

3) va 4) dan $[3;\ \infty)$. Javobi: C.

24. Agar $|\cos x|=2+\cos x$ bo‘lsa, $2^{\cos x}+3^{\sin x}$ ning qiymatini toping.

A) 1 B) 0,5 C) 0,75 D) 1,25 E) 1,5

Yechilishi: $|\cos x|=2+\cos x \Rightarrow$

$\Rightarrow \begin{cases} \cos x \neq 2+\cos x \\ -\cos x=2+\cos x \end{cases} \Rightarrow \cos x=-1 \Rightarrow$

$x=\pi+2\pi k \Rightarrow 2^{\cos x}+3^{\sin x}=2^{-1}+3^0=$

$=\frac{1}{2}+1=1{,}5$. Javobi: E.

25. $\begin{cases} \sin x\cdot\cos y=-\frac{1}{3} \\ \cos x\cdot\sin y=\frac{2}{3} \end{cases}$ $ctg\,(x-y)=?$

A) 0 B) 1 C) $-\frac{1}{2}$ D) $\frac{1}{2}$ E) $-\frac{\sqrt{3}}{3}$

Yechilishi: $\begin{cases}\sin x \cdot \cos y = -\frac{1}{3} \\ \cos x \cdot \sin y = \frac{2}{3}\end{cases} =>$

$=> \begin{cases}\sin(x-y) = -\frac{1}{3} - \frac{2}{3} = -1 \\ x - y = -arc\sin 1 = -\frac{\pi}{2}\end{cases} =>$

$=> \begin{cases}\sin(x-y) = -1 \\ \cos(x-y) = \cos\left[-\frac{\pi}{2}\right] = 0\end{cases} => \operatorname{ctg}(x-y) =$

$= \frac{\cos(x-y)}{\sin(x-y)} = \frac{0}{-1} = 0.$ Javobi: A.

26. $y = \sin\left(\frac{x}{\sqrt{x-1}-\sqrt{3-x}}\right)$ funksiyaning aniqlanish sohasini toping.

A) [1;3] B) [1;2) C) (2;3]

D) [1;2) ∪ (2;3] E) [0;3]

Yechilishi: $y = \sin\left(\frac{x}{\sqrt{x-1}-\sqrt{3-x}}\right);$ $\begin{cases} x-1 \geq 0 \\ 3-x \geq 0 \\ \sqrt{x-1} \neq \sqrt{3-x} \\ -1 \leq \sin x \leq 1 \end{cases} =>$

$\begin{cases} x \geq 1 \\ x \leq 3 \\ x \neq 2 \end{cases}$ 

$[1;2) \cup (2;3].$ Javobi: D.

27. $a = \sin 1; b = \sin 2; c = \sin 3;$ $d = \sin 4$ va $e = \sin 5$ sonlarni kamayish tartibida joylashtiring.

A) $a > b > c > d > e$

B) $e > d > b > c > a$

C) $b > c > a > d > e$

D) $c > b > a > d > e$

E) $b > a > c > d > e$

Yechilishi: $a = \sin 1 \approx \sin 57^0$

$b = \sin 2 \approx \sin 114^\circ = \sin(\pi - 66^\circ) = \sin 66^\circ$

$c = \sin 3 \approx \sin 171^\circ = \sin(\pi - 9^\circ) = \sin 9^\circ$

$e = \sin 5 \approx \sin 285^\circ = \sin(2\pi - 75^\circ) = -\sin 75^\circ$ $d = \sin 4 \approx \sin 228^\circ = \sin(\pi + 48^\circ) = -\sin 48^\circ$ $b > a > c > d > e$. Javobi: E.

28. $|\sin 3x| = \frac{1}{2}$ tenglamani yeching.

A) $\pm\frac{\pi}{6} + \frac{\pi n}{2}, n \in Z$

B) $\frac{\pi}{3} + 2\pi n, n \in Z$

C) $\pm\frac{\pi}{9} + \frac{\pi n}{3}, n \in Z$

D) $\pm\frac{\pi}{18} + \frac{\pi n}{3}, n \in Z$

E) $\pm\frac{\pi}{12} + \pi n, n \in Z$

Yechilishi: $|\sin 3x| = \frac{1}{2} \Rightarrow \begin{cases} \sin 3x = -\frac{1}{2} \\ \sin 3x = \frac{1}{2} \end{cases} \Rightarrow$

$$\Rightarrow \begin{cases} 3x = (-1)^{k+1}\frac{\pi}{6} + \pi k \\ 3x = (-1)^k \frac{\pi}{6} + \pi k \end{cases} \quad 3x = \pm\frac{\pi}{6} + \pi k \Rightarrow$$

$\Rightarrow x = \pm\frac{\pi}{18} + \frac{\pi k}{3}, \quad k \in Z.$ Javobi: D.

29. $\log_x 3 < 2$ tengsizlikni yeching.

A) $(\sqrt{3}; \infty)$ B) $(3; \infty)$ C) $(0; 1) \cup (\sqrt{3}; \infty)$

D) $(0;1)$ E) $(0; 1) \cup (3; \infty)$

Yechilishi: $\log_x 3 < 2; \quad x > 0, \quad x \neq 1$

1) $0 < x < 1 \Rightarrow x^2 < 3 \Rightarrow |x| < \sqrt{3} \Rightarrow$

$\Rightarrow -\sqrt{3} < x < \sqrt{3};$

2) $x > 1 \Rightarrow x^2 > 3 \Rightarrow |x| > \sqrt{3} \Rightarrow \begin{cases} x > \sqrt{3}; \\ x < -\sqrt{3}. \end{cases}$



$(0;1) \cup (\sqrt{3}; +\infty)$.

Javob: C.

30. $\sqrt{x} \geq x - 6$ tengsizlikni qanoatlantiruvchi butun sonlarning yig'indisini toping.

A) 6 B)15 C) 28 D) 35 E) 45

Yechilishi: $\sqrt{x} \geq x - 6 \Rightarrow x^2 - 13x + 36 \leq 0$

$\Rightarrow \begin{cases} x \geq 0; \\ x^2 - 13x + 36 \leq 0. \end{cases} \Rightarrow$  $\Rightarrow$

$\Rightarrow \begin{matrix} x = 4,5,6,7,8,9 \\ x = 0,1,2,3 \end{matrix} \Rightarrow 45.$ Javobi: E.

31. $x(x+1)(x+2)(x+3) \leq 24$ tengsizlikning yechimlari orasida nechta butun son bor?

A) 2 B) 3 C) 4 D) 5 E) 6

Yechilishi: $x(x+1)(x+2)(x+3) \leq 24;$

$(x^2 + 3x)(x^2 + 3x + 2) \leq 24; \quad x^2 + 3x = t;$

$t \cdot (t+2) \leq 24; \quad t^2 + 2t - 24 \leq 0 \Rightarrow t \in [-6; 4].$

$U\ holda \begin{cases} x^2 + 3x \geq -6; \\ x^2 + 3x \leq 4. \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} x^2 + 3x + 6 \geq 0 \\ x^2 + 3x - 4 \leq 0 \end{cases} \Rightarrow$

$(x+4)(x-1) \leq 0 \Rightarrow x = -4, -3, -2, -1, 0, 1.$

Javobi: E.

32. Agar $tgx = 0{,}5$ bo'lsa, $\cos^8 x - \sin^8 x$ ning qiymatini toping.

A) 0,25 B) 0,408 C)0,392 D) 0,416 E) 0,625

Yechilishi: $\operatorname{tg} x = 0{,}5; \quad x = arc\operatorname{tg}\frac{1}{2};$

$$\cos^8 x - \sin^8 x = \left(\cos arc\,\mathrm{tg}\frac{1}{2}\right)^8 - \left(\sin arc\,\mathrm{tg}\frac{1}{2}\right)^8 =$$

$$= \left(\frac{1}{\sqrt{1+(\frac{1}{2})^2}}\right)^8 - \left(\frac{\frac{1}{2}}{\sqrt{1+\left(\frac{1}{2}\right)^2}}\right)^8 = \frac{4^4}{5^4}\left(1 - \frac{1}{(2^2)^4}\right) =$$

$= \frac{4^4}{625} \cdot \frac{2^8-1}{4^4} = \frac{255}{625} = 0{,}408.$ Javobi: B.

33. $1 - \sin^6 22{,}5^0 + \cos^6 22{,}5^0$ ni hisoblang.

A) $\frac{\sqrt{3}-1}{2}$ B) $\frac{\sqrt{6}+5}{4}$ C) $\frac{10+3\sqrt{2}}{8}$ D) $\frac{16+7\sqrt{2}}{16}$ E) $\frac{10+2\sqrt{3}}{5}$

Yechilishi: $1 - \sin^6 22{,}5^0 + \cos^6 22{,}5^0 =$

$= \sin^2 22{,}5 - \sin^6 22{,}5 + \cos^2 22{,}5 + \cos^6 22{,}5 =$

$= \sin^2 22{,}5\,(1 - (\sin^2 22{,}5)^2) + \cos^2 22{,}5 \cdot$

$\cdot (1 + (\cos^2 22{,}5)^2) = \frac{1}{2}(1 - \cos 45) \cdot$

$\cdot \left\{1 - \left[\frac{1}{2}(1 - \cos 45°)\right]^2\right\} + \frac{1}{2}(1 + \cos 45°) \cdot$

$\cdot \left\{1 + \left[\frac{1}{2}(1 + \cos 45°)\right]^2\right\} = \cdots = \frac{12-2\sqrt{2}}{64} + \frac{52+30\sqrt{2}}{64} =$

$= \frac{64+28\sqrt{2}}{64} = \frac{16+7\sqrt{2}}{16}.$ Javobi: D.

34. $\left(\cos x + \frac{\pi}{2}\right)\left(\sin x - \frac{\pi}{3}\right) \cdot \left(\mathrm{tg}^2 x - \frac{1}{3}\right) \geq 0$ tengsizlikni yeching.

A) $\left[-\frac{\pi}{3} + \pi n;\ \frac{\pi}{2} + \pi n\right], n \in Z$

B) $\left[-\frac{\pi}{3} + \pi n;\ \frac{\pi}{3} + \pi n\right], n \in Z$

C) $\left[-\frac{\pi}{3} + \pi n;\ \frac{\pi}{6} + \pi n\right], n \in Z$

D) $\left[-\frac{\pi}{6} + \pi n;\ \frac{\pi}{3} + \pi n\right], n \in Z$

E) $\left[-\frac{\pi}{6}+\pi n;\ \frac{\pi}{6}+\pi n\right], n \in Z$

Yechilishi: $\left(\cos x+\frac{\pi}{2}\right)\left(\sin x-\frac{\pi}{3}\right)\cdot\left(\mathrm{tg}^2\, x-\frac{1}{3}\right)\geq 0;$

$\cos x+\frac{\pi}{2}>0;\ \sin x-\frac{\pi}{3}<0 \Rightarrow \mathrm{tg}^2\, x-\frac{1}{3}\leq 0 \Rightarrow$

$\Rightarrow |\mathrm{tg}\, x|\leq\frac{1}{\sqrt{3}} \Rightarrow \begin{cases}\mathrm{tg}\, x\geq -\frac{1}{\sqrt{3}}\\ \mathrm{tg}\, x\leq\frac{1}{\sqrt{3}}\end{cases}$



$\left[-\frac{\pi}{6}+\pi n;\ \frac{\pi}{6}+\pi n\right], n \in Z.$

Javobi: E.

35. $y=(\sqrt{3}\cos 3x+\sin 3x)^7$ funksiyaning eng kichik qiymatini toping.

A) -14 B) -21 C) -64 D) -128 E) -3^7

Yechilishi: $-\sqrt{a^2+b^2}\leq y\leq\sqrt{a^2+b^2}$ *formulaga asosan* $a=\sqrt{3};\ b=1 \Rightarrow \sqrt{a^2+b^2}=2.$

$-2^7\leq(\sqrt{3}\cos 3x+\sin 3x)^7\leq 2^7;$

$-128\leq(\sqrt{3}\cos 3x+\sin 3x)^7\leq 128;$

$y_{min}=-128.$ Javobi: D.

36. $\frac{5^{x^2}-5}{3\sin x+4\cos x-2\pi}\geq 0$ tengsizlikni yeching.

A) [-1;1] B) $[1;\frac{\pi}{2}]$ C) $[-1;\pi]$ D) $[0;\pi]$ E) $[1;\pi]$

Yechilishi: $\frac{5^{x^2}-5}{3\sin x+4\cos x-2\pi}\geq 0$ *Kasr maxrajining ishorasini aniqlaymiz*:

$-\sqrt{a^2+b^2}\leq a\cos x+b\sin x\leq\sqrt{a^2+b^2}$ *formulaga asosan*: $-2\pi-5\leq 3\sin x+4\cos x\leq 5-2\pi.$

Demak, kasr maxraji doimo manfiy. U holda, kasr−ning surati $5^{x^2}-5\leq 0 \Rightarrow x^2\leq 1 \Rightarrow |x|\leq 1 \Rightarrow$

$\Rightarrow -1 \le x \le 1 \Rightarrow [-1;1]$. Javobi: A.

37. $\cos\alpha \cos\frac{\alpha}{2}\cos\frac{\alpha}{4}\cos\frac{\alpha}{8}\dots\cos\frac{\alpha}{128}$ ni soddalashtiring.

A) $\frac{1}{128}\ \frac{\sin\alpha}{\sin\frac{\alpha}{128}}$ B) $\frac{1}{256}\ \frac{\sin 2\alpha}{\sin\frac{\alpha}{128}}$ C) $\frac{1}{128}\ \frac{\sin 2\alpha}{\sin\frac{\alpha}{256}}$

D) $\frac{1}{256}\ \frac{\sin\alpha}{\sin\frac{\alpha}{128}}$ E) $\frac{1}{64}\ \frac{\sin\alpha}{\sin\frac{\alpha}{64}}$

Yechilishi: $\cos\alpha \cos\frac{\alpha}{2}\cos\frac{\alpha}{4}\cos\frac{\alpha}{8}\dots\cos\frac{\alpha}{128} =$

$= \cdots \cos\frac{\alpha}{64}\cdot\frac{2\sin\frac{\alpha}{128}\cdot\cos\frac{\alpha}{128}}{2\sin\frac{\alpha}{128}} = \cdots \cos\frac{\alpha}{64}\cdot\frac{\sin\frac{\alpha}{64}}{2\sin\frac{\alpha}{128}} =$

$= \cdots \cos\frac{\alpha}{32}\cdot\frac{2\sin\frac{\alpha}{64}\cdot\cos\frac{\alpha}{64}}{4\sin\frac{\alpha}{128}} = \cdots = \frac{1}{256}\cdot\frac{\sin 2\alpha}{\sin\frac{\alpha}{128}}$. Javobi: B.

38. $\frac{3}{x} = x^2 - 6x + 7$ tenglamaning nechta ildizi bor?

A) 0 B) 1 C) 2 D) 3 E) 4

Yechilishi: 1) $y = x^2 - 6x + 7;\ \ x = -\frac{b}{2a} = -\frac{-6}{2} = 3;$

$y = -\frac{36-4\cdot 7}{4} = -2. Parabola\ uchi\ (3;\ -2).$



2) $y = \frac{3}{x}$. Javobi:B.

39. To‘g’ri burchakli uchburchakka tashqi chizilgan doira yuzi 49π ga teng, ichki chizilgan doiraning yuzi 9π ga teng. Shu uchburchakning yuzini toping.

A) 49 B) 52 C) 43 D) 51 E)57

Yechilishi: $\pi R^2 = 49\pi \Rightarrow R = 7;$



$\pi r^2 = 9\pi => r = 3;\ \ c = 14;$

$a + b = 2(R + r) => a + b = 20 =>$

$=> b = 20 - a;\ c^2 = a^2 + b^2 =>$

$=> 14^2 = a^2 + (20 - a)^2 => 196$

$= a^2 + 400 - 40a +$

$+a^2 => 2a^2 - 40a + 204 = 0 =>$

$a^2 - 20a + 102 = 0 => a = 10 \pm \sqrt{100 - 102};$

$(a + b)^2 = 20^2 =>\ a^2 + b^2 + 2ab = 400 =>$

$=> ab = \frac{400-196}{2} = 102 => S = \frac{1}{2}ab = 51.$

2-usul: $S_{\triangle} = (2R + r)r => S_{\triangle} = (2 \cdot 7 + 3) \cdot 3 = 51.$

Javobi: D.

40. To‘g’ri burchakli ACB uchburchakning katetlari 8 ga va 10 ga teng. Shu uchburchakning C to‘g’ri burchagi uchidan CE mediana va CD bissektrisa o‘tkazildi. CDE uchburchakning yuzini toping.

A) $2\frac{2}{9}$ B) $2\frac{2}{7}$ C) $2\frac{3}{8}$ D) $3\frac{2}{5}$ E) $3\frac{2}{3}$

Yechilishi: $AB^2 = 10^2 + 8^2 => AB = 2\sqrt{41};$



$AE = BE = CE = \sqrt{41};$

$Bissektrisaning\ xossasiga$

$asosan\ \ \frac{10}{BD} = \frac{8}{AD} =>$

$=> \frac{10}{BE+DE} = \frac{8}{\sqrt{41}-DE} => DE = \frac{\sqrt{41}}{9};$

$CD = \frac{\sqrt{AC \cdot BC \cdot (AB+AC+BC)(AC+BC-AB)}}{AC+BC} =$

$= \frac{\sqrt{80 \cdot (18+2\sqrt{41})(18-2\sqrt{41})}}{18} = \frac{\sqrt{80(18^2-4 \cdot 41}}{18} = \frac{\sqrt{80 \cdot 80 \cdot 2}}{18} =$

$= \frac{80\sqrt{2}}{18} = \frac{40\sqrt{2}}{9};\quad P = \frac{5\sqrt{41}+20\sqrt{2}}{9};$

$S = \sqrt{P(P-CE)(P-DE)(P-CD)} = 2\frac{2}{9}$. Javobi: A.

41. Uzunliklari 3, 4, 5, 6 va 7 bo‘lgan kesmalardan nechta teng yonli bo‘lmagan o‘tmas burchakli uchburchaklar yasash mumkin?

A) $Birorta\ ham\ uchburchak\ yasash\ mumkin\ emas$

B)2 C) 3 D)5 E) 10

Yechilishi: $3, 4, 5, 6, 7.$ $C_5^3 = \frac{5!}{3!(5-3)!} = 10;$

$c^2 > a^2 + b^2\ formulaga\ asosan$:



Javobi: 6 ta.

42. Qavariq ko‘pburchakning n ta ichki burchagi 30° dan kichik. n ning eng katta qiymati nechaga teng bo‘lishi mumkin?

A) 2 B) 3 C) 4 D) 5 E) $aniqlab\ bo'lmaydi$

Yechilishi: $\frac{180°(n-2)}{n} < 30° => 180°n - 360° < 30°n =>$

$\frac{180°(n-2)}{n} < 30° => 180°n - 360° < 30°n =>$

$150°n < 360° => n < \frac{12}{5} => n = 2.$ Javobi: A.

43. Qirrasi 28 ta bo‘lgan piramidaning yon yoqlari nechta?

A) 12 B)14 C) 15 D) 18 E) 16

Yechilishi: $14\ ta.$ Javobi: B.

44. Kubga ichki chizilgan silindrning hajmi 2π ga teng. Shu kubga tashqi chizilgan sferaning yuzini toping.

A) 12π B) 18π C) 20π D) 24π
E) 27π



Yechilishi: $\pi R^2 H = 2\pi \Rightarrow R^2 H = 2;$

$R = \frac{a}{2};\ H = a;\ (\frac{a}{2})^2 a = 2 \Rightarrow a = 2;$

$d^2 = 3a^2 = 3 \cdot 3^2 \Rightarrow d = \sqrt{27};$

$S = 4\pi R^2 = 4\pi \left(\frac{\sqrt{27}}{2}\right)^2 = 27\pi.$ Javobi: E.

45. Kubga tashqi chizilgan sharning hajmi $10\frac{2}{3}\pi$ ga teng. Kubning diagonaliga tegishli bo‘lmagan uchlaridan diagonaligacha bo‘lgan masofani toping.

A) $\frac{4\sqrt{2}}{3}$ B) $\frac{3\sqrt{2}}{4}$ C) $\frac{4\sqrt{2}}{9}$ D) $\frac{4\sqrt{2}}{3}$ E) $\frac{3\sqrt{3}}{8}$

Yechilishi: $10\frac{2}{3}\pi = \frac{4}{3}\pi R^3 \Rightarrow R = 2;$





$d^2 = 3a^2 \Rightarrow 4^2 = 3a^2 \Rightarrow a = \frac{4}{\sqrt{3}};$

$$\Rightarrow \begin{cases} BD^2 = a^2 - x^2 \\ BD^2 = (a\sqrt{2})^2 - (4-x)^2 \end{cases} \Rightarrow$$

$\Rightarrow a^2 - x^2 = 2a^2 - 16 + 8x - x^2 \Rightarrow x = \frac{4}{3};$

$\triangle ABC\ dan\ BD^2 = a^2 - x^2 = \frac{16}{3} - \frac{16}{9} = \frac{16*2}{9} \Rightarrow$

$\Rightarrow BD = \frac{4\sqrt{2}}{3}.$ Javobi: A.

46. Teng tomonli silindr shaklidagi g’o‘ladan eng katta hajmdagi shar yo‘nib olindi. G’o‘laning qancha foizi chiqindiga ketgan?

A) 25 B) 30 C) $33\frac{1}{3}$ D) $37\frac{2}{5}$ E) $32\frac{2}{3}$

Yechilishi: $V_s = \pi R^2 H = 2\pi R^3$; $V_{sh} = \frac{4}{3}\pi R^3$;



$V_s - V_{sh} = \frac{2\pi R^3}{3}$; $\begin{matrix} 2\pi R^3 - 100\% \\ \frac{2\pi R^3}{3} - x\% \end{matrix}$ $=>$

$=>\ x = 33\frac{1}{3}$. Javobi: C.

47. Qavariq n burchakning diagonallari soni 25 tadan kam emas va 30 tadan ko‘p emas. n nechaga teng bo‘lishi mumkin?

A) 7 B) 8 C) 9 D) 10 E)11

Yechilishi: $25 \le \frac{n(n-3)}{2} \le 30 => \begin{cases} n = 8.5 \\ n = 9.8 \end{cases} => n = 9.$

Javobi: C.

48. $tg555^\circ$ ni hisoblang.

A) $\frac{\sqrt{3}}{6}$ B) $\sqrt{3} - 1$ C) $2 - \sqrt{3}$

D) $2 + \sqrt{3}$ E) $1 - \frac{\sqrt{3}}{2}$

Yechilishi: $\text{tg}\,555^\circ = tg\left(3\pi + 15^\circ\right) = tg\,15^\circ =$

$= \sqrt{\frac{1-\cos 30^\circ}{1+\cos 30^\circ}} = \sqrt{\left(1 - \frac{\sqrt{3}}{2}\right) : \left(1 + \frac{\sqrt{3}}{2}\right)} = \sqrt{\frac{2-\sqrt{3}}{2}\ \frac{2}{2+\sqrt{3}}} =$

$= \sqrt{\frac{(2-\sqrt{3})^2}{4-3}} = 2 - \sqrt{3}$. Javobi: C.

49. Muntazam o‘n ikkiburchakli piramidaning apofemasi $2\sqrt{2}$ ga teng, barcha yon yoqlari asos tekisligiga 45° burchak ostida og’ishgan. Uning hajmini toping.

A) $56 - 30\sqrt{2}$ B) $64 - 32\sqrt{3}$ C) $68 - 48\sqrt{2}$

D) $64 - 32\sqrt{2}$ E) $48 - 24\sqrt{3}$

Yechilishi: $SA = 2\sqrt{2}$; $\angle OAS = 45°$.





$\frac{H}{2\sqrt{2}} = \sin 45^\circ \Rightarrow H = 2;\ \ 12\alpha = 180(12-2) \Rightarrow$

$\Rightarrow \alpha = 150^\circ;\ \frac{OA}{2\sqrt{2}} = \cos 45^\circ \Rightarrow OA = 2\ ;$

$\frac{AC}{AO} = tg15^\circ = 2-\sqrt{3}\ \Rightarrow AC = AO\left(2-\sqrt{3}\right) \Rightarrow$

$\Rightarrow BC = 2AC = 4\left(2-\sqrt{3}\right) = 8-4\sqrt{3}.$

$S_\Delta = \frac{1}{2}\cdot BC\cdot OA = \frac{1}{2}\left(8-4\sqrt{3}\right)2 = 8-4\sqrt{3};$

$S_{\text{asos}} = 12S_\Delta = 12\left(8-4\sqrt{3}\right);$

$V = \frac{1}{3}\cdot 12\left(8-4\sqrt{3}\right)2 = 64-32\sqrt{3}.$ Javobi: B.

50. $y = \sin^4 2x.\quad y' = ?$

A) $2\sin^2 2x \sin 4x$ B) $4\sin^2 4x \sin 2x$

C) $4\sin 2x \sin^2 4x$ D) $4\sin^2 2x \sin 4x$

E) $2\sin 2x \sin^2 4x$

Yechilishi: $y = \sin^4 2x \Rightarrow\ \ y' = 4\sin^3 2x\, 2\cos 2x =$

$= 4\sin^2 2x\,(2\sin 2x\cos 2x) = 4\sin^2 2x \sin 4x.$

Javobi: D.

51. $\cos x\ \geq (-\frac{\pi}{2}x)'$ tengsizlikni yeching.

A) yechimga ega emas

B) $[-\pi + 2\pi;\ \pi + 2\pi n], n \in Z$

C) $\left[-\frac{\pi}{2} + 2\pi n;\ \frac{\pi}{2} + 2\pi n\right], n \in Z$

D) $\left[-\frac{\pi}{2} + \pi n;\ \frac{\pi}{2} + \pi n\right], n \in Z$

E) $(-\infty;\infty)$

Yechilishi: $\cos x \geq (-\frac{\pi}{2}x)' => \ \cos x \geq -1{,}57.$

Javobi: A.

52. $\int_1^2 \frac{x}{x+1}dx$ ni hisoblang.

A) $2+\ln\frac{1}{2}$ B) $1+\ln\frac{2}{3}$ C) $3-\ln\frac{2}{3}$

D) $1-\ln\frac{2}{3}$ E) $2-\ln\frac{2}{3}$

Yechilishi: $\int_1^2 \frac{x}{x+1}dx = x+1=t => \ x=t-1;$

$dx = d(t-1) => dx = (t-1)'dt => \ dx = dt.$

$x=1 => \ t=2; \quad x=2 => \ t=3.$

$\int_2^3 \frac{t-1}{t}dt = \int_2^3 \left(1-\frac{1}{t}\right)dt = \int_2^3 dt - \int_2^3 \frac{dt}{t} =$

$= t|_2^3 - lnt|_2^3 = 3-2-[ln3-ln2] = 1+ln\frac{2}{3}.$

Javobi: B.

53. $\int_3^4 \frac{dx}{x^2-1}$ ni hisoblang.

A) $\ln\sqrt{\frac{2}{3}}$ B) $\ln\sqrt{\frac{3}{4}}$ C) $\ln\sqrt{\frac{5}{6}}$ D) $\ln\sqrt{\frac{7}{8}}$ E) $\ln\sqrt{\frac{6}{5}}$

Yechilishi: $\int_3^4 \frac{dx}{x^2-1} = \frac{1}{2}\int_3^4 [\frac{1}{x-1}-\frac{1}{x+1}]dx = \frac{1}{2}\left[\int_3^4 \frac{d(x-1)}{x-1} - \right.$

$\left. - \int_3^4 \frac{d(x+1)}{x+1}\right] = \frac{1}{2}[\ln|x-1|\,|_3^4 - \ln|x+1|\,|_3^4] =$

$= \frac{1}{2}[ln3-ln2-ln5+ln4] = \frac{1}{2}[ln12-ln10] =$

$= \frac{1}{2}ln\frac{6}{5} = ln\sqrt{\frac{6}{5}}.$ Javobi: E.

54. $y=\sin x; \quad y=\cos x$ va $x=0$ $(x\in\left[0;\frac{\pi}{4}\right])$ chiziqlar bilan chegaralangan shaklning yuzini hisoblang.

A) $3-\sqrt{2}$ B) $2-\sqrt{2}$ C) $2-\sqrt{3}$

D) $\sqrt{3}-1$ E) $\sqrt{2}-1$

Yechilishi: $y=\sin x$; $y=\cos x$; $x=0$; $x\in\left[0;\frac{\pi}{4}\right]$;

$S=\int_0^{\pi/4}(\cos x-\sin x)dx=\int_0^{\pi/4}\cos x\,dx-$

$-\int_0^{\pi/4}\sin x\,dx=\sin x\left|_0^{\frac{\pi}{4}}+\cos x\right|_0^{\frac{\pi}{4}}=\sin\frac{\pi}{4}-\sin 0+$

$+\cos\frac{\pi}{4}-\cos 0=\frac{\sqrt{2}}{2}-0+\frac{\sqrt{2}}{2}-1=\sqrt{2}-1.$



Javobi: E.

55. $y=3\cos^2 3x-3\sqrt{3}\cos 3x-\sin^2 3x-\sin^2 3x+4$ funksiyaning eng kichik qiymatini toping.

A) 1,545 B) 1,2325 C) 2,1413

D) 1,3125 E) 2,125

Yechilishi: $y=3\cos^2 3x-3\sqrt{3}\cos 3x-\sin^2 3x+4$;

$y'=6\cos 3x\,(-\sin 3x)\cdot 3-3\sqrt{3}(-\sin 3x)\cdot 3-$

$-2\sin 3x\cos 3x\cdot 3=-24\sin 3x\cos 3x+9\sqrt{3}\sin 3x=$

$=\sin 3x\left(9\sqrt{3}-24\cos 3x\right).$

$y'=0 \Rightarrow \begin{cases}\sin 3x=0\\ \cos 3x=\frac{3\sqrt{3}}{8}\end{cases}\Rightarrow$

$\Rightarrow\begin{cases}3x=\pi n\\ 3x=arc\cos\frac{3\sqrt{3}}{8}+2\pi n\end{cases}\Rightarrow$

$\Rightarrow\begin{cases}x=\frac{\pi}{3}\cdot n;\\ x=\frac{1}{3}\arccos\frac{3\sqrt{3}}{8}+\frac{2\pi}{3}\cdot n.\end{cases}$

$$n = 0 => \begin{cases} x = 0; \\ x = \frac{1}{3}\arccos\frac{3\sqrt{3}}{8}. \end{cases}$$

$$y(0) = 3 - 3\sqrt{3} + 4 = 7 - 5{,}1961 = 1{,}8039;$$

$$y\left(\frac{1}{3}\arccos\frac{3\sqrt{3}}{8}\right) = 3 \cdot \left(\cos\arccos\frac{3\sqrt{3}}{8}\right)^2 -$$

$$-3\sqrt{3}\cos\arccos\frac{3\sqrt{3}}{8} - \left(\sin\arccos\frac{3\sqrt{3}}{8}\right)^2 + 4 =$$

$$= 3 \cdot \left(\frac{3\sqrt{3}}{8}\right)^2 - 3\sqrt{3} \cdot \frac{3\sqrt{3}}{8} - \sqrt{1 - \left(\frac{3\sqrt{3}}{8}\right)^2} + 4 =$$

$$= \frac{81}{64} - \frac{27}{8} - \sqrt{\frac{37}{64}} + 4 = 1{,}2656 + 3{,}375 - 0{,}7603 + 4 =$$

$$= 5{,}2656 - 4{,}1353 = 1{,}1303.$$ Javobi: D.

56. 0,8 ga teskari bo‘lgan songa qarama-qarshi sonni toping.

A) -0,8 B) 1,25 C) -1,25 D) -1,2 E) 1,2

Yechilishi: $0{,}8 = \frac{8}{10} = \frac{4}{5} => \frac{5}{4} = 1{,}25 => -1{,}25.$

Javobi: C.

57. Qaysi sonni o‘zining kvadrati bilan yig’indisi eng kichik bo‘ladi?

A) -1 B) -0,4 C) -0,8 D) -0,5 E) -0,6

Yechilishi: $(-0{,}5)^2 - 0{,}5 = 0{,}25 - 0{,}5 = -0{,}25.$

Javobi: D.

58. $9x^2 + kx = 2x - k + 6$ tenglamaning ildizlari bir-biriga teng bo‘ladigan k ning barcha qiymatlari ko‘paytmasini toping.

A) 100 B) -120 C) 220 D) -196 E)160

Yechilishi: $9x^2 + kx = 2x - k + 6 =>$

$=> 9x^2 + (k-2)x + k - 6 = 0 => (k-2)^2 - 4 \cdot 9 \cdot$

$\cdot (k-6) = 0 => k^2 - 4k + 4 - 36k + 216 = 0 =>$

$=> k^2 - 40k + 220 = 0. Viyet\ teoremasiga\ asosan$
$x_1 \cdot x_2 = q\ bo'ladi.\ Demak, k_1 \cdot k_2 = 220.$ Javobi: C.

59. $\frac{2a^{-1/3}}{a^{2/3}-3a^{-1/3}} - \frac{a^{2/3}}{a^{5/3}-a^{2/3}} - \frac{a+1}{a^2-4a+3}$ ni soddalashtiring.

A) 0 B) 1 C) -1 D) $\frac{a-1}{a+1}$ E) $\frac{a}{a-3}$

Yechilishi: $\frac{2a^{-1/3}}{a^{2/3}-3a^{-1/3}} - \frac{a^{2/3}}{a^{5/3}-a^{2/3}} - \frac{a+1}{a^2-4a+3} =$

$= \frac{\frac{2}{\sqrt[3]{a}}}{\sqrt[3]{a^2}-\frac{3}{\sqrt[3]{a}}} - \frac{\sqrt[3]{a^2}}{\sqrt[3]{a^5}-\sqrt[3]{a^2}} - \frac{a+1}{(a-1)(a-3)} = \frac{2}{\sqrt[3]{a}} \cdot \frac{\sqrt[3]{a}}{a-3} -$

$- \frac{\sqrt[3]{a^2}}{\sqrt[3]{a^2}(a-1)} - \frac{a+1}{(a-1)(a-3)} = \frac{2}{a-3} - \frac{1}{a-1} - \frac{a+1}{(a-1)(a-3)} =$

$= \frac{2a-2-a+3-a-1}{(a-1)(a-3)} = 0.$ Javobi: A.

60. Futbol chempionatidagi komandalarning barchasi bir-biri bilan bir martadan o‘ynagandan keyin, hammasi bo‘lib 120 match o‘tkazildi. Chempionatda nechta komanda ishtirok etgan?

A) 12 B) 14 C) 15 D) 16 E) 20

Yechilishi: $C_n^2 = 120 => \frac{n!}{2!(n-2)!} = 120 =>$

$=> \frac{(n-2)!(n-1)\cdot n}{1\cdot 2(n-2)!} = 120 => n^2 - n - 240 = 0 =>$

$=> n - 16.$ Javobi: D.

61. Egizaklar yoshining yig’indisi 10 yilda 2 marta ortdi. Yana 10 yildan keyin ulardan har birining yoshi nechaga teng bo‘ladi?

A) 20 B) 30 C) 40 D) 25 E) 35

Yechilishi: $x + 10 + y + 10 = 2(x + y) =>$

$=> x + y = 20 => \begin{cases} x = y \\ 2x = 20 \end{cases} => x = 10.$ Javobi: B.

62. Rustam, Qodir, Azim pul yig’ishib, 2625 so‘mga koptok sotib olishdi. Agar ulardan har biri qolgan ikkitasi qo‘shgan

pulning yarmidan ko‘p bo‘lmagan pul qo‘shgan bo‘lsa, Rustam qancha pul qo‘shgan?

A)$Aniqlab\ bo'lmaydi$ B) 950

C) 825 D) 875 E) 975

Yechilishi: $R + Q + A = 2625;\ \ R \le \frac{Q+A}{2};$

Javobi: D.

25. a sonining qanday qiymatlarida $x+4=\frac{a}{x}$ tenglama ikkita turli haqiqiy ildizga ega?

A) (-4; ∞) B) (-4; 0) ∪ (0; ∞) C) [-4; ∞)

D) [-4; 0) ∪ (0; ∞) E) (-4; 4)

Yechilishi: $x+4=\frac{a}{x} \Rightarrow x^2+4x-a=0 \Rightarrow$

$\Rightarrow \begin{cases} b=4>0 \\ c=-a\leqslant 0 \end{cases} \quad D=b^2-4ac\neq 0 \Rightarrow$

$\Rightarrow 16-4\cdot 1\cdot(-a)\neq 0 \Rightarrow a\neq -4.$

$(-4;0)\cup(0;+\infty)$. Javobi: B.

26. $f(x)=(x^3+2x^2-1)^2-3x^2$ ko'phadning juft darajali hadlari koeffisientlarining yig'indisini toping.

A) -6 B) -2 C) 3 D) -3 E) -1

Yechilishi: $f(x) = (x^3 + 2x^2 - 1)^2 - 3x^2 =$

$= (x^3)^2 + (2x^2)^2 + (-1)^2 + 2 \cdot x^3 \cdot 2x^2 + 2 \cdot x^3(-1) +$

$+2 \cdot (2x^2) \cdot (-1) - 3x^2 = x^6 + 4x^4 + 1 + 4x^5 - 2x^3 -$

$-4x^2 - 3x^2 = x^6 + 4x^4 - 7x^2 + 4x^5 - 2x^3 + 1;$

$1 + 4 - 7 + 1 = -1.$ Javobi: E.

27. $3 \cdot \sqrt{\frac{x}{x-1}} - 2{,}5 = 3 \cdot \sqrt{1 - \frac{1}{x}}$ tenglamani yeching.

A) $\frac{2}{5}$ B) $-\frac{2}{5}$ C) 3 D) $\frac{9}{5}$ E) 2

Yechilishi: $3 \cdot \sqrt{\frac{x}{x-1}} - 2{,}5 = 3 \cdot \sqrt{1 - \frac{1}{x}}$;

$3\left[\frac{\sqrt{x}}{\sqrt{x-1}} - \frac{\sqrt{x-1}}{\sqrt{x}}\right] = \frac{5}{2} => \frac{x-x+1}{\sqrt{x^2-x}} = \frac{5}{6} => 6 = 5\sqrt{x^2 - x} =>$

$=> 25x^2 - 25x - 36 = 0 =>$ $\begin{cases} x_1 = -\frac{4}{5} - chet\ ildiz; \\ x_2 = \frac{9}{5}. \end{cases}$

Javobi: D.

28. $\frac{3x^2+8x-3}{x+3} = x^2 - x + 2$ tenglama ildizlarining ko'paytmasini toping.

A) 2 B) -2 C) 6 D) -6 E) 3

Yechilishi: $\frac{3x^2+8x-3}{x+3} = x^2 - x + 2;$

$\frac{3(x+3)\left(x-\frac{1}{3}\right)}{x+3} = x^2 - x + 2 => x^2 - 4x + 3 = 0 =>$

$=> \begin{cases} x_1 = 1 \\ x_2 = 3 \end{cases} => \ x_1 \cdot x_2 = 3.$ Javobi: E.

29. Agar $\sqrt{x + 3 + \sqrt{x + 14}} + \sqrt{x + 3 - \sqrt{x + 14}} = 4$ bo'lsa, $x(x + 1)^{-1}$ ifodaning qiymatini toping.

A) $\frac{3}{2}$ B) $-\frac{3}{2}$ C) 3 D) $\frac{2}{3}$ E) $-\frac{2}{3}$

Yechilishi: $(\sqrt{x+3+\sqrt{x+14}}+\sqrt{x+3-\sqrt{x+14}})^2 =$

$= 4^2 => x+3+\sqrt{x+14}+x+3-\sqrt{x+14}+$

$+2\sqrt{(x+3)^2-(x+14)} = 16 =>$

$=> 2(x+3)+2\sqrt{x^2+6x+9-x-14} = 16 =>$

$=> \sqrt{x^2+5x-5} = 5-x => x^2+5x-5 = 25-$

$-10x+x^2 => 15x = 30 => x = 2 => 2\cdot 3^{-1} = \frac{2}{3}$.

Javobi: D.

30. $\sqrt{5-|2x-1|} < 2$ tengsizlikning butun sonlardan iborat yechimlari sonini toping.

A) 2 B) 3 C) 4 D) 6 E) $cheksiz\ ko'p$

Yechilishi: $\sqrt{5-|2x-1|} < 2$.

1) $5-|2x-1| \geq 0 => |2x-1| \leq 5 => -2 \leq x \leq 3$;

2) $5-|2x-1| < 4 => |2x-1| < 1 =>$

$-1 < 2x-1 < 1 => 0 < 2x < 2 => 0 < x < 1$;

3) $x = -2; -1; 2; 3$. Javobi: C.

31. $(\frac{\sqrt{5}}{3})^{2x^2-5x} = 1{,}8$ tenglamaning ildizlari yig'indisini toping.

A) 5 B) -5 C) 2,5 D) -2,5 E) 1,25

Yechilishi: $(\frac{\sqrt{5}}{3})^{2x^2-5x} = \frac{9}{5} => (\frac{\sqrt{5}}{3})^{2x^2-5x} = (\frac{3}{\sqrt{5}})^2 =>$

$=> 2x^2-5x+2 = 0 => \begin{cases} x_1 = \frac{1}{2} \\ x_2 = 2 \end{cases} => x_1+x_2 = 2{,}5.$

Javobi: C.

32. $x^2 \cdot 3^x - 3^{x+1} \le 0$ tengsizlikning butun sonlardan iborat yechimlari nechta?

A) $\emptyset$ B) 1 C) 2 D) 3 E) $cheksiz\ ko'p$

Yechilishi: $x^2 \cdot 3^x - 3^x \cdot 3 \le 0 \Rightarrow\ 3^x(x^2-3) \le 0 \Rightarrow$

$\Rightarrow \begin{cases} 3^x > 0 \\ x^2 - 3 \le 0 \end{cases} \Rightarrow |x| \le \sqrt{3} \Rightarrow\ -\sqrt{3} \le x \le \sqrt{3} \Rightarrow$

$\Rightarrow -1{,}73 \le x \le 1{,}73 \Rightarrow x = -1; 0;\ 1.$ Javobi: D.

33. $\log_8 5^{2\log_{25} 32}$ ni hisoblang.

A) $\frac{1}{2}$ B) $\frac{1}{3}$ C) $\frac{5}{3}$ D) 2 E) $\frac{7}{3}$

Yechilishi: $\log_8 5^{2\log_{25} 32} = \log_{25} 32 \log_8 25 =$

$= \log_{25} 2^5 \log_{2^3} 25 = 5 \cdot \frac{1}{3} \log_{25} 2 \cdot \log_2 25 = \frac{5}{3}.$

Javobi:C.

34. $log^2_{0,2} \frac{x}{25} + log^2_{0,2} \frac{x}{5} = 1$ tenglamaning ildizlari ko'paytmasini toping.

A) $\frac{1}{125}$ B) 125 C) 25 D) $\frac{1}{25}$ E) 5

Yechilishi: $log^2_{0,2} \frac{x}{25} + log^2_{0,2} \frac{x}{5} = 1;\ \ x > 0.$

$\left(log^2_{5^{-1}} \frac{x}{25}\right)^2 + \left(log^2_{5^{-1}} \frac{x}{5}\right)^2 = 1;$

$\left(log^2_5 \frac{x}{25}\right)^2 + \left(log^2_5 \frac{x}{5}\right)^2 = 1;$

$(\log_5 x - 2)^2 + (\log_5 x - 1)^2 = 1;$

$log^2_5 x - 4\log_5 x + 4 + log^2_5 x - 2\log_5 x + 1 = 1;$

$2log^2_5 x - 6\log_5 x + 4 = 0;\ \ \log_5 x = y;$

$2y^2 - 6y + 4 = 0 \Rightarrow y^2 - 3y + 2 = 0 \Rightarrow \begin{cases} y_1 = 1 \\ y_2 = 2 \end{cases} \Rightarrow$

$\begin{cases} \log_5 x_1 = 1 \\ \log_5 x_2 = 2 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} x_1 = 5 \\ x_2 = 25 \end{cases} \Rightarrow x_1 \cdot x_2 = 125.$ Javobi: B.

35. $(\frac{1}{2})^{\log_{0,2}\log_2\frac{9x+6}{9x^2+2}} > 1$ tengsizlikni yeching.

A) $\left(0;\frac{2}{3}\right)$ B) $\left(0;\frac{1}{6}\right)\cup\left(\frac{2}{3};\infty\right)$ C) $\left(0;\frac{1}{6}\right)\cup\left(\frac{2}{3};\infty\right)$

D) $\left(-\frac{1}{6};\frac{2}{3}\right)$ E) $\left(\frac{2}{3};\infty\right)$

Yechilishi: $\left(\frac{1}{2}\right)^{\log_{0,2}\log_2\frac{9x+6}{9x^2+2}} > \left(\frac{1}{2}\right)^0$; $\frac{9x+6}{9x^2+2} > 0 \Rightarrow$

$\Rightarrow \begin{cases} 9x+6>0 \\ 9x^2+2>0 \end{cases} \Rightarrow x > -\frac{2}{3};\ 0 < \frac{1}{2} < 1 \Rightarrow$

$\Rightarrow \log_{0,2}\log_2\frac{9x+6}{9x^2+2} < 0 \Rightarrow \begin{cases} 0<0{,}2<1 \\ \log < 0 \end{cases} \Rightarrow$

$\Rightarrow \log_2\frac{9x+6}{9x^2+2} > 1 \Rightarrow \frac{9x+6}{9x^2+2} > 2 \Rightarrow$

$\Rightarrow \frac{9x+6-18x^2-4}{9x^2+2} > 0 \Rightarrow \frac{-18x^2+9x+2}{9x^2+2} > 0 \Rightarrow$

$\Rightarrow \frac{18x^2-9x-2}{9x^2+2} < 0 \Rightarrow \begin{cases} 9x^2+2>0 \\ 18x^2-9x-2<0 \end{cases} \Rightarrow$

$\Rightarrow \begin{cases} x_1 = -\frac{1}{6} \\ x_2 = \frac{2}{3} \end{cases} \left(-\frac{1}{6};\frac{2}{3}\right).$



Javobi: D.

36. Agar arifmetik progressiyada $a_2 + a_5 - a_3 = 10$ va $a_1 + a_6 = 17$ bo'lsa, uning o'ninchi hadini toping.

A) 24 B) 26 C) 28 D) 29 E) 30

Yechilishi: $\begin{cases} a_2 + a_5 - a_3 = 10 \\ a_1 + a_6 = 17 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} a_1 = 1 \\ d = 3 \end{cases} \Rightarrow$

$\Rightarrow a_{10} = a_1 + 9d = 28.$ Javobi: C.

37. Agar geometrik progressiyada $b_1 = 2;\ b_n = \frac{1}{8}$ va $S_n = 3\frac{7}{8}$ bo'lsa, uning nechta hadi bor?

A) 12 B) 10 C) 8 D) 6 E) 5

Yechilishi: $b_1 = 2;\quad b_n = \frac{1}{8};\quad S_n = 3\frac{7}{8}.$

$b_n = b_1 q^{n-1} => \frac{1}{8} = 2q^{n-1} => q^n = \frac{q}{16};$

$S_n = \frac{b_1(q^n-1)}{q-1} => 3\frac{7}{8} = \frac{2(q^n-1)}{q-1} => \frac{31}{16} = \frac{q^n-1}{q-1} =>$

$=> 31(q-1) = 16\left(\frac{q}{16} - 1\right) => 31q - 31 =$

$= 16\left(\frac{q}{16} - 1\right) => q = \frac{1}{2} => (\frac{1}{2})^n = \frac{1}{16} \cdot \frac{1}{2} =>$

$=> 2^{-n} = 2^{-5} => n = 5.$ Javobi: E.

38. Hadlarning yig'indisi 2,25 ga, ikkinchi hadi 0,5 ga teng bo'lgan cheksiz kamayuvchi geometrik progressiyaning maxrajini toping.

A) $\frac{1}{3};\frac{1}{6}$ B) $\frac{1}{4}$ C) $\frac{2}{3};\frac{1}{4}$ D) $\frac{1}{6}$ E) $\frac{1}{3};\frac{2}{3}$

Yechilishi: $\frac{225}{100} = \frac{\frac{1}{2}:q}{1-q} => \frac{9}{4} = \frac{\frac{1}{2q}}{1-q} =>$

$9q^2 - 9q + 2 = 0 =>\quad q = \frac{1}{3};\quad q = \frac{2}{3}.$ Javobi: E.

39. $ctg35° - tg35° - 2tg20°$ ni hisoblang.

A) $\frac{1}{2}$ B) 0 C) 1 D) $\frac{\sqrt{3}}{2}$ E) $\sqrt{3}$

Yechilishi: $ctg35° - tg35° - 2tg20° = \frac{\cos 35}{\sin 35} - \frac{\sin 35}{\cos 35} -$

$-2tg20 = \frac{\cos^2 35 - \sin^2 35}{\frac{1}{2}\cdot 2\sin 35\cos 35} - 2tg20 = 2 \cdot \frac{cos70}{sin70} - 2tg20 =$

$= 2\left(\frac{\cos(90-20)}{\sin(90-20)} - tg20\right) = 2\left(\frac{\sin 20}{\cos 20} - tg20\right) = 2 \cdot 0 = 0.$

Javobi: B

40. $2\sin 32° \cos 2° + 2\sin^2 28° + \frac{1}{2}$ ni hisoblang.

A) $\frac{1}{2}$ B) 1 C) $\frac{3}{2}$ D) 2 E) 3

Yechilishi: $2\sin 32° \cos 2° + 2\sin^2 28° + \frac{1}{2} =$

$= 2 \cdot \frac{1}{2}[\sin 34° + \sin 30°] + 2 \cdot \frac{1}{2}(1 - \cos 56°) + \frac{1}{2} =$

$= \sin 34° - \cos 56° + 2 = \sin 34° - \cos(90° - 34°) +$

$+2 = 2.$ Javobi: D.

41. $\frac{\sin(\pi+\alpha)}{\sin(\frac{3\pi}{2}+\alpha)} + \frac{\cos(\pi-\alpha)}{\cos(\frac{\pi}{2}+\alpha)-1}$ ni soddalashtiring.

A) $\frac{1}{\cos\alpha}$ B) $\frac{1}{\sin\alpha}$ C) $\sin\alpha$ D) $\cos\alpha$ E) 1

Yechilishi: $\frac{\sin(\pi+\alpha)}{\sin(\frac{3\pi}{2}+\alpha)} + \frac{\cos(\pi-\alpha)}{\cos(\frac{\pi}{2}+\alpha)-1} = \frac{-\sin\alpha}{-\cos\alpha} + \frac{-\cos\alpha}{-\sin\alpha-1} =$

$= \frac{\sin\alpha}{\cos\alpha} + \frac{\cos\alpha}{\sin\alpha+1} = \frac{\sin^2\alpha+\cos^2\alpha+\sin\alpha}{(\sin\alpha+1)\cdot\cos\alpha} = \frac{1}{\cos\alpha}.$ Javobi: A.

42. Agar $\sin(\alpha - \frac{\pi}{2}) = \frac{2\sqrt{6}}{5}$ va $\alpha \in \left(\frac{\pi}{2};\ \pi\right)$ bo'lsa, $tg2\alpha$ ning qiymatini toping.

A) $\frac{\sqrt{6}}{46}$ B) $\frac{\sqrt{6}}{23}$ C) $-\frac{4\sqrt{6}}{23}$ D) $\frac{2\sqrt{6}}{23}$ E) $\frac{4\sqrt{6}}{23}$

Yechilishi: $\sin(\alpha - \frac{\pi}{2}) = \frac{2\sqrt{6}}{5};\quad \alpha \in \left(\frac{\pi}{2};\ \pi\right).\ tg2\alpha = ?$

$-\sin\left(\frac{\pi}{2} - \alpha\right) = -\cos\alpha => \cos\alpha = -\frac{2\sqrt{6}}{5};$

$\alpha = arccos\left(-\frac{2\sqrt{6}}{5}\right) = \pi - arccos\frac{2\sqrt{6}}{5};$

$tg2\alpha = \frac{\sin 2\alpha}{\cos 2\alpha} = \frac{2\sin\alpha\cos\alpha}{\cos^2\alpha - \sin^2\alpha} =$

$= \frac{2\sin\left(\pi - arccos\frac{2\sqrt{6}}{5}\right)\cos(\pi - arccos\frac{2\sqrt{6}}{5})}{[\cos(\pi - arccos\frac{2\sqrt{6}}{5})]^2 - [\sin\left(\pi - arccos\frac{2\sqrt{6}}{5}\right)]^2} =$

$= \frac{-2\sin arccos\frac{2\sqrt{6}}{5}\cdot\cos arccos\frac{2\sqrt{6}}{5}}{[\cos arccos\frac{2\sqrt{6}}{5}]^2 - [\sin arccos\frac{2\sqrt{6}}{5}]^2} = \frac{-\frac{4\sqrt{6}}{25}}{\frac{48-25}{25}} = -\frac{4\sqrt{6}}{23}.$

Javobi: C.

43. $\cos^2 x + \sin x \cos x = 1$ tenglamaning $[-320^\circ; 50^\circ)$ oraliqqa tegishli ildizlari yig'indisini toping.

A) -535° B) -270° C) -315°

D) -240° E) -585°

Yechilishi: $\cos^2 x + \sin x \cos x = 1; \quad [-320^\circ; 50^\circ)$

$\cos^2 x + \sin x \cos x - \sin^2 x - \cos^2 x = 0 =>$

$=> \sin x(\cos x - \sin x) = 0 => \begin{cases} \sin x = 0 \\ tgx = 1 \end{cases} =>$

$=> \begin{cases} x = \pi n \\ x = \frac{\pi}{4} + \pi n \end{cases} n \in Z. n = -2 => x = -315°;$

$n = 1 => \begin{cases} x = -180°; \\ x = -135°. \end{cases} n = 0 => x = 45°. => -585°.$

Javobi: E.

44. $\sin(arc\,tg\left(-\frac{2}{3}\right))$ ni hisoblang.

A) $-\frac{2\sqrt{13}}{13}$ B) $-\frac{2\sqrt{17}}{17}$ C) $-\frac{2\sqrt{21}}{21}$

D) $-\frac{2\sqrt{15}}{15}$ E) $-\frac{2\sqrt{19}}{19}$

Yechilishi: $\sin arc\,tg\left(-\frac{2}{3}\right) = -\sin arc\,tg\frac{2}{3} =$

$= -\frac{2}{3} : \sqrt{1 + (\frac{2}{3})^2} = -\frac{2\sqrt{13}}{13}.$ Javobi: A.

45. $\vec{m}\,(-1;\ -1\,),\ \vec{n}\,(-1; 1), \vec{p}\,(-5; 3)$ va $\vec{q}\,(-5; 2)$ vektorlarning qaysilari $\vec{a}(-3; 2)$ va $\vec{b}(2; -1)$ vektorlardan yasalgan parallelogrammning diagonallari bo'ladi?

A) $\vec{m}; \vec{n}$ B) $\vec{m}; \vec{p}$ C) $\vec{m};\ \vec{q}$ D) $\vec{n};\ \vec{p}$ E) $\vec{p};\ \vec{q}$

Yechilishi: $\vec{a} + \vec{b} = \{-3 + 2;\ 2 + (-1)\} = \{-1; 1\} = \vec{n};$

$\vec{a} - \vec{b} = \{-3 - 2;\ 2 - (-1)\} = \{-5; 3\} = \vec{p}.$

Javobi: D.

46. Agar $|\vec{a}| = \sqrt{137},\ |\vec{a}+\vec{b}| = 20$ va $|\vec{a}-\vec{b}| = 18$ bo'lsa, $\vec{b}$ ni toping.

A) $7\sqrt{2}$ B) $7\sqrt{3}$ C) $8\sqrt{2}$ D) 12 E) 15

Yechilishi: $|\vec{a}| = \sqrt{137};\ |\vec{a}+\vec{b}| = 20;\ |\vec{a}-\vec{b}| = 18$

$$|\vec{a}|^2 + 2\vec{a}\vec{b} + |\vec{b}|^2 = 400$$

$$+\frac{|\vec{a}|^2 - 2\vec{a}\vec{b} + |\vec{b}|^2 = 324}{2(|\vec{a}|^2 + |\vec{b}|^2) = 724} \Rightarrow |\vec{b}|^2 = 362 - 137 \Rightarrow |\vec{b}| = 15.$$

Javobi: E.

47. Koordinatalari butun sonlardan iborat nechta nuqta uchlari A (-1,5; -0,5), B(-1,5; 2,5) C) (1,5; 2,5) va D (1,5; -0,5) nuqtalarda bo'lgan to'g'ri to'rtburchakning ichida yotadi?



A) 9 B) 3 C) 4 D) 6 E) 8

Yechilishi: 9 ta.

Javobi: A.

48. Agar $f(x) = \frac{2x+1}{3x-1}$ bo'lsa, $f\left(\frac{1}{x}\right) + f\left(\frac{x}{9}\right)$ funksiyani aniqlang.

A) $\frac{1}{3}$ B) $\frac{x}{3}$ C) $-\frac{x}{3}$ D) $-\frac{1}{3}$ E) $\frac{1}{3x-1}$

Yechilishi: $f(x) = \frac{2x+1}{3x-1} \Rightarrow f\left(\frac{1}{x}\right) = \frac{\frac{2}{x}+1}{\frac{3}{x}-1} = \frac{2+x}{3-x};$

$$f\left(\frac{x}{9}\right) = \frac{\frac{2x}{9}+1}{\frac{3x}{9}-1} = \frac{2x+9}{9}\cdot\frac{3}{x-3} = \frac{2x+9}{3(x-3)};$$

$f\left(\frac{1}{x}\right) + f\left(\frac{x}{9}\right) = -\frac{2+x}{x-3} + \frac{2x+9}{3(x-3)} = -\frac{1}{3}.$ Javobi: D.

49. Nechta tub son $f(x) = 2arc\sin\frac{x-3}{3} - 4\log_2(5-x)$ funksiyaning aniqlanish sohasiga tegishli?

A) 1 B) 2 C) 3 D) 4 E) $cheksiz\ ko'p$

Yechilishi: $f(x) = 2arc\sin\frac{x-3}{3} - 4\log_2(5-x)$.

1) $-1 \le \frac{x-3}{3} \le 1 \Rightarrow -3 \le x-3 \le 1 \Rightarrow -6 \le x \le 6$;

2) $5-x > 0 \Rightarrow x < 5$. $U\ holda\ [-6;5) \Rightarrow x = 2;3$.

Javobi: B.

50. Agar $f(x) = \frac{1}{3^{2x}\ln 3} - \ln 4$ bo'lsa, $f'(\log_3 5)$ ni hisoblang.

A) $\frac{29}{50}$ B) $\frac{2}{25\ \ln^2 3}$ C) $\frac{2}{25}$ D) $-\frac{2}{25}$ E) $-\frac{121}{250}$

Yechilishi: $f(x) = \frac{1}{3^{2x}\ln 3} - \ln 4$;

$f'(x) = \frac{-1\cdot(3^{2x}\ln 3)'}{(3^{2x}\ln 3)^2} - 0 = \frac{-2\cdot 3^{2x} ln^2 3}{(3^{2x})^2 ln^2 3} = -\frac{2}{3^{2x}} \Rightarrow$

$\Rightarrow\ f'(\log_3 5) = -\frac{2}{3^{2\log_3 5}} = -\frac{2}{25}$. Javobi: D.

51. $y = \sin\frac{x}{2}$ $(x \in (0;\pi))$ funksiyaning grafigiga (x_0, y_0) nuqtada o'tkazilgan urinmaning burchak koeffitsienti $\frac{\sqrt{3}}{4}$ ga teng. $x_0 \cdot y_0$ ni hisoblang.

A) $\frac{2}{3}$ B) $\frac{1}{6}$ C) $\frac{2\pi}{3}$ D) $-\frac{2\pi}{3}$ E) $\frac{\pi}{6}$

Yechilishi: $y = \sin\frac{x}{2}$; $x \in (0;\pi)$. $y'(x_0) = k = \frac{\sqrt{3}}{4}$;

$y_0 = \sin\frac{x_0}{2}$; $y' = \frac{1}{2}\cos\frac{x}{2} \Rightarrow y'(x_0) = \frac{1}{2}\cos\frac{x_0}{2} \Rightarrow$

$\Rightarrow\ \frac{\sqrt{3}}{4} = \frac{1}{2}\cos\frac{x_0}{2} \Rightarrow\ \cos\frac{x_0}{2} = \frac{\sqrt{3}}{2} \Rightarrow\ x_0 = \frac{\pi}{3} \Rightarrow$

$\Rightarrow y_0 = \sin\frac{1}{2}\cdot\frac{\pi}{3} = \frac{1}{2} \Rightarrow\ x_0 \cdot y_0 = \frac{\pi}{6}$. Javobi: E.

52. Agar m va M $y = x + \frac{1}{x}$ funksiyaning mos ravishda minimum va maksimum nuqtalaridagi qiymatlari bo'lsa, $m - 2M$ ning qiymatini toping.

A) -6 B) 6 C) -4 D) 4 E) 3

Yechilishi: $y = x + \frac{1}{x}$; $D(y) = (-\infty; 0) \cup (0; +\infty)$;

$y' = 1 - \frac{1}{x^2} => y' = 0 => x = \pm 1.$

$D(y) = (-\infty; -1) \cup (-1; 0) \cup (0; 1) \cup (1; +\infty)$;

$y(-1) = -1 - 1 = -2$; $y(1) = 1 + 1 = 2.$

$m - 2M = -2 - 2 \cdot 2 = -6.$ Javobi: A.

53. Teng yonli uchburchakning yon tomoni 2 ga teng. Shu uchburchakning yuzi eng katta bo'lishi uchun, asosi nimaga teng bo'lishi kerak?

A) $2\sqrt{2}$ B)$\sqrt{2}$ C) $2\sqrt{3}$ D) $\sqrt{3}$ E) 1,5

Yechilishi: $h^2 = 4 - \frac{a^2}{4} => h = \sqrt{\frac{16-a^2}{4}}$;

$S_{\triangle} = \frac{1}{2} a \cdot \sqrt{\frac{16-a^2}{4}} = \sqrt{\frac{16a^2-a^4}{16}} =$

$= \frac{1}{4}\sqrt{16a^2 - a^4}.$



$S'_{\triangle} = \frac{1}{4} \cdot \frac{32a-4a^3}{2\sqrt{16a^2-a^4}} =>$

$=> 32a - 4a^3 = 0 =>$

$=> 4a(8 - a^3) = 0 => \begin{cases} 4a \neq 0; \\ a = 2\sqrt{2}. \end{cases}$ Javobi: C.

54. $f(x) = \frac{1}{\sin^2 2x \cos^2 2x}$ funksiyaning boshlang'ich nuqtasini toping.

A) $tg2x - ctg2x + C$

B) $tg2x + ctg2x + C$

C) $\frac{1}{2}tg2x - \frac{1}{2}ctg2x + C$

D) $\frac{1}{2}tg2x + \frac{1}{2}ctg2x + C$

E) $tgx - ctgx + C$

Yechilishi: $f(x) = \frac{1}{\sin^2 2x \cos^2 2x} = \frac{4}{(2\sin 2x \cos 2x)^2} = \frac{4}{\sin^2 4x}$;

$$F(x) = \int \frac{4}{\sin^2 4x} dx = -4 \cdot \frac{1}{4} ctg\ 4x + C =$$

$$= -ctg\ 4x + C = -ctg\ 2 \cdot 2x + c = -\frac{\text{ctg}^2\ 2x - 1}{2ctg2x} =$$

$$= -\frac{1}{2} ctg\ 2x + \frac{1}{2} \cdot \frac{1}{ctg2x} + C = \frac{1}{2} tg\ 2x - \frac{1}{2} ctg\ 2x + C.$$

Javobi: C.

55. $\int_4^9 \left(\frac{2x}{5} - \frac{1}{2\sqrt{x}}\right) dx$ni hisoblang.

A) 7 B) 8 C) 10 D) 12 E)15

Yechilishi: $\int_4^9 \frac{2}{5} x dx - \int_4^9 \frac{1}{2} x^{-\frac{1}{2}} dx = \frac{2}{5} \cdot \frac{x^2}{2} |_4^9 - \frac{1}{2} \cdot \frac{x^{\frac{1}{2}}}{\frac{1}{2}} |_4^9 =$

$= \frac{1}{5}[9^2 - 4^2] - [\sqrt{9} - \sqrt{4} = 13 - 1 = 12.$ Javobi: D.

56. Teng yonli uchburchakning asosidagi burchagi 30° ga teng. Shu uchburchakning yon tomonlaridan biri va ikkinchi yon tomonga tushurilgan balandligi orasidagi burchakni toping.

A) 150° B) 120° C) 60° D) 45° E) 67°

Yechilishi: $30° + 30° + \alpha = 180°;$

$\alpha = 120°.$

$\beta = 90° - 60° = 30°.$ Javobi: E.



57. Aylanadagi nuqtadan BA vatar va BC diametr o'tkailadi. BA vatar 46° li yoyga tiralgan. O'tkazilgan vatar va diametr orasidagi burchakni toping.



A) 23° B) 30° C) 134°
D) 60° E) 67°

Yechilishi: $\overset{\frown}{ABC} = 180° - 46° = 134°$. $\angle ABC = 67°$.

Javobi: E.

58. Teng yonli trapetsiyaning perimetri 40 ga, unga ichki chizilgan aylananing radisusi 3 ga teng. Shu trapetsiyaning yuzini toping.

A) 40 B) 50 C) 60 D) 80 E) 100



Yechilishi: $a + b + 2c = 40;$

$Aylana\ ichki\ chizilgan$:

$h = 2r = 6;\ \ c = \frac{a+b}{2}.$

$a + b = 2c;\ \ 4c = 40 => c = 10.$

$S = c \cdot h = 60.$ Javobi: C.

59. Muntazam yigirmaburchakning yuzi 16 ga, unga ichki chizilgan aylananing yuzi 4π ga teng. Yigirmaburchakning perimetrini toping.

A) 12 B) 16 C) 18 D) 20 E) 24



Yechilishi: $r_d = h_\triangle.\ \ S_d = 4\pi =>$

$=>\ \pi r^2 = 4\pi => r = h = 2;$

$S_k = 16 =>\ S_k = 20 \cdot S_\triangle.$

$S_\triangle = \frac{1}{20};\ S_k = \frac{1}{20} \cdot 16 = \frac{4}{S};\ \frac{4}{5} = \frac{1}{2} \cdot a \cdot 2 =>$

$=> a = \frac{4}{5};$

$p = 20 \cdot a = 20 \cdot \frac{4}{5} = 16.$ Javobi: B.

60. Rombning yuzi 12 ga, diagonallarining nisbati 1:2 ga teng. Romb tomonining uzunligini toping.

A) 4 B) $\sqrt{7}$ C) $\sqrt{15}$ D) 6 E) 2

Yechilishi: $\frac{d_1}{d_2} = \frac{1}{2} => d_2 = 2d_1;\ S = 4S_{\measuredangle} = 3;$

$\frac{1}{2} \cdot \frac{d_1}{2} \cdot \frac{2d_1}{2} = 3 => d_1^2 = 12 => d_1 = 2\sqrt{3};\ d_2 = 4\sqrt{3};$

$a^2 = \left(\frac{d_1}{2}\right)^2 + \left(\frac{2d_2}{2}\right)^2 =$

$= \left(\sqrt{3}\right)^2 + \left(2\sqrt{3}\right)^2 = 15 =>$

$=> a = \sqrt{15}.$ Javobi: C.



4-axborotnoma

1. $\frac{2\frac{2}{7}\cdot(-2,6)\cdot 3,5}{4}=\frac{\frac{4}{13}\cdot(-3,9)\cdot 3,25}{x}$ proporsiyaning noma'lum hadini toping.

A) 0,65 B) 0,7 C) 0,75 D) 0,78 E) 0,74

Yechilishi: $-\frac{16}{7}\cdot\frac{26}{10}\cdot\frac{35}{10}\cdot x=-\frac{4}{13}\cdot\frac{39}{10}\cdot\frac{325}{100}\cdot 4 \Rightarrow$

$\Rightarrow \frac{1}{5}\cdot 8\cdot 13x=\frac{1}{5}\cdot 2\cdot 3\cdot 13 \Rightarrow x=\frac{3}{4}=0,75.$

Javobi: C.

2. Mahsulotning narxi ketma-ket ikki marta 10% ga oshirilgandan so'ng 484 so'm bo'ldi. Birinchi ko'tarilgandan so'ng mahsulotning narxi necha so'm bo'lgan?

A) 420 B) 430 C) 450 D) 440 E) 410

Yechilishi: $1,1(1,1x)=484 \Rightarrow 1,21x=484 \Rightarrow$

$\Rightarrow x=400 \Rightarrow 1,1x=440.$ Javobi: D.

3. [4; 8] kesmada nechta o'zaro tub sonlar jufti bor?

A) 5 B) 6 C) 4 D)7 E) 8

Yechilishi: $[4;8]$ $4;5;6;7;8$ $C_5^2=\frac{5!}{2!3!}=10;$

$(4;5),(4;7),(5;6),(5;6),(5;7),(5;8),(6;7),(7;8).$

Javobi: E.

4. 4 va 64 sonlarining o'rta arifmetigi ularning o'rta geometrigidan necha marta katta?

A) $2\frac{1}{4}$ B) $2\frac{3}{4}$ C) 2,2 D) $2\frac{3}{8}$ E) $2\frac{1}{8}$

Yechilishi: $\frac{4+64}{2}=34;$ $\sqrt{4\cdot 64}=2\cdot 8=16;$

$\frac{34}{16} = \frac{17}{8} = 2\frac{1}{8}$. Javobi: E.

5. Nechta ikki xonali son 15 ga qoldiqsiz bo'linadi?

A) 4 B) 5 C) 7 D) 6 E) 8

Yechilishi: $15, 30, \dots, 90 => 90 = 15 + 15(n-1) =>$

$=> n = 6$. Javobi: D.

6. Uchta sonning nisbati 1: 2: 6 ga, ularning yig'indisi esa 429 ga teng. Shu sonlardan eng kattasining va eng kichigining ayirmasini toping.

A) 245 B) 255 C) 235 D) 275 E) 265

Yechilishi:

$\begin{cases} x:y:z = 1:2:6; \\ x+y+z = 459. \end{cases}$ $Nisbatdan\ x = t, y = 2t,\ z = 6t$

$deb\ olsak: 9t = 459 => t = 51.\ Demak,\ x = 51,$

$y = 102, z = 306\ bo'ladi.\ U\ holda$

$z - x = 306 - 51 = 255$. Javobi: B.

7. Agar $m - n$ ratsional son, mn, m va n lar esa irratsional sonlar bo'lsa, quyidagilardan qaysi biri ratsional son bo'ladi?

A) $m - 2n$ B) $m^2n - mn^2$

C) $m^3 - n^3 - 3mn(m-n)$ D) $2m - n$ E) $3m - 5n$

Yechilishi: $m^3 - n^3 - 3mn(m-n) = m^3 - 3m^2n +$

$+3mn^2 - n^3 = (m-n)^3$. Javobi: C.

8. Bir vaqtda A va B shaharlardan bir-biriga qarab passajer va yuk poyezdi yo'lga tushdi. Passajer poyezdining tezligi 60 km/soatga, yuk poyezdiniki esa 40 km/soatga teng. Poyezdlar 3 soatdan keyin uchrashdi. Uchrashgandan qancha vaqt o'tganidan keyin yuk poyezdi A shaharga yetib keladi?

A) 4 $soat$ 10 m B) 4$soat$ 15m C) 4 $soat$ 20 m

D) 4 $soat$ 25m E) 4 $soat$ 30m

Yechilishi:



$S_p = 60 \cdot 3 = 180km;$

$180 = 40 \cdot t => t = 4{,}5.$

Javobi: E.

9. Agar $x = 256$ bo'lsa, $\frac{x-1}{x^{\frac{3}{4}}+x^{\frac{1}{2}}} \cdot \frac{x^{\frac{1}{2}}+x^{\frac{1}{4}}}{x^{\frac{1}{2}}+1} \cdot x^{\frac{1}{4}} + 1$ ning qiymatini hisoblang.

A) 14 B) 15 C) 16 D) 13 E) 12

$$\frac{x-1}{x^{\frac{3}{4}}+x^{\frac{1}{2}}} \cdot \frac{x^{\frac{1}{2}}+x^{\frac{1}{4}}}{x^{\frac{1}{2}}+1} \cdot x^{\frac{1}{4}} + 1 = \frac{(\sqrt{x}-1)(\sqrt{x}+1)}{\sqrt[4]{x^3}+\sqrt{x}} \cdot \frac{\sqrt{x}+\sqrt[4]{x}}{\sqrt{x}+1} \cdot \sqrt[4]{x} + 1 =$$

$$= \frac{(\sqrt{x}-1)\left(\sqrt[4]{x^3}+\sqrt{x}\right)}{\sqrt[4]{x^3}+\sqrt{x}} + 1 = \sqrt{x} - 1 + 1 = \sqrt{x} =>$$

$=> \sqrt{256} = 16.$ Javobi: C.

10. $\left(\frac{a+x}{a} - \frac{x-y}{x}\right) \cdot \frac{a^2}{x^2+ay} : \frac{a}{8x}$ ni soddalashtiring.

A) 10 B) 6 C) 7 D)8 E) 9

$$\left(\frac{a+x}{a} - \frac{x-y}{x}\right) \cdot \frac{a^2}{x^2+ay} \cdot \frac{8x}{a} = \frac{ax+x^2-ax+ay}{ax} \cdot \frac{8ax}{x^2+ay} = 8.$$

Javobi: D.

11. $\sqrt{2+\sqrt{3}} - \sqrt{2-\sqrt{3}}$ ni soddalashtiring.

A) $\sqrt{3}$ B) $2\sqrt{3}$ C) $2\sqrt{2}$ D) $\sqrt{2}$ E) $\sqrt{6}$

Yechilishi: $\sqrt{2+\sqrt{3}} = \sqrt{\frac{2+\sqrt{4-3}}{2}} + \sqrt{\frac{2-1}{2}} = \frac{\sqrt{3}}{\sqrt{2}} + \frac{1}{\sqrt{2}};$

$$\sqrt{2+\sqrt{3}} - \sqrt{2-\sqrt{3}} = \frac{\sqrt{3}}{\sqrt{2}} + \frac{1}{\sqrt{2}} - \frac{\sqrt{3}}{\sqrt{2}} + \frac{1}{\sqrt{2}} = \sqrt{2}.$$

Javobi: D.

12. a ning qanday qiymatlarida $x^2 + 3x + a + 0{,}75 = 0$ tenglamaning ikkala ildizi ham manfiy bo'ladi?

A) $0{,}5 < a < 2$ B) $-0{,}75 < a < 1{,}5$

C) $0{,}6 < a < 1{,}8$ D) $0{,}8 < a < 1{,}2$

E) $0{,}9 < a < 1{,}4$

Yechilishi: $x^2 + 3x + a + 0{,}75 = 0$;

1) $D \neq 0 \Rightarrow 3^2 - 4 \cdot 1 \cdot (a + 0{,}75) \neq 0 \Rightarrow a \neq 1{,}5$;

2) $b > 0; c > 0 \Rightarrow 3 > 0;\ a + 0{,}75 > 0 \Rightarrow$

$\Rightarrow a > -0{,}75$. 1) va 2) dan $-0{,}75 < a < 1{,}5$.

Javobi: B.

13. $2 - 3|x - 5| = -4$ tenglamaning ildizlari yig'indisini toping.

A) 8 B) 7 C) 9 D) 6 E) 10

Yechilishi: $2 - 3|x - 5| = -4 \Rightarrow 3|x - 5| = 6 \Rightarrow$

$\Rightarrow |x - 5| = 2 \Rightarrow \begin{cases} x - 5 = 2 \\ -x + 5 = 2 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} x_2 = 7 \\ x_1 = 3 \end{cases} \Rightarrow$

$\Rightarrow x_1 + x_2 = 10$. Javobi: E.

14. $\frac{x^2 - 13x + 36}{x^4 + 25} \leq 0$ tengsizlikning eng katta va eng kichik yechimlari ayirmasini toping.

A) 6 B) 4 C) 5 D) 7 E) 8

Yechilishi: $\frac{x^2 - 13x + 36}{x^4 + 25} \leq 0 \Rightarrow x^2 - 13x + 36 \leq 0 \Rightarrow$

$\Rightarrow (x - 4)(x - 9) \leq 0 \Rightarrow [4; 9] \Rightarrow 9 - 4 = 5$.

Javobi: C.

15. Agar $x - \sqrt{x + 3} - 17 = 0$ bo'lsa, $\sqrt{x + 3}$ ning qiymatini hisoblang.

A) 3 B) 4 C) 6 D) 7 E) 5

Yechilishi: $x - \sqrt{x + 3} - 17 = 0 \Rightarrow (x - 17)^2 =$

$= (\sqrt{x + 3})^2 \Rightarrow x^2 - 35x + 286 = 0 \Rightarrow$

$=> \begin{cases} x = 13 \\ x = 22 \end{cases} => \sqrt{x+3} = 5.$ Javobi: E.

16. $\sqrt{|x|-2} < \frac{2|x|}{x}$ tengsizlikning butun sonlardan iborat nechta yechimi bor?

A) 6 B) 5 C) 3 D) 4 E) 7

Yechilishi: $\sqrt{|x|-2} < \frac{2|x|}{x} => 1) \begin{cases} |x|-2 \geq 0 \\ x \neq 0 \end{cases} =>$

$=> \begin{cases} |x| \geq 2 \\ x \neq 0 \end{cases} => \begin{cases} x \geq 2; \\ x \leq -2; \\ x \neq 0. \end{cases}$



$2)\ |x|-2 < \frac{4x^2}{x^2} =>$

$=> |x|-2 < 4 => -6 < x < 6;$

$x = 2; 3; 4; 5.$ Javobi: D.

17. $\sqrt{x+2\sqrt{x-1}} + \sqrt{x-2\sqrt{x-1}}$ $(1 \leq x \leq 2)$ ni soddalashtiring.

A) $2\sqrt{x-1}$ B) 2 C) -2 D) $-2\sqrt{x-1}$ E) 4

Yechilishi: $\sqrt{x+2\sqrt{x-1}} + \sqrt{x-2\sqrt{x-1}} = y;$

$(1 \leq x \leq 2) => y^2 = x+2\sqrt{x-1} + x-2\sqrt{x-1} +$

$+2\sqrt{x^2-4(x-1)} = 2x + 2\sqrt{x^2-4x+4} =$

$= 2x + 2(x-2) = 2x + 2x - 4 = 4x - 4 =$

$= 4(x-1) => y = 2\sqrt{x-1}.$ Javobi: A.

18. $\sqrt[3]{16+16\sqrt{2}} \cdot \sqrt[6]{48-32\sqrt{2}}$ni hisoblang.

A) 2 B) 6 C) 4 D) 8 E) 5

Yechilishi: $\sqrt[3]{16+16\sqrt{2}} \cdot \sqrt[6]{48-32\sqrt{2}} =$

$= \sqrt[6]{[16(1+\sqrt{2})]^2 \cdot 16(3-2\sqrt{2})} =$

$= \sqrt[6]{16^3(3+2\sqrt{2})(3-2\sqrt{2})} = \sqrt[6]{4^6(9-8)} = 4.$

Javobi: C.

19. 15 ta haddan iborat arifmetik progressiyaning sakkizinchi hadi 18 ga teng. Shu progressiyaning hadlari yig'indisini toping.

A) 280 B) 270 C) 250 D) 300 E) 260

Yechilishi: $\underbrace{a_1, a_2, \dots, a_7, 18, a_9, \dots, a_{14}, a_{15}}_{36} =>$

$=> \frac{a_1+a_{15}}{2} = a_8 => S_{15} = \frac{36}{2} \cdot 15 = 270.$ Javobi: B.

20. Geometrik progressiyaning oltinchi va birinchi hadi ayirmasi 1210 ga, maxraji 3ga teng. Shu progressiyaning dastlabki beshta hadi yig'indisini toping.

A) 610 B) 615 C) 600 D) 605 E) 608

Yechilishi: $\begin{cases} b_6 - b_1 = 1210 \\ q = 3. \end{cases} => b_1 q^5 - b_1 = 1210 =>$

$=> b_1(3^5 - 1) = 1210 => b_1 = \frac{1210}{242} = 5;$

$S_5 = \frac{5\cdot(3^5-1)}{3-1} = \frac{5\cdot 242}{2} = 605.$ Javobi: D.

21. Cheksiz kamayuvchi geometrik progressiyaning birinchi hadi 2 ga, hadlarining yig'indisi esa 5 ga teng. Shu progressiyaning hadlari kvadratlaridan tuzilgan progressiyaning hadlari yig'indisini toping.

A) 6,25 B) 6,5 C) 5,75 D) 6,75 E) 5,85

Yechilishi: $b_1 = 2;\ S = 5 => 5 = \frac{2}{1-q} =>$

$=> 5 - 5q = 2 => 5q = 3 => q = \frac{3}{5};$

$2^2;\ (\frac{6}{5})^2;\ (\frac{18}{25})^2;\ \dots => q = \frac{9}{25}.\ S = \frac{4}{1-\frac{9}{25}} = \frac{100}{16} =$

$= \frac{25}{4} = 6\frac{1}{4} = 6{,}25.$ Javobi: A.

22. $tg\ 240^{\circ}, \sin 120^{\circ}, \cos 150^{\circ}$ va $ctg\ 225^{\circ}$ sonlardan eng kattasining eng kichigiga ko'paytmasini toping.

A) -1.4 B) -1,5 C) $-\frac{\sqrt{6}}{2}$ D) 1,5 E) $\frac{\sqrt{6}}{2}$

Yechilishi: $tg240° = tg(180 + 60) = tg60° = \sqrt{3};$

$\sin 120° = \sin(90 + 30) = \cos 30° = \frac{\sqrt{3}}{2};$

$\cos 150° = \cos(90 + 60) = -\sin 60° = -\frac{\sqrt{3}}{2};$

$ctg225° = ctg(180 + 45) = ctg45° = 1;$

$tg240° \cdot \cos 150° = \sqrt{3} \cdot \left(-\frac{\sqrt{3}}{2}\right) = -1{,}5.$ Javobi: B.

23. $tg\ 60^{\circ} \cos 15^{\circ} - \sin 15^{\circ}) \cdot 7\sqrt{2}$ ning qiymatini toping.

A) 16 B) 12 C) 18 D) 14 E) 10

Yechilishi: $(tg60° cos15° - sin15°) \cdot 7\sqrt{2} =$

$= \frac{\sin 60 \cos 15 - \cos 60 \sin 15}{\cos 60} \cdot 7\sqrt{2} = \frac{\sin 45^{\circ}}{\cos 60^{\circ}} \cdot 7\sqrt{2} = 14.$

Javobi: D.

24. $\frac{1-\cos 2\alpha}{1+tg^2\alpha}$ ni soddalashtiring.

A) $\sin^2 2\alpha$ B) $\frac{1}{2}\sin^2 2\alpha$ C)$\cos^2 2\alpha$

D) $\frac{1}{2}\cos^2 2\alpha$ E) $\frac{1}{2}\sin^2 \alpha$

Yechilishi: $\frac{1-\cos 2\alpha}{1+tg^2\alpha} = \frac{\sin^2\alpha+\cos^2\alpha-\cos^2\alpha+\sin^2\alpha}{\frac{1}{\cos^2\alpha}} =$

$= 2\sin^2\alpha\cos^2\alpha = \frac{1}{2}(2\sin\alpha \cdot \cos\alpha)^2 = \frac{1}{2}\sin^2 2\alpha.$

Javobi: B.

25. $1 - \sin x - \cos 2x = 0 \quad (x \in [0; 2\pi])$ tenglamaning ildizlari yig'indisini toping.

A) $3{,}5\pi$ B) $4{,}2\pi$ C) 4π D) $3{,}8\pi$ E) $4{,}3\pi$

Yechilishi: $1 - \sin x - \cos 2x = 0 \quad (x \in [0; 2\pi]).$

$1-\sin x-\cos^2 x+\sin^2 x=0;$

$\sin^2 x-\sin x+(1-\cos^2 x)=0;$

$2\sin^2 x-\sin x=0 \Rightarrow \begin{cases}\sin x=0\\ \sin x=\frac{1}{2}\end{cases} \Rightarrow$

$\Rightarrow \begin{cases}x=\pi n;\\ x=(-1)^n\frac{\pi}{6}-\pi n.\end{cases} \quad n=0 \Rightarrow \begin{cases}x=0°;\\ x=30°.\end{cases}$

$n=1 \Rightarrow \begin{cases}x=180°;\\ x=-30+180=150°.\end{cases}$

$n=2 \Rightarrow \begin{cases}x=360°;\\ x=30+360°.\end{cases}$

$0+30+180+150+360=720°=4\pi.$ Javobi: C.

26. $tg\left(arc\ tg\frac{1}{3}+arc\ tg\frac{1}{9}\right)$ ning qiymatini hisoblang.

A) $\frac{7}{13}$ B) $\frac{8}{13}$ C) $\frac{5}{13}$ D) $\frac{4}{13}$ E) $\frac{6}{13}$

Yechilishi: $tg\left(arc\ tg\frac{1}{3}+arc\ tg\frac{1}{9}\right)=\frac{\frac{1}{3}+\frac{1}{9}}{1-\frac{1}{3}\cdot\frac{1}{9}}=$

$=\frac{4}{9}\cdot\frac{27}{26}=\frac{6}{13}.$ Javobi: E.

27. $1\le\frac{tg\,3x+tg\,x}{1-tg\,3x\,tgx}\le\sqrt{3}\quad(0<x<\pi)$ tengsizlikning eng katta va eng kichik yechimlari yig'indisini toping.

A) $\frac{\pi}{7}$ B) $\frac{43}{48}\pi$ C) $\frac{5\pi}{48}$ D) $\frac{7\pi}{48}$ E) $\frac{3\pi}{16}$

Yechilishi: $1\le tg4x\le\sqrt{3}\quad(0<x<\pi).$

$-\frac{\pi}{2}<4x<\frac{\pi}{2} \Rightarrow -\frac{\pi}{8}<x<\frac{\pi}{8}.$

1) $tg4x\ge 1 \Rightarrow \frac{\pi}{4}\le 4x<\frac{\pi}{2} \Rightarrow \frac{\pi}{16}\le x<\frac{\pi}{8};$

2) $tg4x\le\sqrt{3} \Rightarrow -\frac{\pi}{2}<4x\le\frac{\pi}{3} \Rightarrow$

$\Rightarrow -\frac{\pi}{8}<x\le\frac{\pi}{12} \Rightarrow x=\frac{\pi}{16};\frac{\pi}{12}; \quad \frac{\pi}{16}+\frac{\pi}{12}=\frac{7\pi}{48}.$

Javobi: D.

28. $a = 64$ bo'lganda, $\frac{a^{\frac{3}{4}}-8a^{\frac{1}{3}}\cdot b}{a^{\frac{2}{3}}+2a^{\frac{1}{3}}b^{\frac{1}{3}}+4b^{\frac{2}{3}}} : \left(1-\frac{2b^{\frac{1}{3}}}{a^{\frac{1}{3}}}\right) - 4\,a^{\frac{2}{3}}$ ning qiymatini hisoblang.

A) -46 B) -48 C) -44 D) -50 E) -42

Yechilishi: $\frac{a^{\frac{3}{4}}-8a^{\frac{1}{3}}\cdot b}{a^{\frac{2}{3}}+2a^{\frac{1}{3}}b^{\frac{1}{3}}+4b^{\frac{2}{3}}} : \left(1-\frac{2b^{\frac{1}{3}}}{a^{\frac{1}{3}}}\right) - 4\,a^{\frac{2}{3}} =$

$= \frac{\sqrt[3]{a^4}-8\sqrt[3]{a}\cdot b}{\sqrt[3]{a^2}+2\sqrt[3]{a}\sqrt[3]{b}+4\sqrt[3]{b^2}} \cdot \frac{\sqrt[3]{a}}{\sqrt[3]{a}-2\sqrt[3]{b}} - 4\sqrt[3]{a^2} =$

$= \frac{\sqrt[3]{a}(a-8b)}{\sqrt[3]{a^2}+2\sqrt[3]{a}\sqrt[3]{b}+4\sqrt[3]{b^2}} \cdot \frac{\sqrt[3]{a}}{\sqrt[3]{a}-2\sqrt[3]{b}} - 4\sqrt[3]{a^2} =$

$= \frac{\sqrt[3]{a}[(\sqrt[3]{a})^3-(2\sqrt[3]{b})^3]}{\sqrt[3]{a^2}+2\sqrt[3]{a}\sqrt[3]{b}+4\sqrt[3]{b^2}} \cdot \frac{\sqrt[3]{a}}{\sqrt[3]{a}-2\sqrt[3]{b}} - 4\sqrt[3]{a^2} =$

$= \frac{\sqrt[3]{a}\left(\sqrt[3]{a}-2\sqrt[3]{b}\right)\left(\sqrt[3]{a^2}+\sqrt[3]{a}\cdot 2\cdot\sqrt[3]{b}+4\sqrt{b^2}\right)}{\sqrt[3]{a^2}+2\sqrt[3]{a}\sqrt[3]{b}+4\sqrt[3]{b^2}} \cdot \frac{\sqrt[3]{a}}{\sqrt[3]{a}-2\sqrt[3]{b}} - 4\sqrt[3]{a^2} =$

$= \frac{\sqrt[3]{a^2}}{1} - 4\sqrt[3]{a^2} = -3\sqrt[3]{a^2} = -3\sqrt[3]{64^2} = -3\sqrt[3]{(2^6)^2} =$

$= -3\cdot 2^4 = -48.$ Javobi: B.

29. $\frac{2^{2x-1}\cdot 2^{2x+2}}{2^{3x-3}} = 64$ tenglamaning ildizi 12 dan qancha kam?

A) 8 B) 9 C) 6 D) 10 E) 4

Yechilishi: $\frac{2^{2x-1}\cdot 2^{2x+2}}{2^{3x-3}} = 2^6 \Rightarrow 2^{4x+1-3x+3} = 2^6 \Rightarrow$

$\Rightarrow x = 2 \Rightarrow 12-2 = 10.$ Javobi: D.

30. $\frac{1}{8}\cdot 2^{4x-2} > (\sqrt{2})^{10}$ tengsizlikni qanoatlantiruvchi eng kichik butun sonni toping.

A) 2 B)1 C) 3 D) 4 E) 5

Yechilishi: $2^{-3}\cdot 2^{4x-2} > 2^5 \Rightarrow 2^{4x-5} > 2^5 \Rightarrow$

$\Rightarrow 2 > 1 \Rightarrow 4x > 10 \Rightarrow x > 2{,}5 \Rightarrow x = 3.$

Javobi: C.

31. Agar $2^{x^2} \cdot 2^{y^2} = 64$ va $2^{xy} = \sqrt{8}$ bo'lsa, $|x + y|$ ning qiymati toping.

A) 4,5 B) 3,5 C) 2,5 D) 4 E) 3

Yechilishi: $\begin{cases} x^2 + y^2 = 6 \\ x \cdot y = \frac{3}{2} \end{cases} \Rightarrow |x + y|^2 = x^2 + y^2 +$

$+2xy = 9 = |x + y| = 3.$ Javobi: E.

32. $\ln(3^{\log_3 0{,}64} + 8^{\log_8 0{,}36})$ ning qiymati -11 dan qancha ko'p?

A) 10 B) 9 C) 11 D) 12 E) 13

Yechilishi: $\ln\left(3^{\log_3 0{,}64} + 8^{\log_8 0{,}36}\right) =$

$= \ln(0{,}64 + 0{,}36) = \ln 1 = 0.$ Javobi: C.

33. $2\log_4 8 - 3\log_8 4 + \log_2 32 + 18$ ni hisoblang.

A) 22 B) 24 C) 26 D) 20 E) 28

Yechilishi: $2\log_4 8 - 3\log_8 4 + \log_2 32 + 18 =$

$= 2 \cdot \frac{1}{2} \cdot 3 - 3 \cdot \frac{1}{3} \cdot 2 + 5 + 18 = 24.$ Javobi: B.

34. Agar $\log_4 \frac{(2-x)^2}{(3-x)^3} = -3 \log_4|3 - x|$ bo'lsa, x-27 ni hisoblang.

A) -25 B) -29 C) -26 D) -24 E) -28

Yechilishi: $\frac{(2-x)^2}{(3-x)^3} = |3 - x|^{-3};$

1) $|3 - x| > 0 \Rightarrow x < 3;$

2) $\frac{(2-x)^2}{(3-x)^3} > 0 \Rightarrow \begin{cases} x \neq 2; \\ (3 - x)^3 > 0 \Rightarrow x < 3. \end{cases}$

3) $\frac{(2-x)^2}{(3-x)^3} = \frac{1}{(3-x)^3} \Rightarrow (2 - x)^2 = 1 \Rightarrow$

$\Rightarrow \begin{cases} 2 - x = -1 \\ 2 - x = 1 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} x \neq 3 \\ x = 1 \end{cases} \Rightarrow x = 1 \Rightarrow -26.$

Javobi: C.

35. $10^{\lg(x-2)-2} < 4$ tengsizlikning eng katta butun yechimini toping.

A) 400 B) 401 C) 398 D) 402 E) 404

Yechilishi: $10^{\lg(x-2)-2} < 4 \Rightarrow x > 2;$

$\frac{10^{\lg(x-2)}}{10^2} < 4 \Rightarrow 10^{\lg(x-2)} < 4 \cdot 100 \Rightarrow$

$\Rightarrow x - 2 < 400 \Rightarrow x < 402 \Rightarrow x = 401.$

Javobi: B.

36. Agar $\begin{cases} x^{\lg y} = 1000 \\ \log_y x = 3 \end{cases}$ bo'lsa, y ning qiymatini toping.

A) 10 B) 0,01 C) 10 $yoki$ 0,1

D) 30 E) $qiymati\ yo'q$

Yechilishi: $\begin{cases} x^{\lg y} = 1000 \\ \log_y x = 3 \end{cases} \Rightarrow \begin{vmatrix} x > 0 \\ y > 0 \\ y \neq 1 \end{vmatrix} \Rightarrow$

$\Rightarrow \begin{cases} \lg y \lg x = \lg 10^3 \\ \frac{\lg x}{\lg y} = 3 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} \lg y \cdot 3 \cdot \lg y = 3 \\ \lg x = 3 \lg y \end{cases} \Rightarrow$

$\Rightarrow \lg^2 y = 1 \Rightarrow \lg y = \pm 1 \Rightarrow \begin{cases} y_1 = \frac{1}{10}; \\ y_2 = 10. \end{cases}$ Javobi: C.

37. Agar $\log_a 8 = 3$ va $\log_b 243 = 5$ bo'lsa, ab ning qiymatini toping.

A) 4 B) 5 C) 6 D) 8 E)7

Yechilishi: $\begin{cases} \log_a 8 = 3 \\ \log_b 243 = 5 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} 8 = a^3 \\ 243 = b^5 \end{cases} \Rightarrow$

$\Rightarrow \begin{cases} a = 2; \\ b = 3. \end{cases} \Rightarrow a \cdot b = 6.$ Javobi: C.

38. Eng kichik musbat davrga ega bo'lgan funksiyani ko'rsating.

A) $y = \sin\frac{4}{3}x$ B) $y = \cos\frac{5}{3}x$ C) $y = ctg\frac{3}{2}x$

D) $y = \sin x \cos x$ E) $y = tg\frac{2}{3}x$

Yechilishi: $C)\ \ y = ctg\frac{3}{2}x => \frac{\pi}{\frac{3}{2}} = \frac{2\pi}{3} = 120^{\circ}$.

Javobi: C.

39. Toq funksiyani ko'rsating.

A) $f(x) = \cos^2 x - \cos x$

B) $f(x) = \cos x + \sin x$

C) $f(x) = \sin^2 x\, tg\, x - 2x$

D) $f(x) = e^x + \ ctgx$

E) $f(x) = \lg(|x| + 1)$

Yechilishi: $f(-x) = (\sin(-x))^2 tg\ (-x) - 2\ (-x) =$

$= -\sin^2 x\, tgx + 2x = \ -(\sin^2 x\, tgx - 2x)$.

Javobi: C.

40. $f(x) = \log_{x^2}(x-1) + \sqrt{2-x}$ funksiyaning aniqlanish sohasini toping.

A) [1; 2] B) (1; 2) C) [1;2) D) (1; 2] E) (1; 1,5]

Yechilishi: $f(x) = \log_{x^2}(x-1) + \sqrt{2-x} =>$

$=> \ x \neq -1, 0; 1; \ \ x > 1; \ \ x \leq 2 \ \ (1; 2]$. Javobi: D.

41. $f(x) = \ \log_2(x^2 - 2x + 5)$ funksiyaning qiymatlar sohasini toping.

A) $(5; \infty)$ B) $[\log_2 5\,;\ \infty)$ C) $(2;\ \infty)$

D) $(\log_2 6\,;\ \infty)$ E) $[2; \infty)$

Yechilishi: $f(x) = \ \log_2(x^2 - 2x + 5) =$

$=> \log_2[(x-1)^2 + 4]\,;\ \ x = 1 => f(x) = 2 =>$

$=> [2; +\infty)$. Javobi: E.

42. $f(x) = \frac{1}{6}x^6 - \frac{1}{2}x^2 + 4$ funksiyanining minimumlari yig'indisini toping.

A) $4\frac{2}{3}$ B) $7\frac{1}{3}$ C) $6\frac{2}{3}$ D) $3\frac{2}{3}$ E) $5\frac{1}{3}$

Yechilishi: $f(x)=\frac{1}{6}x^6-\frac{1}{2}x^2+4 \Rightarrow \begin{cases} f'(x)=0 \\ x^5-x=0 \end{cases} \Rightarrow$

$\Rightarrow x(x^4-1)=0 \Rightarrow$

$$\begin{cases} x=0 \\ x=-1 \\ x=1 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} f(0)=4; \\ f(-1)=\frac{11}{3}; \\ f(1)=\frac{11}{3}. \end{cases}$$



$f(-1)+f(1)=\frac{22}{3}=7\frac{1}{3}$.

Javobi: B.

43. Argumentning $f(x)=\frac{1}{3}x^3+3x^2$ funksiya kamayadigan barcha qiymatlari OX o'qiga qo'yilganda, qanday uzunlikdagi kesma hosil bo'ladi?

A) 4 B) 5 C) 6 D) 3 E) 7

Yechilishi: $f(x)=\frac{1}{3}x^3+3x^2 \Rightarrow f'(x)\le 0 \Rightarrow$

$x^2+6x\le 0 \Rightarrow \begin{cases} x=0 \\ x=-6 \end{cases} \Rightarrow [-6;0]$. Javobi: C.

44. Ikki moddiy nuqta $S_1(t)=2t^3-5t^2-3t(m)$ va $S_2(t)=\ 2t^3-53-11t+7\ (m)$ qonuniyatlar tezlanishini (m/c^2) toping.

A) 10 B) 8 C) 14 D) 9 E) 11

Yechilishi: 1) $S_1(t)=2t^3-5t^2-3t \Rightarrow$

$\Rightarrow v_1=6t^2-10t-3;$

2) $S_2(t)=\ 2t^3-3t^2-11t+7 \Rightarrow$

$\Rightarrow v_2=6t^2-6t-11;$

3) $v_1=v_2 \Rightarrow t=2;\ \ a=(v_1)'=12t-10 \Rightarrow$

$\Rightarrow a=12\cdot 2-10=14.$ Javobi: C.

45. Ikki jism to'g'ri chiziq bo'ylab bir vaqtning o'zida bitta nuqtadan bir yo'nalishda $V_1(t) = 3t^2 - 5\ (m/c)$ va $V_2 = 3t^2 + 2t + 1\ (m/c)$ qonuniyatlariga ko'ra harakatlana boshladi. Harakat boshlangandan 4 sekund o'tgach, bu jismlar orasidagi masofa (m) qanchaga teng bo'ladi?

A) 38 B) 42 C) 40 D) 36 E) 44

Yechilishi: $S_1(t) = \int v_1(t)dt = \int (3t^2 - 5)dt =$

$= 3 \cdot \frac{t^3}{3} - 5t = t^3 - 5t;$



$S_1(4) = 4^3 - 5 \cdot 4 = 44;$

$S_2(t) = \int v_2(t)dt =$

$= \int 3t^2 + 2t + 1)\ dt =$

$= 3 \cdot \frac{t^3}{3} + 2 \cdot \frac{t^2}{2} + t = t^3 + t^2 + t;$

$S_2(4) = 4^3 + 4^2 + 4 = 64 + 16 + 4 = 84;$

$S_2 - S_1 = 84 - 44 = 40.$ Javobi: C.

46. Tomonlari 11, 12 va 13 ga teng bo'lgan uchburchakning katta tomoniga tushurilgan medianisi uzunligini toping.

A) 10 B) 9 C) 8,5 D) 9,5 E) 8

Yechilishi: $m = \frac{1}{2}\sqrt{2 \cdot 11^2 + 2 \cdot 12^2 - 13^2} =$

$= \frac{1}{2}\sqrt{2 \cdot 121 + 2 \cdot 144 - 169} =$



$= \frac{1}{2}\sqrt{242 + 288 - 169} =$

$= \frac{1}{2}\sqrt{361} = \frac{19}{2} = 9{,}5.$ Javobi: D.

47. $\vec{b}$ vektor $\vec{a}$ (1; 2; 2) vektorga collinear hamda bu vektorlarning skalyar ko'paytmasi 36 ga teng. $\vec{b}$ vektorning uzunligini toping.

A) 3 B) 4 C) 12 D) 6 E) 5

Yechilishi: $\vec{b} = \lambda\vec{a} = \lambda\{1; 2; 2\} = \{\lambda; 2\lambda; 2\lambda\};$

$\vec{a} \cdot \vec{b} = 36 => \{1; 2; 3\} \cdot \{\lambda; 2\lambda; 2\lambda\} = 36 =>$

$=> \lambda + 4\lambda + 4\lambda = 36 => \lambda = 4 => \vec{b} = \{4; 8; 8\} =>$

$=> |\vec{b}| = \sqrt{4^2 + 8^2 + 8^2} = \sqrt{16 + 64 + 64} = 12.$

Javobi: C.

48. Parallegrammning perimetri 44 ga teng. Uning diagonallari parallelogrammni to'rtta uchburchakka ajratadi. Shu uchburchaklardan ikkitasining perimetrlari ayirmasi 2 ga teng. Parallelogrammning katta tomoni uzunligini toping.

A) 10 B) 12 C) 8 D) 10,5 E) 8,5

Yechilishi: $2(AB + AD) = 44 =>$

$=> AD = 22 - AB;$

$AB + AO + OB - (AD + AO + OD) = 2 => AB + AO + OB - AD - AO - OB = 2 =>$



$=> AB - (22 - AB) = 2 => 2AB = 24 => AB = 12.$

Javobi: B.

49. Kvadratning tomoni 20 ga teng. Unga ichki va tashqi chizilgan aylanalar orasidagi yuzani toping.

A) 96π B) 110π C) 100π D) 108π E) 98π

Yechilishi: $\begin{cases} R = 10\sqrt{2} \\ r = 10 \end{cases} =>$



$=> \begin{cases} S_1 = \pi R^2 200\pi \\ S_2 = \pi r^2 100\pi \end{cases} =>$

$=> S_1 - S_2 = 100\pi.$ Javobi: C.

50. To'g'ri to'rtburchakka diagonallar o'tkazish natijasida u to'rtta uchburchakka ajratilildi. Shu uchburchakdan birining yuzi 27 ga teng. To'g'ri to'rtburchakning yuzini toping.

A) 112 B) 108 C) 111 D) 96 E) 102

Yechilishi:

$27 = \frac{1}{2} \cdot a \cdot \frac{b}{2} => 27 = \frac{1}{4} \cdot ab =>$

$=> ab = 108.$



Javobi: B.

51. Kvadratga ichki chizilgan to'rtburchakning uchlari kvadrat tomonlarining o'rtalarida yotadi. Agar to'rtburchakning yuzi 26 ga teng bo'lsa, kvadratning yuzi qancha bo'ladi?

A) 70 B) 74 C) 77 D) 72 E) 76

Yechilishi: $a - kvadrat\ tomoni;$

$c^2 = 36 => c = 6;\ \left(\frac{a}{2}\right)^2 + \left(\frac{a}{2}\right)^2 = c^2 =>$

$=> \frac{1}{2}a^2 = c^2 => S = a^2 = 72.$



Javobi: D.

52. $y = |x|$ funksiyaning grafigi va $x^2 + y^2 = 36$ tenglama bilan berilgan aylananing kichik yoyi bilan chegaralangan shaklning yuzini toping.

A) 8π B) 10π C) $8{,}5\pi$ D) 7π E) 9π

Yechilishi: $\begin{cases} y = |x|; \\ x^2 + y^2 = 36. \end{cases}$

$S_{sektor} = \frac{\pi \cdot 6^2 \cdot 90°}{360°} = 9\pi.$



Javobi: E.

53. Kubga ichki chizilgan sharning hajmi $85\frac{1}{3}\pi$ ga teng. Shu kubning sirtini toping.

A) 382 B) 386 C) 385

D) 384 E) 388



Yechilishi: $\frac{4}{3}\pi r^3 = 85\frac{1}{3}\pi =>$

$=> \frac{4}{3}r^3 = \frac{256}{3} =>$

$=> r^3 = 64 => r = 4 =>$

$=> a = 8 =>$

$=> S_T = 6a^2 = 384.$ Javobi: D.

54. Asosining radiusi 6 ga teng bo'lgan silindrga konus ichki chizilgan. Konusning asosi silindrning asosi bilan, uchi esa silindrning ustki asosining markazi bilan ustma-ust tushadi. Konusning yon sirti 60π ga teng. Silindrning yon sirtini toping.

A) 92π B) 94π C) 96π D) 98π E) 90π

Yechilishi: $\pi Rl = 60\pi => l = 10;$



$S_{yon\ sirt} = 2\pi RH = 2\pi \cdot 6 \cdot 8 = 96\pi.$

Javobi: C.

55. Piramidaning asosi kvadratdan iborat. Kvadratning diagonali 6 ga teng. Piramidaning yon qirralaridan biri uning asosiga perpendikulyar. Piramidaning katta yon qirrasi va asos tekisligi orasidagi burchak 45° ga teng. Piramidaning hajmini toping.

A) 32 B) 34 C) 38 D) 40 E) 36



Yechilishi:

$a\sqrt{2} = 6 => a = \frac{6}{\sqrt{2}} = 3\sqrt{2};$

$S_{asos} = a^2 = 18;\ \frac{H}{6} = tg\ 45^\circ => H = 6.$

$V = \frac{1}{3} \cdot S_{asos} \cdot H = \frac{1}{3} \cdot 18 \cdot 6 = 36.$

Javobi: E.

5-axborotnoma

1. $\frac{0,13}{0,00013}+\frac{0,02}{0,0005}-\frac{0,7}{0,0014}$ ni hisoblang.

A) 540 B) 580 C) 620 D) 1400 E) 740

Yechilishi: $\frac{0,13}{0,00013}+\frac{0,02}{0,0005}-\frac{0,7}{0,0014}=$

$=\frac{13000}{13}\cdot\frac{200}{5}-\frac{7000}{14}=540.$ Javobi: A.

2. $\frac{\sqrt{196}\cdot\sqrt{19,6}}{\sqrt{0,196}\cdot\sqrt{1,96}}$ ni hisoblang.

A) 1000 B)100 C) 196 D) 10 E) 19,6

Yechilishi: $\sqrt{\frac{19600\cdot19600}{196\cdot196}}=\frac{19600}{196}=100.$ Javobi: B.

3. $\frac{3}{17},\frac{8}{13},\frac{16}{19}$ sonlarga bo'linganda, bo'linma butun son chiqadigan eng kichik natural son nechaga teng?

A) 48 B) 24 C) 36 D) 60 E) 96

Yechilishi: $x:\frac{3}{17}=x\cdot\frac{17}{3}$; $Shuningdek, x\cdot\frac{13}{8}$ va $x\cdot\frac{19}{16}$ $bo'lishi\ e'tiborga\ olinsa, izlanayotgan\ x\ butun\ son$ $3,8,16$ $sonlariga\ karrali\ bo'lishi\ kerak.$

$Demak,\ x=48.$ Javobi: A.

4. $\frac{8+2\sqrt{2}}{4+\sqrt{125}}$ kasr qisqartirilgandan keyin, quyidagilarning qaysi biriga teng bo'ladi?

A) $\frac{\sqrt{2}}{2}$ B) $\frac{\sqrt{2}}{4}$ C) $\frac{2}{\sqrt{2}}$ D) $\sqrt{2}+1$ E) $\frac{\sqrt{2}+1}{2}$

Yechilishi: $\frac{8+\sqrt{8}}{4+\sqrt{128}}=\frac{(8+\sqrt{8})(8-\sqrt{8})}{(4+\sqrt{128})(8-\sqrt{8})}=\ =$

$\frac{64-8}{32-4\sqrt{8}+8\sqrt{128}-\sqrt{128\cdot8}}=\frac{56}{32-8\sqrt{2}+64\sqrt{2}-32}=\frac{56}{56\sqrt{2}}=\frac{1}{\sqrt{2}}=$

$= \frac{\sqrt{2}}{2}$. Javobi: A.

5.$((\sqrt[4]{2} - \sqrt[4]{8})^2 + 5) \cdot ((\sqrt[4]{2} + \sqrt[4]{8})^2 - 5)$ ni hisoblang.

A) 17 B) 16 C) 20 D) $17\sqrt{2}$ E) 25

Yechilishi: $[(\sqrt[4]{2} - \sqrt[4]{8})^2 + 5] \cdot [(\sqrt[4]{2} + \sqrt[4]{8})^2 - 5] =$

$= (\sqrt[4]{2^2} - 2\sqrt[4]{2^4} + \sqrt[4]{2^6} + 5)(\sqrt[4]{2^2} + 2\sqrt[4]{2^4} + \sqrt[4]{2^6} - 5 =$

$= [(\sqrt[4]{2^2} + \sqrt[4]{2^6}) + 1] \cdot [(\sqrt[4]{2^2} + \sqrt[4]{2^6}) - 1] = (\sqrt[4]{2^2} +$

$+\sqrt[4]{2^6})^2 - 1 = 2 + 2 \cdot 2^2 + 2^3 - 1 = 17.$ Javobi: A.

6.$5^a = 3$ va $75^b = 81$ bo'lsa, a va b orqali ifodalang.

A) $\frac{2b}{4-b}$ B) $\frac{b}{4+b}$ C) $\frac{3b}{b-4}$ D) $\frac{2b}{4+b}$ E) $\frac{b}{4-b}$

Yechilishi: $\begin{cases} 5^a = 3 \\ 75^b = 81 \end{cases} => \begin{cases} a \lg 5 = \lg 3 \\ b \lg 3 \cdot 5^2 = \lg 3^4 \end{cases} => =>$

$\begin{cases} a = \frac{\lg 3}{\lg 5} \\ b = \frac{4 \lg 3}{\lg 3 + 2 \lg 5} \end{cases} => b \lg 3 + 2b \lg 5 = 4 \lg 3 =>$

$=> -b \lg 3 + 4 \lg 3 = 2b \lg 5 => \lg 3 = \frac{2b \lg 5}{4-b};$

$U\ holda\ \ a \lg 5 = \frac{2b}{4-b} \lg 5 => a = \frac{2b}{4-b}.$ Javobi: A.

7.5 ta sonning o'rta arifmetigi 13 ga teng. Shu sonlarga qaysi son qo'shilsa, ularning o'rta arifmatigi 19 ga teng bo'ladi?

A) 49 B) 40 C) 46 D) 54 E) 38

Yechilishi: $\begin{cases} \frac{a_1 + \cdots + a_5}{5} = 13 \\ \frac{a_1 + \cdots + a_5 + x}{6} = 19 \end{cases} =>$

$=> \begin{cases} a_1 + \cdots + a_5 = 65 \\ 65 + x = 6 \cdot 19 \end{cases} => x = 49.$ Javobi: A.

8.a soni $b^2 - 3$ bilan to'g'ri proporsional. $b = 5$ bo'lganda, $a = 88$ bo'lsa, $b = -3$ bo'lganda, a soni nechaga teng bo'ladi?

A) 24 B) 6 C) 18 D) 12 E) 36

Yechilishi: $a = t(b^2 - 3) => 88 = t\,(5^2 - 3) =>$

$=> t = 4 => a = 4((-3)^2 - 3) = 24.$ Javobi: A.

9. $mn^2 = 18$ va $m^2k = 20$ bo'lib, m, n va k natural sonlar bo'lsa, n ni toping.

A) 3 B) 2 C) 5 D) 4 E) 6

Yechilishi: $\begin{cases} mn^2 = 18 \\ m^2k = 20 \end{cases} =>$

$$\begin{cases} m = \frac{18}{n^2} => n = 1\ yoki\ 3 \\ m \cdot 1^2 = 18 => m = 18 \\ m \cdot 3^2 = 18 => m = 2 \end{cases} => \begin{cases} m = 2 \\ n = 3 \end{cases} => k = 5.$$

Javobi: A.

10. $\frac{\sqrt[3]{26-15\sqrt{3}}\cdot(2-\sqrt{3})}{7-4\sqrt{3}}$ ni soddalashtiring.

A) 1 B) $\frac{1}{3}$ C) $2-\sqrt{3}$ D) 2 E) 3

Yechilishi: 1) $\sqrt[3]{26-15\sqrt{3}}$ *dan quyidagi uslubda ildiz chiqariladi*:

$26 - 15\sqrt{3} = \left(a - b\sqrt{3}\right)^3 = a^3 - 3\sqrt{3}a^2b + 9ab^2 -$

$-3\sqrt{3}b^3 => \begin{cases} a^3 + 9ab^2 = 26; \\ -3\sqrt{3}a^2b - 3\sqrt{3}b^3 = -15\sqrt{3} \end{cases} =>$

$=> \begin{cases} a^3 + 9ab^2 = 26 \\ a^2b + b^3 = 5 \end{cases}$ *sistemaning natural yechim – lari* $a = 2,\ b = 1$ *lar topiladi.*

U holda $26 - 15\sqrt{3} = (2-\sqrt{3})^3.$

2) $\frac{\sqrt[3]{26-15\sqrt{3}}\cdot(2-\sqrt{3})}{7-4\sqrt{3}} = \frac{\sqrt[3]{(2-\sqrt{3})^3}(2-\sqrt{3})}{7-4\sqrt{3}} = 1.$ Javobi: A.

11.Agar $2a^2 + 2b^2 = 5ab$ va $b > a > 0$ bo'lsa, $\frac{a+b}{a-b}$ kasrning qiymati nechaga teng?

A) -3 B) 3 C) 2 D) 4 E) -2

Yechilishi: $2a^2 + 2b^2 = 5ab;\ \ b > a > 0 \Rightarrow$

$\Rightarrow a^2 + b^2 = 2{,}5 \cdot ab;$

$\frac{a+b}{a-b} = x \Rightarrow a + b = x(a - b) \Rightarrow$

$a^2 + 2ab + b^2 = x^2(a^2 - 2ab + b^2) \Rightarrow$

$4{,}5 \cdot ab = x^2 0{,}5 \cdot ab \Rightarrow x = \pm 3 \Rightarrow \begin{cases} x = -3 \\ x = 3 \end{cases} \Rightarrow$

$\Rightarrow a + b = -3\ (a - b) = a + b = -3a + 3b \Rightarrow$

$\Rightarrow 4a = 2b \Rightarrow b = 2a \Rightarrow b > a \Rightarrow x = -3.$

Javobi: A.

12.Agar $\sqrt{5} = m$ va $\sqrt{7} = n$ bo'lsa, $\sqrt{560}$ ni m va n orqali ifodalang.

A) $4mn$ B) $2mn$ C) $6mn$ D) $8mn$ E) $16mn$

Yechilishi: $m = \sqrt{5};\ \ n = \sqrt{7};\ \ m \cdot n = \sqrt{35};$

$\sqrt{560} = \sqrt{35 \cdot 16} = 4\sqrt{35} = 4mn.$ Javobi: A.

13.$xy = \frac{5}{12}$ va $36 < \frac{5}{y} < 84$ bo'lsa, x ning butun qiymatlari ko'paytmasini toping.

A) 120 B) 60 C) 90 D) 180 E) 210

Yechilishi: $x \cdot y = \frac{5}{12} \Rightarrow y = \frac{5}{12x};$

$36 < \frac{5}{y} < 84 \Rightarrow 36 < 5 : \frac{5}{12x} < 84 \Rightarrow$

$36 < 12x < 84 \Rightarrow 3 < x < 7 \Rightarrow x = 4;\ 5;\ 6 \Rightarrow$

$\Rightarrow 4 \cdot 5 \cdot 6 = 120.$ Javobi: A.

14.$x^3 - 3x^2 - 4x + 12$ ko'phad quyidagilarning qaysi biriga bo'linmaydi?

A) $x+3$ B) $x-3$ C) $x+2$

D) $x-2$ E) x^2-x-6

Yechilishi: $x^2(x-3)-4(x-3)=(x-3)(x^2-4)=$

$=(x-3)(x-2)(x+2)$. Javobi: A.

15.Massasi 36 kg bo'lgan mis va rux qotishmasining tarkibida 45% mis bor. Qotishma tarkibida 60% mis bo'lishi uchun unga yana necha kg mis qo'shish kerak?

A) 13,5 B) 14 C) 12 D) 15 E) 12,8

Yechilishi: $\begin{cases}36\cdot 0{,}45=16{,}2\ kg\ mis\\ 36\cdot 0{,}55=19{,}8\ kg\ rux\end{cases}=>$

$=>\begin{cases}36+x\to 100\%\\ 16{,}2+x\to 60\%\end{cases}=>x=13{,}5\ kg.$ Javobi: A.

16.a ning qanday qiymatida $x^2-(a-2)x-a-1=0$ tenglama ildizlari kvadratlarining yig'indisi eng kichik qiymatga ega bo'ladi?

A) 1 B) 2 C) $\frac{1}{2}$ D) 4 E) 3

Yechilishi:$x^2-(a-2)x-a-1=0$;

$\begin{cases}x_1+x_2=a-2\\ x_1\cdot x_2=-(a+1)\end{cases}=>(x_1+x_2)^2=(a-2)^2=>$

$=>x_1^2+x_2^2=(a-2)^2-2x_1\cdot x_2=a^2-4a+4+$

$+2(a+1)=a^2-4a+4+2a+2=a^2-2a+6=$

$=(a-1)^2+5=>a=1.$ Javobi: A.

17.$\frac{1}{x-2002}\le\frac{x}{x-2002}$ tengsizlikni yeching.

A) $(-\infty;1]\cup(2002;\infty)$ B) $(-\infty;1]$ C) $(2002;\infty)$

D) $[1;2002)$ E) $(-\infty;0)$

Yechilishi: $\frac{1}{x-2002}\le\frac{x}{x-2002}=>\frac{x}{x-2002}-\frac{1}{x-2002}\ge 0=>$

25. Geometrik progressiyaning birinchi hadi va maxraji 2 ga teng. Shu progressiyaning dastlabki nechta hadlari yig'indisi 1022 ga teng bo'ladi?

A) 5 B) 8 C) 9 D) 10 E) 11

Yechilishi: $b_1 = q = 2. \ S_n = \frac{b_1(q^n-1)}{q-1} =>$

$1022 = \frac{2(2^n-1)}{2-1} => 2^n = 512 \ => \ 2^n = 2^9 => \ n = 9.$

Javobi: C.

26. 7 ga bo'lganda, qoldig'i 2 ga teng bo'ladigan barcha ikki xonali sonlarning yig'indisini toping.

A) 640 B) 647 C) 650 D) 654 E) 700

Yechilishi: $a_1 = 16, a_n = 100 - 7 = 93.$

$Demak, 16, 23, 30, \dots, 93; \ 93 = 16 + 7(n-1) =>$

$\Rightarrow n = 12 \Rightarrow S_{12} = \frac{16+93}{2} \cdot 12 = 654.$ Javobi: D.

27. $\frac{\sin 106^\circ - \sin 14^\circ}{1 - 2\cos^2 22^\circ}$ ni hisoblang.

A) 1 B) $\frac{1}{2}$ C) $\frac{\sqrt{3}}{2}$ D) $-\frac{1}{2}$ E) -1

Yechilishi: $\frac{\sin 106^\circ - \sin 14^\circ}{1 - 2\cos^2 22^\circ} = \frac{2\cos 60^\circ \sin 46^\circ}{-\cos 44^\circ} =$

$= \frac{\sin(90-44)}{-\cos 44^\circ} = -1.$ Javobi: E.

28. $\frac{1 - \sin^2\frac{\alpha}{8} - \cos^2\alpha - \sin^2\alpha}{4\sin^4\frac{\alpha}{16}}$ ni soddalashtiring.

A) $\operatorname{tg}^2\frac{\alpha}{16}$ B) 1 C) -1 D) $\operatorname{ctg}^2\frac{\alpha}{16}$ E) $-\operatorname{ctg}^2\frac{\alpha}{16}$

Yechilishi: $\frac{1 - \sin^2\frac{\alpha}{8} - (\cos^2\alpha + \sin^2\alpha)}{4\sin^4\frac{\alpha}{16}} = \frac{-\left(\sin 2\cdot\frac{\alpha}{16}\right)^2}{4\sin^4\frac{\alpha}{16}} =$

$= \frac{-\left(2\sin\frac{\alpha}{16}\cos\frac{\alpha}{16}\right)^2}{4\sin^4\frac{\alpha}{16}} = -\frac{4\sin^2\frac{\alpha}{16}\cos^2\frac{\alpha}{16}}{4\sin^4\frac{\alpha}{16}} = -\operatorname{ctg}^2\frac{\alpha}{16}.$ Javobi: E.

29. Agar $\alpha - \beta = \frac{\pi}{2}$ bo'lsa, $\frac{\sin\alpha - \sin\beta}{\cos\alpha + \cos\beta}$ ning qiymatini toping.

A) $\frac{1}{2}$ B) $\sqrt{2}$ C) $\frac{\sqrt{2}}{2}$ D) 1 E) 2

Yechilishi: $\alpha = \frac{\pi}{2} + \beta;$ $\frac{\sin\alpha - \sin\beta}{\cos\alpha + \cos\beta} = \frac{\sin\left(\frac{\pi}{2}+\beta\right) - \sin\beta}{\cos\left(\frac{\pi}{2}+\beta\right) + \cos\beta} =$

$= \frac{\cos\beta - \sin\beta}{\cos\beta - \sin\beta} = 1.$ Javobi: B.

30. $\cos 55^\circ \cdot \cos 65^\circ \cdot \cos 175^\circ$ ni hisoblang.

A) $-\frac{1}{8}$ B) $-\frac{\sqrt{3}}{8}$ C) $\frac{\sqrt{3}}{8}$

D) $-\frac{1}{8}\sqrt{2-\sqrt{3}}$ E) $-\frac{1}{8}\sqrt{2+\sqrt{3}}$

Yechilishi: $\cos 55^\circ \cdot \cos 65^\circ \cdot \cos 175^\circ =$

$= \cos 55^\circ \cdot \frac{1}{2}[\cos 110^\circ + \cos 240^\circ] = \frac{1}{2}\cos 55^\circ \cdot$

$\cdot\left[\cos 110^\circ - \frac{1}{2}\right] = \frac{1}{2}\cos 110^\circ \cos 55^\circ - \frac{1}{4}\cos 55^\circ =$

$= \frac{1}{2}\cdot\frac{1}{2}[\cos 55^\circ + \cos 165^\circ] - \frac{1}{4}\cos 55^\circ =$

$= \frac{1}{4}\cos(180 - 15^\circ) = -\frac{1}{4}\cos 15^\circ =$

$= -\frac{1}{4}\cdot\sqrt{\frac{1}{2}(1+\cos 30^\circ)} = -\frac{1}{4}\sqrt{\frac{1}{2}\left(1+\frac{\sqrt{3}}{2}\right)} =$

$= -\frac{1}{4}\cdot\sqrt{\frac{1}{2}\cdot\frac{2+\sqrt{3}}{2}} = -\frac{1}{8}\sqrt{2+\sqrt{3}}.$ Javobi: E

31. Agar $tg\frac{\alpha}{2} = -2$ bo'lsa, $\sin\alpha + 2\cos\alpha$ ning qiymatini hisoblang.

A) $\frac{1}{2}$ B) $-\frac{1}{2}$ C) -2 D) $\frac{4}{5}$ E) $-\frac{4}{5}$

Yechilishi: $tg\frac{\alpha}{2} = -2;\ \sin\alpha + 2\cos\alpha = \frac{2tg\frac{\alpha}{2}}{1+\mathrm{tg}^2\frac{\alpha}{2}} +$

$+2\cdot\frac{1-\mathrm{tg}^2\frac{\alpha}{2}}{1+\mathrm{tg}^2\frac{\alpha}{2}} = \frac{2\cdot(-2)}{1+(-2)^2} + 2\cdot\frac{1-(-2)^2}{1+(-2)^2} = -\frac{4}{5} + 2\cdot\ -\frac{3}{5} =$

$= -\frac{4}{5} - \frac{6}{5} = \frac{-4-6}{5} = -2.$ Javobi: C.

32. $ctgx + \frac{\sin x}{1+\cos x} = 2\ \left(-180^\circ < x < 180^\circ\right)$ tenglamaning ildizlari yig'indisini toping.

A) 150° B) 240° C) 135° D) 180° E) -150°

Yechilishi: $ctgx + \frac{\sin x}{1+\cos x} = 2\ \left(-180^\circ < x < 180^\circ\right);$

$\sin \neq 0;\ 1+\cos x \neq 0\ \Rightarrow\ \cos x \neq -1;$

$\cos x + \cos^2 x + \sin^2 x = 2\sin x\,(1+\cos x);$

$\cos x + 1 = 2\sin x + 2\sin x\cos x\,;$

$\cos x + \cos^2 x + \sin^2 x = 2\sin x\,(1+\cos x);$

$\cos x + 1 = 2\sin x\,(1+\cos x);$

$2\sin x\,(1+\cos x) - 1 - \cos x = 0;$

$2\sin x\,(1+\cos x)-(1+\cos x)=0;$

$(1+\cos x)(2\sin x-1)=0 \Rightarrow$

$\Rightarrow \begin{cases} \cos x \neq -1; \\ \sin x=\frac{1}{2} \Rightarrow x=(-1)^k\frac{\pi}{6}+\pi k,\ k\in Z. \end{cases}$

$k=0 \Rightarrow x_1=\frac{\pi}{6};\quad k=1 \Rightarrow x_2=150^\circ.$

$x_1+x_2=180^\circ.$ Javobi: D.

33. $\sin x\cdot tgx-2\sin x+tgx=2\ (-\pi\le x\le\pi)$ tenglamaning ildizlari nechta?

A) 0 B) 1 C) 2 D) 3 E) 4

Yechilishi: $\sin x\cdot tgx-2\sin x+tgx=2(-\pi\le x\le\pi);$

$\sin x\cdot tgx+tgx-2\sin x-2=0;$

$tgx(\sin x+1)-2(\sin x+1)=0;$

$(\sin x+1)(tgx-2)=0 \Rightarrow \begin{cases}\sin x=-1\\ tgx=2\end{cases} \Rightarrow$

$\Rightarrow \begin{cases} x=-\frac{\pi}{2}+2\pi k \\ x=arctg2+\pi k \end{cases} \Rightarrow$

$\Rightarrow k=-1 \begin{cases} x=-\frac{5\pi}{2}=-450°; \\ x=63{,}5^\circ-180=116{,}5°. \end{cases}$

$k=0 \Rightarrow \begin{cases} x=-\frac{\pi}{2}=-90° \\ x=arctg2=63{,}5° \end{cases} \Rightarrow 3\ ta.$ Javobi: D.

34. $\sqrt{\log_{\frac{1}{4}}(x-1)+1}\cdot(\cos^2 2x-\sin^2 2x-1)=0$ tenglamaning ildizlari nechta?

A) $\emptyset$ B) 2 C) 3 D) 4 E) $cheksiz\ ko'p$

Yechilishi:

$\sqrt{\log_{\frac{1}{4}}(x-1)+1}\cdot(\cos^2 2x-\sin^2 2x-1)=0 \Rightarrow$

$$\Rightarrow \begin{cases} \sqrt{\log_{\frac{1}{4}}(x-1)+1}=0; \\ \cos^2 2x-\sin^2 2x-1=0; \end{cases}$$

$$1)\ \begin{cases} \log_{\frac{1}{4}}(x-1)+1\geq 0 \\ x-1>0 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} \log_{\frac{1}{4}}(x-1)\geq -1 \\ x>1 \end{cases} \Rightarrow$$

$$\Rightarrow \begin{cases} x-1\leq 4 \\ x>1 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} x\leq 5 \\ x>1 \end{cases} \Rightarrow\ 1<x\leq 5;$$

$2)\ \cos 4x=1 \Rightarrow 4x=2\pi k \Rightarrow x=\frac{\pi}{2}k.$

$k=1 \Rightarrow x\approx 1{,}57;$

$k=2 \Rightarrow\ \ x=3{,}14;$

$k=3 \Rightarrow\ \ x=4{,}71;\quad x=5.$ Javobi: D.

35. $tg\left(\arcsin\left(-\frac{1}{3}\right)+\frac{\pi}{2}\right)$ ning qiymatini toping.

A) $\frac{\sqrt{2}}{4}$ B) $-\frac{\sqrt{2}}{4}$ C) $2\sqrt{2}$ D) $-2\sqrt{2}$ E) $\frac{\sqrt{3}}{4}$

Yechilishi: $tg\left(\arcsin\left(-\frac{1}{3}\right)+\frac{\pi}{2}\right)=tg\left(\frac{\pi}{2}-\arcsin\frac{1}{3}\right)=$

$$=ctg\arcsin\frac{1}{3}=\frac{\cos\arcsin\frac{1}{3}}{\sin\arcsin\frac{1}{3}}=\frac{\sqrt{1-\frac{1}{9}}}{\frac{1}{3}}=3\cdot\sqrt{\frac{8}{9}}=2\sqrt{2}.$$

Javobi: C.

36. Agar $|\vec{a}|=7, \left|\vec{b}\right|=17$ va $\left|\vec{a}-\vec{b}\right|=3\sqrt{35}$ bo'lsa, $\left|\vec{a}+\vec{b}\right|$ ning qiymatini toping.

A) 19 B) 20 C) $8\sqrt{3}$ D) $9\sqrt{2}$ E) $4\sqrt{6}$

Yechilishi: $\left|\vec{a}-\vec{b}\right|^2=\left(3\sqrt{35}\right)^2 \Rightarrow$

$\Rightarrow |\vec{a}|^2+\left|\vec{b}\right|^2-2\vec{a}\vec{b}=315 \Rightarrow 2\vec{a}\vec{b}=7^2+17^2-$

$-315=23;\ \left|\vec{a}+\vec{b}\right|^2=|\vec{a}|^2+\left|\vec{b}\right|^2+2\vec{a}\vec{b}=$

$=49+289+23=361\ \Rightarrow\ \left|\vec{a}+\vec{b}\right|=19.$ Javobi: A.

37. $\vec{a}(-3;\ 2;\ -4)$ va $\vec{b}(4;3;\ -2)$ lar teng yonli uchburchakning $C(-6;4;3)$ uchidan tushirilgan vektorlar. Shu uchburchakning C uchidan CD balandlik tushirilgan. D nuqtaning koordinatalari yig'indisini toping.

A) -1 B) 1 C) -2,5 D) 2,5 E) 3

Yechilishi: $C(-6;4;3); A(x_1;\ y_1; z_1);\ B(x_2;\ y_2; z_3)$

$\overrightarrow{CA} = \{x_1 + 6;\ y_1 - 4; z_1 - 3\};\ \ \overrightarrow{CA} = \vec{a}\ =>$

$$=> \begin{cases} x_1 + 6 = -3 \\ y_1 - 4 = 2 \\ z_1 - 3 = -4 \end{cases} => \ A(-9;6;\ -1);$$

$\overrightarrow{CB} = \{x_2 + 6;\ y_2 - 4; z_3 - 3\};\ \overrightarrow{CB} = \vec{b}\ =>$

$$=> \begin{cases} x_2 + 6 = 4 \\ y_2 - 4 = 3 \\ z_2 - 3 = -2 \end{cases} =>$$

$=> \ B(-2;7;1);\ AD = DB\ dan$

$x = \frac{-9-2}{2} = -\frac{11}{2};\ \ y = \frac{6+7}{2} = \frac{13}{2};$

$z = \frac{-1+1}{2} = 0; D\left(-\frac{11}{2}; \frac{13}{2}; 0\right).$

$U\ holda\ x + y + z =$

$= -\frac{11}{2} + \frac{13}{2} + 0 = 1.$ Javobi: B.



38. $\overrightarrow{AB}(-3;1;4), \overrightarrow{BC}(-2;\ 3;\ -7)$ va $\overrightarrow{CD}(5;\ -1;3)$ lar $ABCD$ to'rtburchakning tomonlari bo'lsa, shu to'rtburchakning diagonallaridan iborat vektorlar skalyar ko'paytmasining modulini toping.

A) 5 B) 9 C) 12 D) 2 E) 16

Yechilishi: $\overrightarrow{AB}\{-3;1;4\};$

$\overrightarrow{BC}\{-2;\ 3;\ -7\};\ \overrightarrow{CD}\{5;\ -1;3\};$

$\overrightarrow{AC} = \overrightarrow{AB} + \overrightarrow{BC} = \{-5;4;\ -3\};$



$\overrightarrow{BD} = \vec{B}C + \vec{C}D = \{3; 2; -4\};$

$\overrightarrow{AC} \cdot \overrightarrow{BD} = -15 + 8 + 12 = 5.$ Javobi: A.

39. Koordinatalari butun sonlardan iborat nechta nuqta uchlari $A(-1{,}5;\ -0{,}5), B(-1{,}5; 2{,}5), C(1{,}5; 2{,}5)$ va $D(1{,}5;\ -0{,}5)$ nuqtalarda bo'lgan to'g'ri to'rtburchakning ichida yotadi?

A) 15 B) 12 C) 9
D) 8 E) 6



Yechilishi: 9ta.
Javobi: C.

40. Nechta butun son $f(x) = \sqrt{\log_{0,5}(x-2)+2}$ funksiyaning aniqlanish sohasiga tegishli?

A) $\emptyset$ B) 1 C) 3 D) 4 E) 5

Yechilishi: $f(x) = \sqrt{\log_{0,5}(x-2)+2}$

1) $\begin{cases} x-2>0 \\ \log_{0,5}(x-2)+2 \geq 0 \end{cases} => \begin{cases} x>2; \\ \log_{0,5}(x-2) \geq -2 \end{cases} =>$

$=> x-2 \leq \left(\frac{1}{2}\right)^{-2} => x-2 \leq 4 => x \leq 6 =>$

$=> 2 < x \leq 6.$ Javobi: D.

41. $y = 4\cos 2x - 6\sin 2x + 5$ funksiyaning qiymatlar sohasiga tegishli tub sonlar nechta?

A) 2 B) 4 C) 5 D) 6 E) 7

Yechilishi: $y = 4\cos 2x - 6\sin 2x + 5.$

$y' = -8\sin 2x - 12\cos 2x => -8\sin 2x = 12\cos 2x;$

$tg2x = -\frac{3}{2} => 2x = arctg\left(-\frac{3}{2}\right) => 2x = -arctg\frac{3}{2};$

$y = 4 \cdot \cos\left(-arctg\frac{3}{2}\right) - 6 \cdot \sin\left(-arctg\frac{3}{2}\right) + 5 =$

$= \frac{4}{\sqrt{1+\frac{9}{4}}} + \frac{6\cdot\frac{3}{2}}{\sqrt{1+\frac{9}{4}}} + 5 = \frac{8}{\sqrt{13}} + \frac{18}{\sqrt{13}} + 5 = 2\sqrt{13} + 5 \approx$

$\approx 12,21 \ldots \Rightarrow \quad x = 2,3,5,7,11.$ Javobi: C.

42. Agar $f(x+1) = 3 - 2x$ va $f\big(\varphi(x)\big) = 6x - 3$ bo'lsa, $\varphi(x)$ funksiyani aniqlang.

A) $4 - 3x$ B) $3x - 4$ C) $4x + 3$

D) $4x - 3$ E) $6x - 8$

Yechilishi: $f(x+1) = 3 - 2x;\ f\big(\varphi(x)\big) = 6x - 3;$

$\varphi(x) = ?\ f(x)\ ni\ topish\ uchun\ x\ ning\ o'rniga\ x - 1$

$qo'yamiz: f(x+1-1) = 3 - 2(x-1) = 3 - 2x +$

$+2 = 5 - 2x;\ f(x) = 5 - 2x \Rightarrow f\big(\varphi(x)\big) = 5 -$

$-2\varphi(x) \Rightarrow 6x - 3 = 5 - 2\varphi(x) \Rightarrow 2\varphi(x) = 8 -$

$-6x \Rightarrow \varphi(x) = 4 - 3x.$ Javobi: A.

43. Agar $f(x) = \frac{\ln 2x}{x}$ bo'lsa, $f'(1)$ ni hisoblang.

A) $\frac{2}{e}$ B) $\ln 2$ C) $\frac{\ln 2}{e^2}$ D) $\ln 2 - 1$ E) $1 - \ln 2$

Yechilishi: $f(x) = \frac{\ln 2x}{x} \Rightarrow \quad f'(x) = \frac{\frac{1}{2x}\cdot(2x)'\cdot x - \ln 2x\cdot x'}{x^2} =$

$= \frac{1-\ln 2x}{x^2} \Rightarrow f'(x) = 1 - \ln 2.$ Javobi: E.

44. $A(1;4)$ nuqtadan $y = -2 - \frac{2}{x}$ funksiyaning grafigiga ikkita urinma o'tkazilgan. Urinish nuqtalari absissalarining yig'indisini toping.

A) -1 B) 1 C) $\frac{1}{3}$ D) $\frac{2}{3}$ E) $-\frac{2}{3}$

Yechilishi: $\boxed{y - y_0 = f'(x_0)(x - x_0)}$

1) $y = -2 - \frac{2}{x} \Rightarrow\ y_0 = -2 - \frac{2}{x_0^2}$

$y' = \frac{2}{x^2} \Rightarrow \quad y'(x_0) = \frac{2}{x^2};$

2) $4-\left(-2-\frac{2}{x_0}\right)=\frac{2}{x_0^2}(1-x_0) \Rightarrow\ x_0\neq 0;$

$6x_0^2+4x_0-2=0 \Rightarrow\ 3x_0^2+2x_0-1=0 \Rightarrow$

$\Rightarrow \begin{cases} x_{0_1}=-1 \\ x_{0_2}=\frac{1}{3} \end{cases} \Rightarrow\ x_{0_1}+x_{0_2}=-\frac{2}{3}.$ Javobi: E.

45. Agar $f'(x)=x(1-x)(x^2-7x+10)$ bo'lsa, $y=f(x)$ funksiyaning o'sish oraliqlari uzunliklari yig'indisini toping.

A) 1 B) 3 C) 4 D) 6 E) 8

Yechilishi:

$$f'(x)=x(1-x)(x^2-7x+10)\geq 0 \Rightarrow \begin{cases} x=0; \\ x=1; \\ x=2; \\ x=5. \end{cases}$$



Javobi: C.

46. $f(x)=0{,}6x^5-2x^3-1$ funksiyaning maksimum va minimum nuqtalaridagi qiymatlari yig'indisini toping.

A) -3 B) -2 C) -1 D) 1 E) 2

Yechilishi: $f(x)=0{,}6x^5-2x^3-1 \Rightarrow$

$f'(x)=3x^4-6x^2 \Rightarrow \begin{cases} x^2=0 \\ x^2=2 \end{cases} \Rightarrow$

$\Rightarrow \begin{cases} x_1=-\sqrt{2}; \\ x_2=0; \\ x_3=\sqrt{2}. \end{cases}$



$f\left(-\sqrt{2}\right)=1{,}6\sqrt{2}-1;\ \ f\left(\sqrt{2}\right)=-1{,}6-1 \Rightarrow$

$\Rightarrow f\left(-\sqrt{2}\right)+f\left(\sqrt{2}\right)=-2.$ Javobi: B.

47. $f(x)=\frac{4}{\sqrt{x^2+16}}$ $(-3\le x\le 3)$ funksiyaning eng kichik va eng katta qiymatlari ayirmasini toping.

A) -0,2 B) 0,2 C) 0,4 D) -0,8 E) 0,8

Yechilishi: $f(x)=\frac{4}{\sqrt{x^2+16}}$ $(-3\le x\le 3)\Rightarrow$

$\Rightarrow f'(x)=\frac{4x}{(x^2+16)\sqrt{x^2+16}}\Rightarrow 4x=0\Rightarrow x=0\Rightarrow$

$\Rightarrow \begin{cases} x=0 \\ x=\pm 3 \end{cases}\Rightarrow$ $f(\pm 3)=\frac{4}{5};\ f(0)=1\Rightarrow$

$\Rightarrow \frac{4}{5}-1=-0{,}2.$ Javobi: A.

48. $f(x)=x-1-\operatorname{ctg}^2 x$ funksiyaning boshlang'ich funksiyasini toping.

A) $\frac{x^2}{2}-ctgx+C$ B) $\frac{x^2}{2}+ctgx+C$

C) $\frac{x^2}{2}-tgx+C$ D) $\frac{x^2}{2}+tgx+C$ E) $x^2+ctgx+C$

Yechilishi: $f(x)=x-1-\operatorname{ctg}^2 x=x-(1+\operatorname{ctg}^2 x)=$

$=x-\frac{1}{\sin^2 x};\ F(x)=\frac{x^2}{2}+ctgx+C.$ Javobi: B.

49. $\int_4^9\left(\frac{2x}{5}+\frac{1}{2\sqrt{x}}\right)dx$ ni hisoblang.

A) 5 B) 8 C) 10 D) 12 E) 14

Yechilishi: $\int_4^9\left(\frac{2x}{5}+\frac{1}{2\sqrt{x}}\right)dx=\frac{2}{5}\cdot\frac{x^2}{2}\int_4^9+\frac{1}{2}\int_4^9 x^{-\frac{1}{2}}dx=$

$=\frac{1}{5}[9^2-4^2]+\frac{1}{2}\cdot\frac{x^{-\frac{1}{2}+1}}{-\frac{1}{2}+1}\int_4^9=13+1=14.$ Javobi: E.

50. $y=4-x^2, y=-4x+8$ chiziqlar va Oy o'qi bilan chegaralangan shaklning yuzini toping.

A) 1,5 B) 2 C) $2\frac{2}{3}$ D) 3 E) $3\frac{1}{3}$



Yechilishi: $\begin{cases} y = 4 - x^2; \\ y = -4x + 8; \\ x = 0. \end{cases}$

$S = \int_0^2 [-4x + 8 - 4 + x^2]\, dx =$

$= \int_0^2 (x^2 - 4x + 4)\, dx =$

$= \left(\frac{1}{3}x^3 - 2x^2 + 4x\right)|_0^2 = \frac{8}{3} - 8 + 8 =$

$= 2\frac{2}{3}$. Javobi: C.

51. $ABCD(BC \parallel AD)$ trapetsiyaning diagonallari O nuqtada kesishadi. Agar $BO = 2, DO = 4$ va BOC uchburchakning yuzi 6 ga teng bo'lsa, shu trapetsiyaning yuzini toping.

A) 42 B) 48 C) 52 D) 54 E) 60

Yechilishi: $\triangle AOD \backsim \triangle BOC$ *dan foydalaniladi*:

$\frac{AD}{BC} = \frac{4}{2} => AD = 2BC;$

$\frac{h_1}{h_2} = 2 => h_1 = 2 \cdot h_2;$

$6 = \frac{1}{2} \cdot BC \cdot h_2 =>$

$=> h_2 = \frac{12}{BC} => h_1 = \frac{24}{BC} =>$

$=> h = h_1 + h_2 = \frac{36}{BC};$



$S = \frac{2BC+BC}{2} \cdot \frac{36}{BC} = 54$. Javobi: D.

52. To'g'ri burchakli uchburchakka ichki chizilgan aylananing urinish nuqtasi gepotenuzani 2:3 nisbatda bo'ladi. To'g'ri burchak uchidan aylananing markazigacha bo'lgan masofa $2\sqrt{2}$ ga teng. Berilgan uchburchakning yuzini toping.

A) 12 B) 16 C) 18 D) 20 E) 24

Yechilishi: $(5x)^2 = (2 + 2x)^2 + (2 + 3x)^2 =>$

$=> x = 2;$

$S = \frac{1}{2} \cdot (2 + 2x)(2 + 3x) = 24.$



Javobi: E.

53. ABC uchburchakda $AB = 13, BC = 2$ va $\sin B = \frac{5}{13}$. Agar B burchak o'tmas burchak bo'lsa, AC tomonning uzunligini toping.

A) $5\sqrt{5}$ B) $\sqrt{193}$ C) $\sqrt{153}$ D) 15 E) $\sqrt{221}$

Yechilishi: $\angle B + \angle A + \angle C = 180^{\circ};$



$\angle B = 180 - (\angle A + \angle C);$

$\cos \angle B = -\cos(\angle A + \angle C);$

$\sin \angle B = \sin(\angle A + \angle C) = \frac{5}{13};$

$\angle B = \arcsin \frac{5}{13};$

$AC^2 = 13^2 + 2^2 - 2 \cdot 13 \cdot 2(-\cos \angle B) = 169 + 4 +$

$+52 \cos \arcsin \frac{5}{13} = 173 + 52 \cdot \sqrt{1 - \frac{25}{169}} =$

$= 173 + 52 \cdot \frac{12}{13} = 221 \Rightarrow AC = \sqrt{221}.$ Javobi: E.

54. Uchburchakning ikkita burchagi 45° dan, unga tashqi chizilgan aylananing radiusi $\sqrt{8}$ ga teng. Shu uchburchaklarning perimetrini toping.

A) $2 + \sqrt{2}$ B) $2 \cdot (2 + \sqrt{2})$ C) $3 \cdot (2 + \sqrt{2})$

D) $4 \cdot (2 + \sqrt{2})$ E) $6 \cdot (2 + \sqrt{2})$



Yechilishi: $R = \sqrt{8} = 2\sqrt{2}.$

$P = 4 + 4 + 4\sqrt{2} = 4\left(2 + \sqrt{2}\right).$

Javobi: D.

55. Sfera sirtidagi uchta nuqta orasidagi masofa 26, 24 va 10 ga, sfera sirtining yuzi esa 900π ga teng. Shu uchta nuqta orqali o'tgan tekislikdan sferaning markazigacha bo'lgan masofani toping

A) $2\pi\sqrt{14}$ B) $2\sqrt{14}$ C) $4\sqrt{14}$ D) 56π E) 56

Yechilishi: $AC = 26;\ BC = 24;\ AB = 10;\ S = 900\pi;$
$OA = OB = OC = R;\ CD = r;\ OD =?$





$p = \frac{26+24+10}{2} = 30 => S = \sqrt{30 \cdot 20 \cdot 4 \cdot 6} =$
$= \sqrt{5 \cdot 6 \cdot 4 \cdot 5 \cdot 4 \cdot 6} = 4 \cdot 5 \cdot 6 = 120;\ r = \frac{10 \cdot 26 \cdot 24}{4 \cdot 120} = 13;$
$900\pi = 4\pi R^2 => R = 15 =>\ OD^2 = R^2 - r^2 =$
$= 225 - 169 = 56 => OD = \sqrt{4 \cdot 14} = 2\sqrt{14}.$

Javobi: B.

56. Sferaga balandligi asosining deametriga teng bo'lgan konus ichki chizilgan. Agar sfera sirtining yuzi 125 ga teng bo'lsa, konus asosining yuzini toping.

A) 10 B) 10π C) 15 D) 20 E) 20π

Yechilishi: $4\pi R^2 = 125 => R = \frac{5\sqrt{5}}{2\sqrt{\pi}}.$

$R^2 = (2r - R)^2 + r^2\ =>$
$=> R^2 = 4r^2 - 4r \cdot R + R^2 + r^2 =>$



$$=>\ 5r^2 = 4 \cdot r \cdot \frac{5\sqrt{5}}{2\sqrt{\pi}} =>$$

$$=>\ r = \frac{2\sqrt{5}}{\sqrt{\pi}}\ =>\ \ S = \pi r^2 = 20.$$

Javobi: D.

57. Teng yonli uchburchakning tomonlari 10 va 22 ga teng. Shu uchburchak o'zining simmetriya o'qi atrofida aylantirilganda hosil bo'lgan aylanish jismining to'la sirtini toping.

A) 105π B) 125π C) 135π D) 150π E) 160π

Yechilishi:





$S_T = \pi Rl + \pi R^2 = \pi \cdot 11 \cdot 10 + \pi \cdot 11^2 = 110\pi + 121\pi = 231\pi$. $S_T = \pi \cdot 5 \cdot 22 + \pi \cdot 5^2 = 135\pi$. Javobi: C.

58. Konus o'q kesimining ikki tomoni 4 va 9 ga teng. Shu konusning yon sirtini toping.

A) 12π B) 16π C) 18π D) 24π E) 36π

Yechilishi:



$S_{yon} = \pi Rl = \pi \cdot 2 \cdot 9 = 18\pi$.

Javobi: C.

59. Diagonallari 14 ta bo'lgan qavariq ko'pburchakning nechta tomoni bor?

A) 5 B) 6 C) 7 D) 8 E) 10

Yechilishi:

$$14 = \frac{n(n-3)}{2} \Rightarrow \; n^2 - 3n - 28 = 0 \Rightarrow \; n = 7.$$

Javobi: C.

60. Muntazam to'rtburchakli kesik piramidaning balandligi 16 ga, asoslarining tomonlari 24 va 40 ga teng. Kesik piramidaning diagonallarini toping.

A) 48 B) 24 C) 36 D) 40 E) 27

Yechilishi:





$d^2 = 16^2 + (32\sqrt{2})^2 = 256 + 2048 = 2304;$

$d = 48.$ Javobi: A.

61. $x^2 + y^2 - 4x - 6y - 12 = 0$ formula bilan berilgan chiziqning uzunligini toping.

A) 10π B) 5π C) 8π D) 12π E) 25π

Yechilishi: $x^2 - 4x + 2^2 - 2^2 + y^2 - 6y + 3^2 - 3^2 - -12 = 0 \Rightarrow (x-2)^2 + (y-3)^2 = 5^2;\; l = 2\pi R = 10\pi.$

Javobi: A.

62. Teng yonli trapetsiyaning yon tomoni 5 ga, diagonali esa o'rta chizig'ini 3 va 7 ga teng bo'lgan kesmalarga ajratadi. Trapetsiyaning yuzini toping.

A) 30 B) 40 C) 45

D) 25 E) 50



Yechilishi: $Trapetsiyaning\ o'rta\ chizig'i\ hosil\ bo'lgan\ uchbur-chaklarning\ ham\ o'rta\ chiziq -$

lari bo'ladi. Bulardan foydalanib trapetsiyaning kichik asosi 6, *katta asosi* 14 *ekanligi topiladi. Misr uchburchagi – dan trapetsiyaning balandligi kelib chiqadi.*

$h = 3 => S = \frac{14+6}{2} \cdot 3 = 30.$ Javobi: A.

63. Konus hajmining π ga nisbati 9 ga teng bo'lib, uning yasovchisi asos tekisligi bilan 45° li burchak tashkil qiladi. Konusning balandligini toping.

A) 3 B) 2 C) $\sqrt{3}$ D) 1,5 E) $\sqrt{5}$



Yechilishi: $\frac{V_k}{\pi} = 9 => V_k = 9\pi;$

$9\pi = \frac{1}{3}\pi R^2 \cdot R => R = 3 => h = 3.$

Javobi: A.

64. Balandligi H ga teng silind o'z o'qiga parallel va undan d masofada bo'lgan tekislik bilan kesilgan. Tekislik asos aylanasidan α ga teng yonni ajratadi. Kesimning yuzini toping.

A) $2Hdtg\frac{\alpha}{2}$ B) $Hdsin\alpha$ C) $2dHcos\alpha$

D) $Hdsin\frac{\alpha}{2}$ E) $2Hdsin\frac{\alpha}{2}$





Yechilishi: $\frac{a}{2} : d = tg\frac{\alpha}{2} => a = 2dtg\frac{a}{2};\ S = aH = 2 \cdot H \cdot d \cdot tg\frac{\alpha}{2}.$ Javobi: A.

65. Uchburchakli muntazam piramida asosining tomoni 10 ga teng. Yon yog'i asos tekisligi bilan 45° li burchak hosil qiladi. Piramidaning balandligini toping.

A) $\frac{5}{\sqrt{3}}$ B) $5\sqrt{3}$ C) $4\sqrt{3}$ D) $5\sqrt{2}$ E) $4\sqrt{2}$



Yechilishi: $r = \frac{10\sqrt{3}}{6} = \frac{5\sqrt{3}}{3}$;

$H : r = tg45^\circ => H = \frac{5\sqrt{3}}{\sqrt{3}\sqrt{3}} =>$

$=> H = \frac{5}{\sqrt{3}}$. Javobi: A.

66. Tomonining uzunligi $4\sqrt[4]{3}$ bo'lgan muntazam uchburchakning yuzini yoping.

A) 12 B) 16 C) $24\sqrt{3}$ D) $12\sqrt{3}$ E) $8\sqrt{3}$



Yechilishi: $S = \frac{a^2 \cdot \sqrt{3}}{4} = \frac{\left(4\sqrt[4]{3}\right)^2 \cdot \sqrt{3}}{4} =$

$= \frac{16 \cdot \sqrt{3} \cdot \sqrt{3}}{4} = 12$. Javobi: A.

10-axborotnoma

1. $2001 \cdot 2004 - 2002 \cdot 2003$ ni hisoblang.

A) -2 B) 2 C) 0 D) 2000 E) 4

Yechilishi: $2001 \cdot 2004 - 2002 \cdot 2003 = (2002 - 1) \cdot$

$\cdot (2003 + 1) - 2002 \cdot 2003 = 2002 \cdot 2003 + 2002 -$

$-2003 - 1 - 2002 \cdot 2003 = -2.$ Javobi: A.

2. $1 \cdot 4 + 2 \cdot 6 + 3 \cdot 8 + \cdots + 10 \cdot 22$ yig'indining har bir hadidagi ikkinchi ko'paytuvchi 3 ta kamaytirilsa, yig'indi qanchaga kamayadi?

A) 165 B) 30 C) 15 D) 30 E) 16

Yechilishi: $-\dfrac{1 \cdot 4 + 2 \cdot 6 + 3 \cdot 8 + \cdots + 10 \cdot 22}{1 \cdot 1 + 2 \cdot 3 + 3 \cdot 5 + \cdots + 10 \cdot 19} =>$

$=> 3 + 6 + 9 + \cdots + 30 = 165.$ Javobi: A.

3. $\frac{0,07}{0,21} + \frac{0,4}{0,06} + \frac{0,9}{0,05}$ ifodaning qiymatini toping.

A) 25 B) 20 C) 15 D) 30 E) 16

Yechilishi: $\frac{0,07}{0,21} + \frac{0,4}{0,06} + \frac{0,9}{0,05} = \frac{7}{21} + \frac{40}{6} + \frac{90}{5} = 25.$

Javobi: A.

4. Orasidagi masofa 384 km bo'lgan ikki mashina bir vaqtda bir tomonga harakat qilmoqda. 12 soatdan keyin orqadagi mashina oldingi mashinaga yetib oldi. Keyingi mashinaning tezligi oldindagi mashinaning tezligidan qancha ortiq?

A) 32 B) 16 C) 28 D) 30 E) 42

Yechilishi:

$-\begin{matrix} 12v_1 = 384 + x \\ 12v_2 = x \end{matrix} =>$



$=> v_1 - v_2 = 32.$ Javobi: A.

5. Sinfdagi qizlar sonining o'g'il bolalar soniga nisbati $\frac{5}{7}$ bo'lsa, sinfdagi barcha o'quvchilar soni quyidagilarning qaysi biriga teng bo'lishi mumkin?

A) 36 B) 34 C) 32 D) 30 E) 28

Yechilishi: $5x + 7x = 36 => 12x = 36.$ Javobi: A.

6. Eritma tarkibida 60 g tuz bor. Unga 400 g toza suv qo'shilsa, tuzning konsentratsiyasi 1,5 marta kamayadi. Dastlabki eritma necha gramm bo'lgan?

A) 800 B) 840 C) 780 D) 900 E) 640

Yechilishi:

$$\begin{matrix} e \to 100\% \\ 60 \to x\% \end{matrix} => x = \frac{1}{e} \cdot 60 \cdot 100;$$

$$\begin{matrix} e + 400 \to 100\% \\ 60 \to \frac{x}{1{,}5}\% \end{matrix} => x = \frac{1{,}5}{э+400} \cdot 60 \cdot 100 =>$$

$=> x => 800..$ Javobi: A.

7. Ikki sonning yig'indisi 6 ga, ko'paytmasi 7 ga teng bo'lsa, bu sonlar kublarining yig'indisi nechaga teng bo'ladi?

A) 90 B) 48 C) 64 D) 72 E) 108

Yechilishi: $\begin{cases} x + y = 6 \\ x \cdot y = 7 \end{cases} =>$

$$\begin{cases} x^2 + y^2 = 36 - 2xy = 36 - 2 \cdot 7 = 22; \\ x^3 + y^3 = (x + y)(x^2 - xy + y^2) = 6 \cdot (22 - 7) = 90. \end{cases}$$

Javobi: A.

8. Agar $x = \frac{\sqrt{3}-1}{2}$ bo'lsa, $(x - 1)(x + 2)$ ifodaning qiymatini toping.

A) -1,5 B) 1,5 C) 3 D) -3 E) $2\sqrt{3}$

Yechilishi: $(x-1)(x+2)=x^2+x-2=\left(\frac{\sqrt{3}-1}{2}\right)^2+$

$+\frac{\sqrt{3}-1}{2}-2=\frac{4-2\sqrt{3}+2\sqrt{3}-2-8}{4}=-\frac{6}{4}=-1{,}5.$ Javobi: A.

9. n natural son va $n^2x^2+3n^3x+4=0$ tenglama ildizlarining o'rta arifmetigini o'rta geometrigiga nisbati -3 ga teng bo'lsa, n ning qiymatini toping.

A) 2 B) 1 C) 3 D) 4 E) 5

Yechilishi: $n^2x^2+3n^3x+4=0 \Rightarrow$

$\Rightarrow x^2+3nx+\frac{4}{n^2}=0 \Rightarrow \begin{cases} x_1+x_2=-3n \\ x_1\cdot x_2=\frac{4}{n^2} \end{cases} \Rightarrow$

$\Rightarrow \frac{x_1+x_2}{2}=-\frac{3n}{2};\ \sqrt{x_1\cdot x_2}=\frac{2}{n} \Rightarrow \frac{x_1+x_2}{2}:\sqrt{x_1x_2}=-3;$

$-\frac{3n}{2}:\frac{2}{n}=-3 \Rightarrow \Rightarrow n^2=4 \Rightarrow n=\pm 2 \Rightarrow n=2.$

Javobi: A.

10. a ning nechta butun qiymatida $\frac{a^4-9}{a^3-3a}:\frac{a^3+3a}{a-5a^2}$ ifodaning qiymati butun son bo'ladi?

A) 2 B) 3 C) 1 D) 4 E) 5

Yechilishi: $\frac{a^4-9}{a^3-3a}:\frac{a^3+3a}{a-5a^2}=\frac{(a^2-3)(a^2+3)}{a(a^2-3)}\cdot\frac{a(1-5a)}{a(a^2+3)}=$

$=\frac{1-5a}{a} \Rightarrow \frac{1}{a}-5 \Rightarrow a=\pm 1.$ Javobi: A.

11. $8^{n+2}\cdot 12^{n-3}$ ko'paytmaning natural bo'luvchilari soni 42 ga teng bo'lsa, n nechaga teng bo'ladi?

A) 4 B) 3 C) 2 D) 5 E) 6

Yechilishi: $8^{n+2}\cdot 12^{n-3}=2^{3n+6}\cdot 2^{2n-6}\cdot 3^{n-3}=$

$2^{5n}\cdot 3^{n-3}$; *Bo'luvchilari sonini topish uchun daraja ko'rsatgichlariga bir qo'shilib ko'paytiriladi*:

$(5n+1)(n-3+1)=42 \Rightarrow 5n^2-9n-44=0 \Rightarrow$

$\Rightarrow n=4.$ Javobi: A.

12. Agar $x = \frac{4}{5}m$ bo'lsa, $\frac{\sqrt{m+x}+\sqrt{m-x}}{\sqrt{m+x}-\sqrt{m-x}}$ ning qiymatini toping.

A) 2 B) $2m$ C) 4 D) -2 E) $4m$

Yechilishi: $\frac{\sqrt{m+x}+\sqrt{m-x}}{\sqrt{m+x}-\sqrt{m-x}} = \frac{(\sqrt{m+x}+\sqrt{m-x})\cdot(\sqrt{m+x}-\sqrt{m-x})}{(\sqrt{m+x}-\sqrt{m-x})^2} =$

$= \frac{x}{m-\sqrt{m^2-x^2}} = \frac{4m}{5}\cdot\frac{5}{2m} = 2.$ Javobi: A.

13. $\sqrt{x-2}+\sqrt{1-x} = 2$ tenglamani yeching.

A) $\emptyset$ B) 2 C) 1,2 D) 0,4 E) 0,9

Yechilishi: $\sqrt{x-2}+\sqrt{1-x} = 2 \Rightarrow \begin{cases} x-2 \geq 0 \\ 1-x \geq 0 \end{cases} \Rightarrow$

$\Rightarrow \begin{cases} x \geq 2; \\ x \leq 1. \end{cases}$ $Tenglama\ yechimga\ ega\ emas.$ Javobi: A.

14. q ning qanday qiymatida $x^2 - x - q = 0$ tenglama ildizlari kublarining yig'indisi 19 ga teng bo'ladi?

A) 6 B) 5 C) 7 D) 4 E) 3

Yechilishi: $x^2 - x - q = 0 \Rightarrow$

$\begin{cases} x_1 + x_2 = 1 \Rightarrow\ x_1^2 + x_2^2 = 1 - 2x_1x_2; \\ x_1 \cdot x_2 = -q \end{cases}$

$x_1^3 + x_2^3 = 19 \Rightarrow (x_1 + x_2)(x_1^2 + x_2^2 - x_1x_2) = 19 \Rightarrow$

$\Rightarrow 1 - 2x_1x_2 - x_1x_2 = 19 \Rightarrow\ -3x_1x_2 = 18 \Rightarrow$

$\Rightarrow -3(-q) = 18 \Rightarrow q = 6.$ Javobi: A.

15. Agar $x < 0$ bo'lsa, $\sqrt{x^2-12x+36} - \sqrt{x^2}$ ni soddalashtiring.

A) 6 B) -6 C) $6-2x$ D) $2x-6$ E) 8

Yechilishi: $\sqrt{x^2-12x+36} - \sqrt{x^2} = |x-6| - |x| =$

$= -(x-6) + x = -x + 6 + x = 6.$ Javobi: A.

16. Dastlabki 100 ta natural sonlarni yozganda, 7 raqami necha marta takrorlanadi?

A) 10 B) 20 C) 19 D) 18 E) 17

Yechilishi: $1, 2, 3, \dots, 100.$

$7, 17, 27, 37, 47, 57, 67, \underbrace{70, \dots, 79}_{11\ ta}, 87, 97;$ Javobi: B.

17. $\frac{\sqrt{2}+1}{3+2\sqrt{2}} - \frac{\sqrt{2}-1}{3-2\sqrt{2}}$ ni soddalashtiring

A) 1 B) -1 C) 2 D) -2 E) $\sqrt{2}$

Yechilishi: $\frac{\sqrt{2}+1}{3+2\sqrt{2}} - \frac{\sqrt{2}-1}{3-2\sqrt{2}} = \frac{(\sqrt{2}+1)(3-2\sqrt{2})-(\sqrt{2}-1)(3+2\sqrt{2})}{9-8} =$

$= 3\sqrt{2} - 4 + 3 - 2\sqrt{2} - (3\sqrt{2} + 4 - 3 - 2\sqrt{2}) =$

$= \sqrt{2} - 1 - (\sqrt{2} + 1) = -2.$ Javobi: D.

18. Ikki sonning yig'indisi $2\sqrt{5}$ ga, ko'paytmasi esa 1,75 ga teng. Shu sonlardan kattasi kichigidan qanchaga katta?

A) $\sqrt{7}$ B) $\sqrt{15}$ C) $\sqrt{13}$ D) $\sqrt{17}$ E) $\sqrt{21}$

Yechilishi: $\begin{cases} x + y = 2\sqrt{5} \\ x \cdot y = 1{,}75 \end{cases} => \begin{cases} x = 2\sqrt{5} - y \\ (2\sqrt{5} - y)y = \frac{7}{4} \end{cases} =>$

$=> \begin{cases} x = 2\sqrt{5} - y \\ y^2 - 2\sqrt{5}y + \frac{7}{4} = 0 \end{cases} => \begin{cases} y_1 = \sqrt{5} - \frac{\sqrt{13}}{2} \\ y_2 = \sqrt{5} + \frac{\sqrt{13}}{2} \end{cases} =>$

$=> \begin{cases} x_1 = \sqrt{5} + \frac{\sqrt{13}}{2} \\ x_2 = \sqrt{5} - \frac{\sqrt{13}}{2} \end{cases} => x_1 - y_1 = \sqrt{13}.$ Javobi: C.

19. 7 ta kitob va 4 ta jurnalning birgalikdagi bahosi, 4 ta kitob va 7 ta jurnalning birgalikdagi bahosidan 525 so'm ortiq. Kitob jurnalga qaraganda qancha so'm qimmat turishini aniqlang.

A) 150 B) 175 C) 200 D) 125 C) 145

Yechilishi: $\begin{matrix} 7k + 4j = a + 525 \\ -\ 7j + 4k = a \end{matrix} =>$

$\Rightarrow 3(k-j)=525 \Rightarrow 175$. Javobi: B.

20. Son o'qida 4,2 sondan masofasi 17 dan oshmaydigan songacha bo'lgan oraliqda nechta butun son mavjud?

A) 21 B) 35 C) 32 D) 34 E) 33

Yechilishi:



33 ta. Javobi: E.

21. $x(x>0)$ ga teskari bo'lgan son x ning 36% ini tashkil etadi. x ning qiymatini toping.

A) $2\frac{1}{3}$ B) $1\frac{2}{3}$ C) $1\frac{1}{3}$ D) $2\frac{2}{3}$ E) $3\frac{1}{3}$

Yechilishi: $\frac{1}{x}=0{,}36\cdot x \Rightarrow x^2=\frac{1}{0{,}36} \Rightarrow x=\frac{1}{0{,}6}=1\frac{2}{3}$.

Javobi: B.

22. Mahsulotning narxi ketma-ket ikki marta 10% dan oshirildi. Keyinchalik bu mahsulotga talabning kamligi tufayli uning narxi 20% ga kamaytirildi. Mahsulotning keyingi bahosi dastlabki bahosiga qaraganda qanday o'zgargan?

A) $o'zgarmagan$ B) $1{,}2\%\ ga\ ortgan$

C) $1{,}8\%\ ga\ kamaygan$ D) $3{,}2\%\ ga\ kamaygan$

E) $3{,}2\%\ ga\ ortgan$

Yechilishi: $(1{,}1\cdot x)\cdot 1{,}1=1{,}21x;\ 1{,}21\cdot x\cdot 0{,}8=$

$=0{,}968x \Rightarrow 1-0{,}968=0{,}032$. Javobi: D.

23. Biznesmen o'z pulining 50% ini yo'qotdi. Qolgan puliga aksiya sotib olgach, u 40% daromad (foyda) oldi. Uning oxirgi puli dastlabki pulining necha foizini tashkil etadi?

A) 60 B) 70 C) 80 D) 100 E) 75

Yechilishi: $a\ so'm\ -100\% \Rightarrow 0{,}5\cdot a\cdot 1{,}4=0{,}7\cdot a$.

Javobi: B.

24. Eski traktor maydonni 6 soatda, yangisi esa 4 soatda haydaydi. Shu maydonni 3 ta eski va 2 ta yangi traktor qancha vaqtda haydaydi?

A) 1 $soatda$ B) 1,5 $soatda$ C) 2 $soatda$

D) 2,5 $soatda$ E) 45 $minutda$

Yechilishi: $\left(3 \cdot \frac{1}{6} + 2 \cdot \frac{1}{4}\right) t = 1 => t = 1.$ Javobi: A.

25. Ikki musbat sondan biri ikkinchisidan 60% ga katta. Shu sonlarning ko'paytmasi 1000 ga teng bo'lsa, ularning yig'indisini toping.

A) 100 B) 50 C) 75 D) 65 E) 55

Yechilishi: $x \ va \ 1{,}6x => 1{,}6x^2 = 1000 =>$

$=> x = 25; \ 1{,}6x = 40 => 25 + 40 = 65.$ Javobi: D.

26. Ikki sonning yig'indisi 18 ga, ko'paytmasi esa 61 ga teng. Shu sonlar kvadratlari ayirmasining modulini toping.

A) $70\sqrt{3}$ B) $72\sqrt{5}$ C) $64\sqrt{2}$ D) $76\sqrt{5}$ E) $80\sqrt{2}$

Yechilishi: $\begin{cases} x + y = 18 \\ x \cdot y = 61 \end{cases} => \begin{cases} x = 18 - y \\ y^2 - 18y + 61 = 0 \end{cases} =>$

$$=> \begin{cases} x_1 = 9 + 2\sqrt{5} \\ x_2 = 9 - 2\sqrt{5} \\ y_{1,2} = 9 \pm 2\sqrt{5} \end{cases} => |x_1^2 - y_1^2| = \left|81 + 36\sqrt{5} + 20 - \left(81 + 36\sqrt{5} + 20\right)\right| = 72\sqrt{5}.$$

$Xuddi \ shunday$:

$|x_2^2 - y_2^2| = 72{,}5.$ Javobi: B.

27. $(4x^2 - 7x - 5)(5x^2 + 13x + 3)(3x - x^2 - 8) = 0$ tenglamaning barcha haqiqiy ildizlari ko'paytmasini toping.

A) 1 B) 0 C) 0,75 D) -0,75 E) 1,25

Yechilishi: $(4x^2-7x-5)(5x^2+13x+3)(3x-$

$-x^2-8)=0;\ 4x^2-7x-5=0 \Rightarrow x_1=\frac{7-\sqrt{129}}{8};$

$x_2=\frac{7+\sqrt{129}}{8};\ 5x^2+13x+3=0 \Rightarrow\ x_3=\frac{-13-\sqrt{109}}{10};$

$x_4=\frac{-13+\sqrt{109}}{10};\ x^2-3x+8=0 \Rightarrow\ D<0;$

$x_1\cdot x_2\cdot x_3\cdot x_4=-0{,}75.$ Javobi: D.

28. $7x^2+(5k^2-8k-13)x-k^4=0$ tenglamaning ildizlari qarama-qarshi sonlar bo'ladigan k ning barcha qiymatlari yig'indisini aniqlang.

A) 1,2 B) 1,4 C) 1,6 D) 1,8 E) 2,4

Yechilishi: $7x^2+(5k^2-8k-13)x-k^4=0.$

$Qarama-qarshi\ sonlar\ yig'indisining\ nolga\ tengligi\ e'tiborga\ olinadi.\ U\ holda\ x_1+x_2=0 \Rightarrow$

$\Rightarrow -\frac{5k^2-8k-13}{7}=0 \Rightarrow 5k^2-8k-13=0 \Rightarrow$

$\Rightarrow \begin{cases}k_1=-1\\k_2=2{,}6\end{cases} \Rightarrow\ k_1+k_2=1{,}6.$ Javobi: C.

29. $13x^4-5x^2-17=0$ tenglamaning barcha ildizlari yig'indisining, barcha ildizlari ko'paytmasiga nisbatini toping.

A) 1 B) 0 C) $\frac{3}{2}$ D) $\frac{2}{3}$ E) $aniqlab\ bo'lmaydi$

Yechilishi: $13x^4-5x^2-17=0.$

$Bikvadrat\ tenglama\ ildizlari\ yig'indisining\ nolga\ tengligi\ e'tiborga\ olinadi.$ Javobi: B.

30. a ning nechta qiymatida $\begin{cases}(a-2)x+3y=5\\7x-18y=1\end{cases}$ tenglamalar sistemasi yechimga ega emas?

A) 1 B) 2 C) 4 D) $birorta\ ham\ qiymatida$

E) $cheksiz\ ko'p$

Yechilishi:

$\begin{cases}(a-2)x+3y=5;\\ 7x-18y=1.\end{cases}$ $Ikki\ to'g'ri\ chiziqning\ parallel-$

$lik\ sharti\ e'tiborga\ olinadi$: $\frac{a-2}{7}=\frac{3}{-18}=>$

$=>\frac{a-2}{7}=-\frac{1}{6}=>6a-12=-7=>a=\frac{5}{6}$. Javobi: A.

31. Agar $\begin{cases}|x+y|=5\\ xy=4{,}75\end{cases}$ bo'lsa, son o'qida x va y sonlari orasidagi masofani toping.

A) $\sqrt{6}$ B) $\sqrt{3}$ C) $\sqrt{5}$ D) $\sqrt{7}$ E) $\sqrt{13}$

Yechilishi: $\begin{cases}|x+y|=5\\ xy=4{,}75\end{cases}=>\begin{cases}x+y=5\\ xy=4{,}75\end{cases}=>$

$=>\begin{cases}x=5-y\\ (5-y)y=4{,}75\end{cases}=>y^2-5y+4{,}75=0=>$

$=>y_1=\frac{5-\sqrt{6}}{2};\ \ x_1=\frac{5+\sqrt{6}}{2}=>x_1-y_1=\sqrt{6}$. Javobi: A.

32. $\begin{cases}5^x+5^{-x}=13;\\ 28^x<17^x.\end{cases}$ $5^{-x}-5^x-?$

A) $\sqrt{135}$ B) $-\sqrt{145}$ C) $\sqrt{175}$ D) $\sqrt{165}$

E) $-\sqrt{155}$

Yechilishi: $\begin{cases}5^x+5^{-x}=13\\ 28^x<17^x=>x<0.\end{cases}$

1) $(5^x+5^{-x})^2=13^2=>5^{2x}+5^{-2x}+$

$+2\cdot5^x\cdot5^{-x}=169=>5^{2x}+5^{-2x}=167;$

2) $(5^{-x}-5^x)^2=5^{2x}+5^{-2x}-2\cdot5^{-x}\cdot5^x=$

$167-2=165;\ 5^{-x}-5^x=\sqrt{165}$.

Javobi: D.

33. $x^2+y^2=17;\ x^3y^3=343.\ x^4+y^4=?$

A) 167 B) 176 C) 187 D) 191 E) 205

Yechilishi: 1) $x^3y^3=343=>x\cdot y=7=>x^2y^2=49;$

2) $(x^2+y^2)^2=17^2 \Rightarrow x^4+y^4=289-2x^2y^2=$
$=191$. Javobi: D.

34. 30 kishidan 22 tasi o'yin to'garagida, 17 tasi esa xorda ashula aytadi. Nechta kishi faqat o'yin to'garagiga qatnashadi?

A) $aniqlab\ bo'lmaydi$ B) 8 C) 10 D) 12 E) 13

Yechilishi: $Til\ masalasiga\ iod\ formuladan\ foy-$
$dalaniladi: n=a+b-c \Rightarrow 30=22+17-c \Rightarrow c=$
$9\ kishi\ ikkala\ to'garakda\ ham\ qatnashadi.$

$Demak, 13\ kishi\ faqat\ o'yin\ to'garagiga$
$qatnashadi. Shuningdek, N(A\cap B)=N(A)+N(B)-$
$-N(A\cap B)=22+17-30=9\ kelib\ chiqadi.$

Javobi: E.

35. Soat 9^{00} da ma'lum marshrut bo'yicha tezligi 60 km/soat bo'lgan avtobus jo'natildi. Oradan 40 minut o'tgandan keyin, shu marshrut bo'yicha tezligi 80 km/soat bo'lgan ikkinchi avtobus jo'natildi. Soat nechada ikkinchi avtobus birinchi avtobusni quvib yetadi?

A) 10^{40} B) 11^{20} C) 11^{40} D) 12^{00} E) 12^{20}

Yechilishi: $60t=80\left(t-40\cdot\frac{1}{60}\right) \Rightarrow$
$\Rightarrow 60t=80\left(t-\frac{2}{3}\right) \Rightarrow 6t=8\cdot\frac{3t-2}{3} \Rightarrow$
$\Rightarrow 9t=12t-8 \Rightarrow 3t=8 \Rightarrow t=2\frac{2}{3} \Rightarrow$
$\Rightarrow 2\ soat\ 40\ min.$ $9^{\circ\circ}+2^{40}=11^{40}$. Javobi: C.

36. $x^3 \geq \frac{x^6+8}{9}$ tengsizlik nechta butun sonlarda o'rinli bo'ladi?



A) 1 B) 2 C) 3

D) 4 E) $cheksiz\ ko'p$

Yechilishi: $x^3 \geq \frac{x^6+8}{9} =>$

$=> 9x^3 \geq x^6 + 8 =>$

$=> (x^3)^2 - 9x^3 + 8 \leq 0 =>$

$=> x^3 = y =>$

$=> y^2 - 9y + 8 = 0 =>$

$=> \begin{cases} y_1 = 1 \\ y_2 = 8 \end{cases} => \begin{cases} x_1 = 1; \\ x_2 = 2. \end{cases}$ Javobi: B.

37. $\frac{(x^2-9)\cdot\sqrt{x+5}}{(x^2-4)\cdot\sqrt{3-x}} \leq 0$ tengsizlikni qanoatlantiradigan butun sonlarning yig'indisini toping.

A) 8 B) 0 C) 6 D) -6 E) -8

Yechilishi:

$$\frac{(x^2-9)\cdot\sqrt{x+5}}{(x^2-4)\cdot\sqrt{3-x}} \leq 0 => \begin{cases} x^2 - 9 = 0 \\ x + 5 \geq 0 \\ x \neq \pm 2 \\ x \neq 3 \\ x < 3 \end{cases} =>=> \begin{cases} x = \pm 3; \\ x \geq -5; \\ x \neq -2; \\ x \neq 2; \\ x \neq 3; \\ x < 3. \end{cases}$$



$x = -5; -3.$ Javobi: E.

38. $y = \frac{\ln(7-x^2)}{x+1}$ funksiyaning aniqlanish sohasiga tegishli butun sonlarning yig'indisini toping.

A) 0 B) 1 C) -1 D) 2 E) -2

Yechilishi: $y = \frac{\ln(7-x^2)}{x+1} => \begin{cases} 7 - x^2 > 0 \\ x + 1 \neq 0 \end{cases} =>$

$=> \begin{cases} |x| < \sqrt{7} \\ x \neq -1 \end{cases} => \begin{cases} -\sqrt{7} < x < \sqrt{7} \\ x \neq -1 \end{cases} =>$

$=> x = -2; -1; 0; 1; 2 => -2 + 0 + 1 + 2 = 1.$

Javobi: B.

39. 21 ta hadining yig'indisi 546 ga teng bo'lgan arifmetik progressiyaning o'n birinchi hadini toping.

A) 16 B) 24 C) 22 D) 26 E) 28

Yechilishi: $546 = \frac{a_1+a_{21}}{2} \cdot 21 => a_1 + a_{21} = 52 =>$

$=> a_{11} = \frac{52}{2} = 26.$ Javobi: D.

40. $tg\alpha = \frac{1}{2}. \sin\left(2\alpha + \frac{\pi}{4}\right) = ?$

A) $\frac{\sqrt{2}}{5}$ B) $\frac{2\sqrt{2}}{3}$ C) $\frac{2\sqrt{2}}{5}$ D) $\frac{3\sqrt{2}}{5}$ E) $\frac{7\sqrt{2}}{10}$

Yechilishi: $\sin\left(2\alpha + \frac{\pi}{4}\right) = \frac{\sqrt{2}}{2}(\sin 2\alpha + \cos 2\alpha) =$

$= \frac{\sqrt{2}}{2}\left(\frac{2tg\alpha}{1+tg^2\alpha} + \frac{1-tg^2\alpha}{1+tg^2\alpha}\right) = \frac{7\sqrt{2}}{10}.$ Javobi: E.

41. $\sin^2 x + \sin^2 4x = \sin^2 2x + \sin^2 3x$ tenglamani yeching.

A) $\frac{\pi n}{2}, n \in Z$ B) $\frac{\pi}{5} + \frac{2\pi n}{5}, n \in Z$

C) $\frac{\pi}{10} + \frac{2\pi n}{5}; \pi n, n \in Z$ D) $\frac{\pi n}{2}; \pm\frac{\pi}{3} + \frac{2\pi n}{3}, n \in Z$

E) $\frac{\pi}{10} + \frac{\pi n}{5}; \frac{\pi n}{2}, n \in Z$

Yechilishi: $\sin^2 x + \sin^2 4x = \sin^2 2x + \sin^2 3x;$

$\frac{1}{2}(1 - \cos 2x) + \frac{1}{2}(1 - \cos 8x) = \frac{1}{2}(1 - \cos 4x) +$

$+ \frac{1}{2}(1 - \cos 6x);\ \cos 2x + \cos 8x = \cos 4x + \cos 6x;$

$=> 2\cos 5x\,(\cos 3x - \cos x) = 0 =>$

$$\Rightarrow \begin{cases} \cos 5x = 0 \\ \cos 3x - \cos x = 0 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} \cos 5x = 0 \\ -2\sin 2x \sin x = 0 \end{cases} \Rightarrow$$

$$2\cos 5x \cos 3x = 2\cos 5x \cdot \cos x \Rightarrow$$

$$2\cos 5x\,(\cos 3x - \cos x) = 0 \Rightarrow$$

$$\Rightarrow \begin{cases} \cos 5x = 0 \\ \cos 3x - \cos x = 0 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} \cos 5x = 0 \\ -2\sin 2x \cdot \sin x = 0 \end{cases} \Rightarrow$$

$$\Rightarrow \begin{cases} \cos 5x = 0 \\ \sin 2x = 0 \\ \sin x = 0 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} x = \frac{\pi}{10} + \frac{\pi n}{5} \\ x = \frac{\pi}{2} n \\ x = \pi n \end{cases} \Rightarrow$$

$$\Rightarrow \begin{cases} x = \frac{\pi}{10} + \frac{\pi n}{5}; \\ x = \frac{\pi n}{2}. \end{cases} n \in Z.$$ Javobi: E.

42. $|\sin x| \le \frac{\sqrt{3}}{2}$ tengsizlikni yeching.

A) $\left[-\frac{\pi}{3} + \pi n; \frac{\pi}{3} + \pi n\right], n \in Z$

B) $\left[-\frac{\pi}{6} + \pi n; \frac{\pi}{6} + \pi n\right], n \in Z$

C) $\left[-\frac{\pi}{6} + 2\pi n, \frac{\pi}{6} + 2\pi n\right], n \in Z$

D) $\left[-\frac{\pi}{3} + 2\pi n; \frac{\pi}{3} + 2\pi n\right], n \in Z$

E) $\left[-\frac{\pi}{3} + \frac{\pi n}{2}; \frac{\pi}{3} + \frac{\pi n}{2}\right], n \in Z$



Yechilishi: $|\sin x| \le \frac{\sqrt{3}}{2} \Rightarrow$

$$\Rightarrow -\frac{\sqrt{3}}{2} \le \sin x \le \frac{\sqrt{3}}{2} \Rightarrow$$

$$\Rightarrow \left[-\frac{\pi}{3} + \pi n; \frac{\pi}{3} + \pi n\right], \ n \in Z.$$

Javobi: A.

43. $y = \sin^6 x + \cos^6 x$ funksiyaning eng kichik musbat davrini aniqlang.

A) 2π B) π C) $\frac{\pi}{2}$ D) $\frac{\pi}{4}$ E) $\frac{\pi}{3}$

Yechilishi: $y = \sin^6 x + \cos^6 x = 1 - \frac{3}{4}\sin^2 2x =$

$= 1 - \frac{3}{4} \cdot \frac{1}{2}(1 - \cos 4x) = \frac{3}{8}\cos 4x - \frac{5}{8} => \quad e.k.d =$

$= \frac{2\pi}{4} = \frac{\pi}{2}.$ Javobi: C.

44. $\sin^5 x + \cos^6 x = 1$ tenglamaning $\left[-\frac{7\pi}{4}; \frac{5\pi}{4}\right]$ kesmadagi eng katta va eng kichik ildizlari orasidagi ayirmani toping.

A) 2π B) $1{,}5\pi$ C) $3{,}5\pi$ D) 3π E) $2{,}5\pi$

Yechilishi: $\sin^5 x + \cos^6 x = 1 =>$

$$\begin{cases}\sin^5 x = 1\\ \cos^6 x = 1\end{cases} => \begin{cases}\sin x = 1\\ |\cos x| = 1\end{cases} => \begin{cases}x = \frac{\pi}{2} + 2\pi k\\ \cos x = \pm 1\end{cases} =>$$

$$=> \begin{cases}x = \frac{\pi}{2} + 2\pi k;\\ x = \pi k.\end{cases} \quad [-315;\ 225]$$

$$k = -1 => \begin{cases}x = -\frac{3\pi}{2};\\ x = -\pi.\end{cases}$$

$$k = 0 => \begin{cases}x = \frac{\pi}{2};\\ x = 0.\end{cases}$$

$$k = 1 => \begin{cases}x = \frac{5\pi}{2};\\ x = \pi.\end{cases}$$

$Eng\ katta\ yechim\ \pi\ dan,\ eng\ kichik\ yechim\ -\frac{3\pi}{2}$

$ayriladi:\ \pi - \left(-\frac{3\pi}{2}\right) = \frac{5\pi}{2} = 2{,}5\pi.$ Javobi: E.

45. $\sin 3x = \cos 5x$ tenglamani yeching.

A) $\frac{\pi}{15} + \frac{\pi n}{3}, n \in Z$

B) $\frac{\pi}{4} + \pi n; \frac{\pi}{16} + \frac{\pi n}{2}, n \in Z$

C) $\frac{\pi}{16} + \frac{\pi n}{4}; \frac{3\pi}{4} + \pi n, n \in Z$

D) $\frac{\pi}{4} + \frac{\pi n}{4}; \frac{3\pi}{4} + \frac{\pi n}{2}, n \in Z$

E) $\frac{\pi n}{2}; \frac{\pi}{4} + \pi n, n \in Z$

Yechilishi: $\sin 3x = \cos 5x =>$

$\sin 3x - \sin\left(\frac{\pi}{2} - 5x\right) = 0 =>$

$=> 2\cos\left(\frac{\pi}{4} - x\right) \cdot \sin\left(4x - \frac{\pi}{4}\right) = 0 =>$

$$=> \begin{cases} \cos\left(\frac{\pi}{4} - x\right) = 0 \\ \sin\left(4x - \frac{\pi}{4}\right) = 0 \end{cases} => \begin{cases} x - \frac{\pi}{4} = \frac{\pi}{2} + \pi n \\ 4x - \frac{\pi}{4} = \pi n \end{cases} =>$$

$$=> \begin{cases} x = \frac{3\pi}{4} + \pi n, n \in Z; \\ x = \frac{\pi}{16} + \frac{\pi n}{4}, n \in Z. \end{cases}$$ Javobi: C.

46. Zalning uzunligi, eni va balandliklarining nisbati 5: 3: 1 kabi. Zalning uzunligi uning enidan 8 m ko'p. Zalning hajmini (m^3) toping.

A) 930 B) 840 C) 960 D) 790 E) 920

Yechilishi:

$$\begin{cases} V = x \cdot 3x \cdot 5x = 15x^3 \\ V = x \cdot 3x(3x + 8) \end{cases} =>$$



$=> x \cdot 3x \cdot 5x =$

$= x \cdot 3x(3x + 8) =>$

$=> 5x = 3x + 8 => x = 4 => V = 15 \cdot 4^3 = 960.$

Javobi: C.

47. Radiuslari $\sqrt{2}$ ga teng bo'lgan ikki doiraga uzunligi 2 ga teng bo'lgan umumiy vatar o'tkazildi. Shu doiralar umumiy qismining yuzini toping.

A) $\pi - 1$ B) $\frac{\pi}{2} - 1$ C) $\pi - 2$ D) $\frac{\pi}{2} - \frac{1}{2}$ E) $\frac{\pi - 3}{2}$

Yechilishi:



$S_{segment} = \frac{\sqrt{2}^2}{2}\left(\frac{\pi \cdot 90°}{180°} - \right.$

$\left. -\sin 90°\right) = \frac{\pi}{2} - 1;$

$2S_{segment} = \pi - 2.$ Javobi: C.

48. To'g'ri burchakli uchburchakning katetlaridan biri boshqasiga qaraganda 2 marta katta. Shu uchburchakning gepotenuzasiga tushirilgan balandligi 12 ga teng. Uchburchakning yuzini toping.

A) 180 B) 84 C) 120 D) 96 E) 108

Yechilishi: $S_\Delta = \frac{1}{2}a \cdot 2a = a^2;$



$c^2 = a^2 + 4a^2 => \ c = \sqrt{5}a.$

$S_\Delta = \frac{1}{2} \cdot 12 \cdot \sqrt{5}a \ =>$

$=> \ a^2 = 6\sqrt{5}a => a = 6\sqrt{5};$

$S = \left(6\sqrt{5}\right)^2 = 180.$ Javobi: A.

49. Teng yonli trapetsiyaga ichki chizilga aylana urinish nuqtasida yon tomonni 1:9 kabi nisbatda bo'ldi. Agar aylananing uzunligi 6π bo'lsa, trapetsiyaning perimetrini toping.

A) 20 B) 30 C) 40 D) 50 E) 60

Yechilishi: $Teng\ yonli\ trapetsiyaga\ aylana\ ichki$

$chizilganligi\ uchun: OA \perp$

$OB; AB + CD = AD + BC;$



$AD = BC.$

$6\pi = 2\pi r => r = 3;$

$3^2 = x \cdot 9x => x = 1;$

$P = AB + CD + AD + BC =$

$= 40.$ Javobi: C.

50. Uchburchakning uchlari unga tashqi chizilgan aylana to'la yoyini 1:2:3 nisbatda bo'lgan uchta bo'lakka ajratadi. Shu uchburchakning eng kichik tomoni $\sqrt[4]{6}$ ga teng bo'lsa, uning yuzini toping.

A) $2\sqrt{3}$ B) $3\sqrt{2}$ C) $2\sqrt{2}$ D) $1{,}5\sqrt{2}$ E) $2{,}5\sqrt{3}$

Yechilishi:



$x + 2x + 3x = 360° =>$

$=> 6x = 360° =>$

$=> x = 60°;$

$\frac{BC}{AC} = tg60° =>$

$=> BC = \sqrt[4]{6} \cdot \sqrt{3};$

$S_{\Delta} = \frac{1}{2} \cdot AC \cdot BC =$

$= \frac{1}{2} \cdot \sqrt[4]{6} \cdot \sqrt[4]{6} \cdot \sqrt{3} =$

$= \frac{1}{2} \cdot \sqrt{6} \cdot \sqrt{3} = \frac{1}{2}\sqrt{18} = \frac{1}{2} \cdot 3\sqrt{2} = 1{,}5\sqrt{2}.$ Javobi: D.

51. To'g'ri burchakli uchburchakning katetlaridan biri ikkinchisiga qaraganda 3 birlik uzun, yuzi esa 18 ga teng. Shu uchburchakning gepotenuzasini toping.

A) 15 B) 12 C) 10 D) 9 E) 8

Yechilishi: $c^2 = a^2 + (a+3)^2 =$



$= a^2 + a^2 + 6a + 9 =$

$= 2a^2 + 6a + 9;\ 18 = \frac{1}{2}a \cdot (a+3) =>$

$=> a^2 + 3a - 36 = 0 =>\ a = \frac{\sqrt{153}-3}{2};$

$c^2 = 81 => c = 9.$ Javobi: D.

52. Uchburchakka tashqi chizilgan aylananing uzunligi 7π ga teng. Uchburchakning katta tomoni aylananing diametriga teng bo'lsa, uning katta burchagidan tushirilgan medianasining uzunligini toping.



A) 2,5 B) 3 C) 3,5
D) 4 E) 4,5

Yechilishi: $7\pi = 2\pi R = R = 3{,}5.$

Javobi: C.

53. Muntazam oltiburchak tomonining uzunligi 1 ga teng. Shu oltiburchak tomonlarining o'rtalari ketma-ket tutashtirildi, so'ngra hosil bo'lgan oltiburchak tomonlarining o'rtalari yana ketma-ket tutashtirildi va h.k. Hosil bo'lgan barcha oltiburchaklar yuzlarining yig'indisini toping.

A) $3\sqrt{3}$ B) $2\sqrt{6}$ C) $2\sqrt{3}$
D) $3\sqrt{6}$ E) $6\sqrt{3}$



Yechilishi:

1) $6\alpha = 180(6-2) \Rightarrow$
$\Rightarrow \alpha = 120°;$

2) $\frac{a}{2} = \frac{1}{2} = \cos 30° \Rightarrow a = \frac{\sqrt{3}}{2};$





$3)\ \frac{b}{2}:\frac{\sqrt{3}}{4}=\cos 30°\Rightarrow \frac{b}{2}=\frac{\sqrt{3}}{2}\cdot\frac{\sqrt{3}}{4}\Rightarrow b=\left(\frac{\sqrt{3}}{2}\right)^2;$

$Demak, tomonlar: 1, \frac{\sqrt{3}}{2}, \left(\frac{\sqrt{3}}{2}\right)^2, \ldots$ *cheksiz kama – yuvchi geometrik progressiya hosil qiladi.*

$1)\ S_6'=\frac{1}{2}\cdot 6\cdot 1^2\cdot \sin 60°=\frac{3\sqrt{3}}{2};$

2) $R_2\Rightarrow \frac{\sqrt{3}}{4}:R_2=\sin 30°\Rightarrow R_2=\frac{\sqrt{3}}{2}\Rightarrow$

$\Rightarrow S_6''=\frac{1}{2}\cdot 6\cdot\frac{3}{4}\cdot\sin 60°=\frac{9\sqrt{3}}{8};$

3) $R_3\Rightarrow \frac{3}{8}:R_3=\sin 30°\Rightarrow R_3=\frac{3}{4};\Rightarrow$

$S_6'''=\frac{1}{2}\cdot 6\cdot\frac{9}{16}\cdot\sin 60°=\frac{27\sqrt{3}}{32};$

$S_6', S_6'', S_6''', \ldots\Rightarrow \frac{3\sqrt{3}}{2}, \frac{9\sqrt{3}}{8}, \frac{27\sqrt{3}}{32}, \ldots\Rightarrow$

$\Rightarrow q=\frac{27\sqrt{3}}{32}:\frac{9\sqrt{3}}{8}=\frac{3}{4};\Rightarrow S=\frac{3\sqrt{3}}{2}:\left(1-\frac{3}{4}\right)=\frac{3\sqrt{3}}{2}\cdot\frac{4}{1}=$

$=6\sqrt{3}.$ Javobi: E.

54. Teng yonli trapetsiya asoslarining ayirmasi uning yon tomoniga teng. Shu trapetsiyaning katta burchagini toping.

A) 120° B) 135° C) 150° D) 100°

E) *aniqlab bo'lmaydi*

Yechilishi:

$\Rightarrow \alpha=90+30=120°.$

Javobi: A.



55. Tog'ri burchakli uchburchakning uzunligi 14 va 18 ga teng katetlariga tushirilgan

medianalari uni uchta uchburchakka va to'rtbuchakka ajratadi. To'rtburchakning yuzini toping.

A) 56 B) 64 C) 48 D) 72 E) 42

Yechilishi: $S_{\Delta ABC} = \frac{1}{2} \cdot 14 \cdot 18 = 126.$



Uchburchakning 3 ta medianasi uchburchak yuzini 6 ta tengdosh uchburchaklarga aj – ratadi:

$S_{\Delta COD} = \frac{1}{6} \cdot 126 = 21.$

$S_{\square} = 2S_{COD} = 42.$

Javobi: E.

56. Gepotenuzasi 10 ga, katetlaridan biri 8 ga teng bo'lgan to'g'ri burchakli uchburchakning kichik burchagi uchidan o'tkazilgan bissektrisasining uzunligini toping.

A) $\frac{3\sqrt{5}}{2}$ B) $\frac{2\sqrt{10}}{3}$ C) $\frac{8\sqrt{10}}{3}$ D) $\frac{5\sqrt{3}}{2}$ E) $\frac{8\sqrt{3}}{5}$

Yechilishi:



$l = \frac{\sqrt{8 \cdot 10 \cdot 24 \cdot 12}}{8+10} = \frac{8\sqrt{10}}{3}.$ Javobi: C.

